XVIII asr oxiri – XIX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitida o‘zbek, fors-tojik, ozarbayjon, uyg‘ur mumtoz shoirlari tomonidan joriy etilgan an’analarning ijodiy o‘zlashtirilishi va takomili ham Amiriy nomi bilan bog‘liq.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QO‘QON ADABIY MUHITI IJODKORLARI ANTOLOGIYASI

TAMADDUN
Toshkent 2022

UDK: 821.512.133-6
KBK: 84(5o‘)
Q-18

Tahrir hay’ati:

N.Jabborov, J.Eshonqulov, M.Asadov, D.G‘oyipov, D.Abdullaeva, Z.Amonova, M.Siddiqov, O.Davlatov, O.Jo‘raboyev, D.Zohidova, M.Saidakbarova, Z.Rahmonova, I.Ismoilov, S.Matkarimova

Mas’ul muharrir
Zebo Qobilova,
Filologiya fanlari doktori, professor

Nashrga tayyorlovchilar:

E.Ochilov, A.Turdaliyev, L.Ahmadaliyev, M.Imomaliyeva, N.Tursunova, D.Asqarov, H.Raimova, D.Abdullayeva.

Taqrizchilar:

Nazmiya Muhiddinova,
Filologiya fanlari doktori,

Baxtiyor Fayzulloyev,
Filologiya fanlari nomzodi

Antologiya Qo‘qon davlat pedagogika instituti Kengashining 5-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur antologiya №AL-322103020 raqamli “Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining hayoti va ijodi bo‘yicha veb sayt va elektron platform yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida nashr etilgan.

ISBN 978-9943-8424-3-4

© “TAMADDUN”, 2022.

AMIRIY
(1787 -1822)

Said Umaibek – Umarxon, adabiy taxallusi Amir, Amiriy bo‘lgan hukmdor, o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin siymolaridan biri sanaladi. U o‘zining ancha qisqa, atigi 35 yillik umri davomida madaniyat va adabiyot rivojiga katta havas bilan qarab, o‘z poytaxt shahri – Qo‘qonda kuchli adabiy markaz tashkil etgan. Yuzdan ortiq shoir-u adiblar, hofiz-u xonandalar, kulgi, askiya ustalari, xattotlar uning homiyligida o‘z iste’dodlarini namoyon etganlar. Diyonati, e’tiqodi mustahkam, madaniyati yuksak shaxs sifatida mamlakat hamda el-u yurt tashvishlari bilan yashagan. Ko‘p vaqtini mamlakat obodonchiligiga, bunyodkorlikka, adabiyot va san’at ravnaqiga sarf etgan.

Amiriy adabiy merosini 460 g‘azal, 57 muxammas, 6 musaddas, 2 musamman, 16 tuyuq, 7 ruboiy tashkil etadi. Amiriyning o‘zbek va fors tillaridagi g‘azallari o‘zining xalq diliga yaqinligi, musiqiyligi, fikriy-falsafiy teranligi, badiiy jihatdan go‘zalligi bilan kishi qalbini hayajonlantiradi. Ularni umumbashariy ahamiyatga molik go‘zal she’rlar deyishga haqlimiz. Ayniqsa, uning “Qoshingg‘a teguzmag‘il qalamni”, “Junun daryosi tug‘yon aylamakni mandin o‘rgandi”, “Lab uyur takallumg‘a, zulfni parishon qil”, “Dedi, Yusuf ko‘rub yorimni, jononing‘a sallamno”, “Husnung kamola etti, ey mahliqo, muborak”, “Surma tortib qilma jodu ko‘zni, ey dilbar, qaro”, “Jahon jono, jamolingga tasadduq”, “Menki ul ruxsori nur afzoya oshiq bo‘lmisham” misralari bilan boshlanuvchi g‘azallari o‘zbek g‘azalchiligining nodir namunalaridir. Amiriyning ishq mavzuyidagi she’rlari majmuidan ishq dostoni paydo bo‘ladi, deyish mumkin. Chunki ularda sevgi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha kechinmalar – visol, hijron, firoq, rashk, iztirob, umid, shodlik o‘z lirik ifodasini topgan.

Mumtoz adabiy an’anada bo‘lgani kabi uning ijodida ham majoziy va haqiqiy ishq bir-birini to‘ldiradi, biri ikkinchisiga vosita sifatida qaraladi. Ishqni hayotning ma’nosi, ijodning ilhomchisi hisoblagan shoir ko‘plab g‘azallarida o‘zini “ishq mulkining amiri”, “mulki dil amiri”, “ko‘ngil taxti amiri”, “junun shahri amiri”, “iqlimi vafo amiri” sifatlari bilan lutf etadi. Amiriy devonidan joy olgan lirik turning g‘azal janriga oid namunalar obraz va obrazlilik bilan ziynatlangan. Ularda insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etadi, shoir ularda asrlar davomida shakllanib kelgan an’anaviy obraz va badiiy tasvir vositalariga qaysidir jihatdan yangicha ma’no yuklaydi.

“Majmuai shoiron” asarining she’riy usulda yaratilgan ilk tazkira sifatida yuzaga kelishi, eng mashhur o‘zbek shoiralari Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Mahzuna, Anbar otinlarning deyarli bir paytda Amiriy adabiy maktabidan yetishib chiqqanligi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar ijodi misolida hajvnavislikning o‘zbek mumtoz adabiyotining alohida yo‘nalishi darajasiga ko‘tarilishi va Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodi orqali mumtoz an’analarining, irfoniy she’riyatning XX asrning ikkinchi yarmiga qadar bardavom bo‘lishi shular jumlasidandir.

Mazkur antologiyaning birinchi kitobiga Qo‘qon adabiy muhitining Umarxon Amiriy davri shoirlari haqida qisqacha ma’lumot va ijodidan namunalar kiritilgan. Majmuani tayyorlashda Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron”, Po‘latjon domullo Qayyumiy “Tazkirai Qayyumiy” kabi asarlariga, shuningdek, shoirlar devonlari va turli bayozlarga kiritilgan she’rlar va ma’lumotlarga tayanildi. Qo‘qon adabiy muhiti bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlardan ham foydalanildi. Umid qilamizki, antologiyaga kiritilgan she’rlar kitobxonlarga manzur bo‘ladi.

Zeboxon Qobilova,
Filologiya fanlari doktori, professor

QO‘QON ADABIY MUHITI

Muayyan milliy adabiyot tarixini yoritish uning taraqqiyotiga, o‘ziga xos qiyofa kasb etishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan adabiy hodisalarni alohida tadqiq etishni talab etadi. O‘zbek adabiyotining ana shunday hodisalaridan biri XVII-XIX asrlarda shakllanib, o‘z atrofida yuzga yaqin ijod ahlini birlashtirgan, serqirra va jo‘shqin madaniy hayot markazi sifatida millat tarixida chuqur iz qoldirgan Qo‘qon adabiy muhitining yuzaga kelishidir. Mazkur muhitning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti shoh-shoir Amir Umarxon nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z davrining yirik davlat arbobi va zabardast ijodkori bo‘lgan. Mutaxassislar Umarxon davri adabiyotini XV asrdagi Husayn Boyqaro boshchiligidagi Hirot adabiy muhitiga bo‘ylashgan adabiy-estetik voqelik bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Ahmad Zakiy Validiy Qo‘qonda Amir Umarxon, Xivada Muhammad Rahimxon Feruz davrlarida Navoiy zamonasidagi muhit mavjud bo‘lganligini e’tirof etadi[1]. Qo‘qon adabiy muhitining tarixiy-badiiy tavsifi ko‘plab manbalarda o‘z ifodasini topgan. Bular sirasiga Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron”[2] tazkirasi, «Umarnoma» asari, Mushrif Isfaragiyning “Shohnomai Nusratpayom», Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Is’hoqxon Ibratning “Farg‘ona tarixi”, Dilshodi Barnoning “Tarixi muhojiron”, Mirza Olim Mushrifning «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin», Mulla Olim Maxdum Hojining «Tarixi Turkiston» kabi asarlari[3] kiradi. Mazkur tarixiy manbalar ayrim sub’ektiv-tendensioz jihatlariga qaramay, ularning aksariyati bevosita Amiriy zamoni va Qo‘qon adabiy muhitining gullab-yashnagan pallasida yaratilgani yoki shu davr manbalariga asoslangani bilan ahamiyatlidir. XX asrda yaratilgan Qo‘qon adabiy muhitiga oid eng ahamiyatli manba qo‘qonlik

[1] A.Zeki Velidi Togan. Bugungi Turk ili: Turkistan va yakin tarixi. Istanbul-1981, B. 501

[2] Фазлий Намангоний. Мажмуат уш-шуаро. – Тошкент, Литотипография, 1903

[3] Фазлий Намангоний. Умарнома / Воҳидов Ш. Қўқон тарихчилари Фазлий ва Мушриф. – Т., 1996. – Б.7–15; Мушриф Исфарагий. Шоҳномаи Нусратпаём / Воҳидов Ш. Қўқон тарихчилари Фазлий ва Мушриф. Т., 1996. – Б. 16–23; Ҳакимхон Тўра. Мунтахаб ут-таворих. ЎзР ФА ШИ. Инв.№ 594. – Б. 253–254; Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи. – Т.: Камалак, 1991. – Б. 288–292; Дилшод. Тарихи муҳожирон / Дилшод Анбар Отин. Ўзбек шоиралари баёзи. – Т.: Фан, 1994. – Б.75–82; Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995. – Б.19; Мулла Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Қарши: Насаф, 1992. – Б. 36–45.

tazkiranavis va tarixchi P. Qayumovning “Tazkirai Qayyumiy” asari sanaladi.[4]

Qo‘qon adabiy muhitining ilmiy asosda tadqiq etilishining boshlanishi jadid olimlari faoliyati bilan bog‘liq. Abdurauf Fitratning “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash”[5], Miyon Buzruk Solihovning “O‘rta Osiyo va o‘zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash”[6] nomli tadqiqotlarida Amiriy va u asos solgan Qo‘qon adabiy muhitining o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni haqida to‘xtab o‘tilgan. Jumladan, Fitrat: “Umarxon zamonida saroy atrofida bir ko‘b shoirlar yig‘ildilar. Bular orasida Fazliy, Hoziq, Xijlatxon kabi san’atda yuqori darajada turganlari bor edi” deb e’tirof etadi[7].

Istiqlol adabiyotshunosligiga qadar Qo‘qon adabiy muhiti va uning namoyandalari ijodi yuzasidan yaratilgan fundamental tadqiqot akademik A.Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti” (1961) nomli monografiyasidir. Tadqiqot o‘zi yaratilgan davrning hukmron ideologiyasi – sho‘roviy mafkura ta’siridan xoli bo‘lmasa-da, fakt va ma’lumotlarga boyligi bois hozirga qadar asosiy ilmiy manbalardan biridir[8].

Mustaqillik davrida Qo‘qon xonligi va adabiy muhitini ilmiy xolislik asosida tadqiq etish tamoyiliga e’tibor qaratildi. Bu davrda T.K. Beysembiev, B.M Babadjanov., Sh. Vohidovlarning Qo‘qon xonligi tarixini chuqur va fundamental tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlari yaratildiki, ular mazkur tarix bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan adabiy muhitga oid manbalar haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi.[9] Qo‘qon adabiy muhitini Amiriy shaxsi va ijodi bilan bog‘liq holda tadqiq etishga qaratilgan filologik tadqiqotlar sifatida

[4] Пўлотжон домулло Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. – Тошкент, 1998

[5] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд (Илмий асарлар). – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 59–60.

[6] Миён Бузрук. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. 1-қисм. – Т.: Ўзнашр, 1930. – Б. 74–86.

[7] Фитрат А. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётиға умумий бир қараш / Танланган асарлар. II жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.59.

[8] Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Т.: Фан, 1961.

[9] Бейсембиев Т.К. Кокандская историография. Исследование по источниковедению средней азии XVIII–XIX веков. Алматы: ТОО “Print-S”, 2009. 1263 с., Beisembiev T.K. Annotated Indices to the Kokand Chronicles. Tokyo: ILCAA, 2008. ; Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио–Ташкент, 2010.; Воҳидов Ш. XIX-XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнавислик. Тошкент: Akademnashr, 2010.

Jumladan, Chor Rusiyasining mustamlakachilik siyosatiga norozilik motivlari paydo bo‘ldi, istibdodga nisbatan murosasizlik ifodasi bo‘lgan islomiy ma’rifat g‘oyalari kuchaydi. Masalan, Furqatning (1859-1909) «Munojoti musaddas»i, «Begim» radifli g‘azali, «Bo‘ldi» radifli muxammasi, Muqimiyning 1892 yildagi Toshkent qo‘zg‘olonining tashkilotchilaridan va faol ishtirokchilaridan In’omxo‘ja vafoti munosabati bilan yozilgan «Tarixi favti noibi Toshkandiy» marsiyasi, Zavqiyning “Ajab ermas” muxammasi kabi asarlar bu kayfiyatning ochiq badiiy ifodasi sifatida yuzaga keldi.

3. Sho‘rolar davri (1917 yildan XX asrning ikkinchi choragicha). 1917 yilda hokimiyat kommunistik mafkuraga asoslangan Sovet hukumati qo‘liga o‘tdi. Yangi totalitar siyosatga muvofiq o‘zgarishlar ijtimoiy-adabiy qatlamlarda silsilaviy ravish bilan yuz ko‘rgizdi: mafkurada, san’atda, adabiyotda, uning tobora qat’iylashib borgan temir talablarida, bu talablar bilan shakllangan ijodkor ongining voqelikni badiiy idrok etishida. Yangi adabiy «qonuniyatlar» mevasi bo‘lgan asar qahramoni hayotni faqat yorqin ranglarda ko‘ruvchi, pirovard maqsadini moddiy farovonlik va uning uchun kurashda deb biluvchi shaxs bo‘lishi kerak edi. Ayni sharoitda ham asl axloqiy-ma’naviy qadriyatlarga sadoqat baland bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitida asriy mumtoz an’analarning munosib davomchilari bo‘lgan bir qator ijodkorlar yetishib chiqdilar. Bu davr Qo‘qon adabiy harakatchiligida G‘aribiy-Shuhrat, Nasimiy, Firoqiy, Charxiy, Shukriy, Haydar Shaydoiy, Chustiy, Sobir Abdulla, Habibiy kabi ijodkorlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Ijodiy tamoyillari mushtarak jihatlarga ega bu shoirlarni do‘stlik rishtalari ham birlashtirib turgan. Ularning aksariyati yangi tuzumga nisbatan murosa yo‘lini tutish majburiyatida bo‘lgan esalarda, o‘z ijodlarida salaflari an’analariga sodiqlikni mumtoz she’riyatning poetik-shakliy mundarijasini saqlab orqali namoyon etdilar. Aruz vaznida ijod qilgan Sho‘ro shoirlarining asosiy qismi aynan Qo‘qon adabiy muhitidan yetishib chiqqani bejiz emas. Shu bilan birgalikda mazkur shoirlar orasida yangi davr mafkurasini o‘ziga singdira olmagan va buni nafaqat mumtoz poetik shakllarda, balki g‘oyaviy jihatdan ham ro‘y-rost ifodalashga jur’at etgan oz sonli ijodkorlar ham bo‘lgan.

Amiriy davri Qo‘qon adabiy muhitining eng gullab-yashnagan davri bo‘lib, tarixda chig‘atoy adabiyotining ikkinchi oltin asri sifatida nom qoldirdi. U o‘zbek adabiyotining o‘zigacha bo‘lgan bosqichlari uchun xarakterli bo‘lmagan va millat madaniyati rivojiga alohida ta’sirga ko‘rsatgan bir qator yangi xususiyatlarga ega bo‘ldi. Fazliy

o‘rniga Farg‘ona viloyati tashkil qilingan bo‘lsa-da, xonlik davridagi geografik-ma’muriy hudud doirasida shakllangan adabiy hayot, ijodiy hamkorliklar davom etdi. Qo‘qon ko‘plab shoirlar uyushgan holda faoliyat ko‘rsatgan ijodiy markaz vazifasini bajarishda davom etdi. Davr adabiy hayotining rang-barangligi bu vaqtda ijod sahnasiga chiqqan qalam sohiblari faoliyatida aks etdi. Bu paytda Muqimiy, Muhyi, Furqat, Nisbatiy, Zavqiy, Fansurulloh Xisrav, Haziniy, G‘urbat, Yoriy, Nusrat, Muntazir, Pisandiy, Tahayyur, Zoriy, Qoriy, Rojiy, Muhayyir, Nayyiriy, Mirzoi Xo‘qandiy, Mahmud Hakim Yayfoniy, Muhsiniy, Shaydoi Ho‘qandiy, Mavlaviy Yo‘ldosh kabi va boshqa ko‘plab shoirlar yetishib chiqdilar. 19 asrning 80-yillarida Qo‘qonda Amiriy davridagi ijodiy hamkorlik an’analarini izchil ravishda davom ettirgan adabiy anjuman tashkil topganini Furqatning ushbu fikrlari tasdiq etadi: «...asr shuarolarikim, chunonchi mavlono Muhyi va mavlono Muqimiy va mavlono Zavqiy va mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab, zodai tab’larimizdin mushoira qilur erdik va bir g‘azalda tatabbu’ ko‘rguzub, bir mazmun har nav’ ifoda topar erdi»[27] Muqimiy (1850-1903) she’riyatda Amiriyning o‘zi uchun ustoz maqomida so‘z ustasi bo‘lganini faxriya tarzida ifodalaydi:

Nazar qilganda nazmingg‘a Muqimiy,
Nazokatda Umarxondin qolishmas[28]

Amiriy davridagi badiiy adabiyotning xarakterli xususiyatlaridan bo‘lgan hajviyot an’analari Muqimiyning “Tanobchilar”, “To‘yi Iqonbachcha”, “Maskovchi boy ta’rifida”, “Voqeai Viktor”, “Saylov”, “Dar shikoyati Laxtin”, “Voqeai ko‘r Ashurboy hoji” kabi satirik, “Aroba”, “Loy”, “Bezgak”, “Pashshalar” singari yumoristik asrlarida, Zavqiyning (1853-1921) “Hajvi ahli rasta”, “Talading baring”, “Voqeai qozi saylov”, “Veksel” kabi hajviyalarida davom ettirildi.

Bu paytga kelib Qo‘qon shahrining adabiy markaz sifatidagi funksiyasi qisman tarixan Qo‘qon xonligi tarkibida bo‘lgan shaharlarga o‘tdi. Lekin shunday bo‘lsa-da, Toshkent, Namangan, Andijon, Xo‘janddan bo‘lgan qalam ahllari o‘zaro ijodiy muloqot olib borganlar. Albatta, mazkur davrdagi Qo‘qon adabiy muhiti she’riyatida mavjud ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasi o‘laroq yangi mavzular, an’anaviylik bag‘ridagi zamonaviylik singari xususiyatlar qaror topdi.

[27] Хўқандлик шоир Зокиржон Фурқатнинг аҳволоти - ўзи ёзгони // Туркистон вилоятининг газети. 1891 , №9.

[28] Муқимий. Асарлар. (Нашрга тайёрловчи Ғ.Каримов). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. – Б. 203

amiriyshunos olima Z. Qobilovaning “Amiriyning adabiy faoliyati” nomli Phd, “Badiiy ijodda ta’sir va izdoshlik masalalari (Amiriy ijodi misolida)” nomli DSc tadqiqotlari va ular asosidagi monografiyalari yuzaga keldi.[10] Z. Qobilova va boshqa hammualliflar tomonidan Amiriyning o‘zbekcha va forsiy devonlari nashrga tayyorlandi.[11] Shuningdek, N. Jabborov, Q. Pardaev, I. Adizova, N. Muhiddinova, A. Turdialiev, D. Abdullaeva, O. Jo‘raboev, D.Zohidova, S. Eshonova, A. Dehqonov, A. Muhammadiev, Sh. Karimova, T. Toshboltaevalarning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodining maxsus o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlari yaratildi.[12] Sohaga daxldor ilmiy-nazariy

[10] Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол. фан. номз. ...дис. – Тошкент, 2007.; Қобилова З. Бадиий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърияти мисолида). Филол. фан. докт. (DSc) дисс... – Тошкент, 2021.

[11] Амирий. Қошингга тегузмағил қаламни (Нашрга тайёрловчилар: А.Мадаминов, Э.Очилов, З.Қобилова). – Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси таҳририяти, 2008. – 336 б. ; Амирий. Девон. I. Ўзбекча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар А.Мадаминов, Э.Очилов, З.Қобилова, О.Давлатов). – Тошкент.: “Tamaddun”, 2017.– 452 б; Амирий.Девон. II. Тожикча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар О.Давлатов, З.Қобилова). – Тошкент.: “Tamaddun”, 2017. – 384 б.

[12] Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2004.; Пардаев Қ. Муқимий шеъриятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Тошкент, 2020.; Адизова И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Тошкент, 2020.; Н. Муҳиддинова. Ғозий ва Садоий шеъриятида салафлар анъаналарининг поэтик такомили. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Тошкент, 2021.; Турдиалиев А. Маҳмуд Ҳаким Яйфоний адабий ва илмий меросининг манбалари: Филол. фанлари номз. ...дисс – Тошкент, 1997., Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2003.; Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси: Филол. фан. Номз. ... дис. – Т.: 2003.; Зоҳидова Д. Ғарибий ва унинг девони: Филол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент, 2006.; Эшонова С. XX аср бошларидаги Қўқон шоиралари (Нисо ва Хоний): Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2006.; Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Филология фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2007.; Муҳаммадиев А. Муҳйининг туркий ва форсий девони поэтикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2008.; Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеъриятида поэтик мазмун ва янгиланишлар(Завқий ва Муҳсиний ижоди мисолида). Филология фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2018.; Тошболтаева Т. Фазлий Намангоний.:

muammolar tahlili va yechimi “Amiriy va Qo‘qon adabiy muhiti” (2017), “Alisher Navoiy va Qo‘qon adabiy muhiti” (2021), “Qo‘qon adabiy muhida ayollar she’riyatining o‘rni” (2021), “Qo‘qon adabiy muhiti va uchinchi Renessans” (2022) kabi xalqaro va davlat miqyosida o‘tkazilgan anjuman materiallarida ham o‘z ifodasini topdi.[13]

Ma’lum bir geografik nom bilan bog‘liq adabiy istilohning mohiyatini oydinlashtirish masalaga tarixiy-madaniy rakursdan qarashni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “Qo‘qon adabiy muhiti” istilohi orqali nazarda tutiladigan adabiy muhit qat’iy chegaralanmagan bo‘lsa-da, muayyan geografik-tarixiy hudud va davrga tegishli tushuncha.

Qo‘qon xonligiga asos solinishi tarixan Farg‘ona vodiysidagi urug‘lardan biri bo‘lgan Ming urug‘i bilan bog‘liq. XVIII asrning boshida mazkur urug‘ning yetakchisi bo‘lgan Shohruxbiy hududi Qo‘qon, Isfara, Namangan, Marg‘ilon atrofidagi tumanlardan iborat va Buxoro xonligidan nisbiy mustaqil bo‘lgan yangi davlatni tashkil etadi. Shohruxbiy avlodlari bo‘lgan Abdulkarimbiy, Abdulrahimbiy, Erdonabiylar hukmronligi davrida Qo‘qon xonligining chegaralari ancha kengayadi. Norbo‘tabiy (1770-1801) davrida xonlik tarkibiga Andijon, O‘sh, Xo‘jand ham kirgan. Norbo‘tabiyning o‘g‘li Olimxon (1801-1810) hukmronligi vaqtida markazi Qo‘qon bo‘lgan xonlikning siyosiy mavqe’i mustahkamlandi, Toshkent, Chimkent, Turkiston bo‘yinsun-dirildi.

Olimxonning o‘rniga taxtga o‘tirgan ukasi Umarxon (1810-1822) ham o‘z hokimiyatini mustahkamlash, xonlik hududini kengaytirish siyosatini olib boradi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodini ko‘tarish, yurtni obod qilish yuzasidan qator tadbirlar o‘tkazadi, ilm-fan, madaniyat va adabiyotning rivojiga alohida e’tibor beradi. O‘zbek adabiyoti tarixida “Qo‘qon adabiy muhiti” nomi bilan atalgan adabiy-madaniy hodisaning asoschisi, rahnamo va peshvosi ham aynan Umarxon sanaladi. “Amiriy” taxallusi bilan qalam tebratgan Umarxon turkiy va forsiyda birdek mahorat ijod qilgan iste’dodli shoir edi. “Bu

“Мажмуаи шоирон”да анъана ва ўзига хослик. Филология фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2021

[13] “Амирий ва Қўқон адабий муҳити” мавзусидаги Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Қўқон, 2017.; “ Qo’qon adabiy muhitida ayollar she’riyatining o’rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Qo’qon, 2021.; “Қўқон адабий муҳити ва учинчи ренессанс” мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Қўқон, 2022.;

musulmon olamining mashhur siymolaridan, naqshbandiya tariqatining murshidlarining bo‘lgan Xoja Ubaydulloh – Xoja Ahrori Valining avlodidan edi. Ado shirinzabon va zullisonayn lirik shoir bo‘lib, zamondoshi Fazliy uni

Ado mulki ma’nida sulton erur,
Xiradmandi iqlimi Turon erur

deb ulug‘laydi. Rahmatulloh Vozehning “Tuhfatul-ahbob fi tazkiratul-as’hob” asarida (1871-72) ma’lumot berilishicha, o‘zbek va tojik tillarida tartib berilgan ikki devon qoldirgan Ado o‘z davrida “malikul-kalom” maqomiga loyiq ko‘rilgan. [24]

Amiriy davri adabiyoti an’analari undan keyingi Qo‘qon xonlari davrida ham davom ettirildi. V.V.Bartoldning yozishicha, yangi xonlikning vazifalari agar uning asoschisi davridayoq belgilangan bo‘lsa, madaniy ishlarning tamaltoshi uning vorisi Umarxon davrida qo‘yildi va uning o‘g‘li Muhammadalixon tomonidan davom ettirildi[25]. Akademik A. Qayumov Qo‘qon adabiy muhitining mintaqaning boshqa adabiy muhitlaridan farqlovchi xususiyatlari haqida fikr yuritarkan, mazkurlardan biri bu muhitda o‘zbek tilining yetakchi mavqe’da bo‘lganligi ekanligini ta’kidlaydi: “...aynan Qo‘qon adabiy muhitida mintaqadagi boshqa rasmiy tillar – arab va fors-tojik tillari orasida o‘zbek tili yetakchilikni qo‘lga kiritdi. Bu yerda juda ko‘p o‘zbek shoirlari kamolga yetishib, ona tillari bo‘lgan o‘zbek tilida devon tuzgan shoirlar yetishib chiqdilarki, ularga haqli ravishda Amiriy va Nodira boshchilik qilishardi.” **[26]** Amir Umarxonning Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy va o‘zining turkiy she’rlaridan tuzilgan “Muhabbatnoma” deb nomlangan she’riy majmuani turk sultoni Mahmud ikkinchiga tuhfa sifatida yuborganligi turkiy tilli xalqlar o‘rtasidagi birdamlikni mustahkamlash yo‘lidagi urinish edi. Qo‘qonning so‘nggi xoni Xudoyorxon davrida ham Amiriyning ona tilini qo‘llab-qavvatlash ruhidagi an’analari davom ettirildi, jumladan, bu davrda saroy devonda o‘zbek tilida yozishmalar olib borilishiga erishildi.

2. Chor Rusiyasi istilosi davri (XIX asrning oxirgi choragi va XX asr boshlari) 1976 yilga kelib, Qo‘qon xonligi rasman tugatilib, uning

[24] Valixo’jayev. B. Buyuk ma’naviy murshid. –Toshkent: Fan, 2004, 125-bet

[25] Бартольд В.В. Сочинения. 2-том. – М.: Наука, 1963. – С. 289.

[26] Қаюмов А. Амирий – Қўқон адабий муҳитининг асосчиси // “Амирий ва Қўқон адабий муҳити” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т.: “Tamaddun”, 2017. – Б. 9.

dostoni, Uvaysiyning “Karbalonoma”, “Voqeoti Muhammadalixon” tarixiy dostonlari yaratildi.

Amiriyning o‘zbek adabiyoti tarixidagi yuksak xizmatlaridan biri shu bo‘ldiki, u umr yo‘ldoshi Nodira bilan birgalikda o‘z davrining ayol ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga she’riyat maydonida o‘z so‘zini aytish imkonini berishga xayrxohlik ko‘rsatdi. Shunisi alohida ta’kidga loyiqki, bu tendensiya o‘sha davrdagi yondosh Buxoro va Xiva adabiy muhitlarida kuzatilmaydi. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi ulkan so‘z san’atkorlari – Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Mahzuna, Anbar otin singari shoiralarning deyarli bir paytda Amiriy adabiy maktabidan yetishib chiqqanligi fenomen hodisadir.

Gulxaniy va Maxmur kabi o‘tkir qalam sohiblari ijodi misolida hajviyot, xususan, satira rivoj topdi. Turli janrlardagi 70 ga yaqin hajviy asarlar ijodkori bo‘lgan Maxmur satirasining markazida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy nufuzga ega qatlam vakillari turganligini muayyan darajada Amiriy zamonidagi ijodiy so‘z erkinligidan dalolat sifatida baholash mumkin. Maxmur bir shaxsning hajviga bag‘ishlangan bir necha asarlar yaratish bilan o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib satirik turkum yaratish an’anasini boshlab berdi (“Avsofi qozi Muhammadrajabi Avj”, “G‘azali qozi Muhammadrajabi Avj dar borai xud”; “Avsofi Hoji Niyoz”, “G‘azali Hoji Niyoz dar borai xud”; “Dar sifati qoziyi Xoja sagbon”, “G‘azali qoziyi Xoja sagbon” va boshqalar). Keyinchalik bu an’ana Qo‘qon adabiy muhitining yana bir vakili bo‘lgan Muqimiy ijodida ko‘zga tashlanadi («Hajvi Viktorboy», «Hajvi Viktor», «Voqeai Viktor»). Amiriy tashabbusi va homiyligida yaratilgan Gulxaniyning "Zarbulmasal"i esa 400 ga yaqin xalq maqol va aforizmlarini yaxlit kompozitsiyaga ega apologik asar tarkibida taqdim etgan, ayni paytda hajviyot unsurlarini mujassam etgan unikal ijod namunasi bo‘lib, uning analogi nafaqat o‘zbek, Sharq mumtoz adabiyotida uchramaydi.

Qo‘qon adabiy muhitining mazkur bosqich adabiyotida o‘zining iste’dodi bilan e’tirof topgan Ado, Behjat, Nola, Xijlat, Ma’yus, Hotif kabi merosi hali yaxshi o‘rganilmagan ko‘plab shoirlar borki, ular ijodini chuqur va ilmiy asosda tadqiq etish o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan vazifalardandir. Ayni vazifani ado etish Qo‘qon adabiy muhitining adabiy hodisa sifatidagi ahamiyati va o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan ulushi haqida yanada to‘kis ilmiy tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi. Masalan, ana shunday shoirlardan biri Sultonxonto‘ra Ado o‘z davrining taniqli shayxulislomi bo‘lib, u

jannatmakon asrinda ulamoyu talaba va ahli ilmlar rivojda bo‘lib, she’riyat mo‘tabar ekan, – deb yozadi muarrix Ibrat. – O‘zi she’rda benazir o‘lub, “Majmuat ush-shuaro”sinda fasohati bayon va balog‘ati ayondur”[14].

Umarxon farmoyishiga ko‘ra, adabiy hayotda qator islohotlar qilindi. U Olimxon zulmidan qochib, qo‘shni mamlakatlarga ketib qolgan bir qancha ulamo va fuzalo hamda taniqli ziyolilarni Qo‘qonga qaytaradi. Ichki hokimiyatni biroz mustahkamlagach, Qashqar, Turkiston, O‘ratepa, Jizzax kabi shaharlarni ham o‘z tasarrufiga kiritadi.

O‘sha yillarda Olimxonga qarshi qattiq kurashib kelgan Toshkent aholisi Umarxonni e’zoz va hurmat bilan kutib oladilar. Umarxon Dashti Qipchoq yerlarida Oqmasjid, Yangiqo‘rg‘on, Qamishqo‘rg‘on, Julek, Qo‘shqo‘rg‘on kabi qal’alar – harbiy istehkomlar qurdirdi. Bu qal’alarning mavjudligi Turkiston mustaqilligini saqlashda, savdo-karvon yo‘llarini qo‘riqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Umarxon davrida masjid va madrasalar qurish keng yo‘lga qo‘yildi. U 1816–1818 yillarda Qo‘qonda Jome’ masjidi va madrasasining qurilishida tashabbuskor bo‘ldi. Shu tufayli ulamolar unga “jannatmakon” laqabini beradilar. Umarxon “o‘z nomida tanga zarb qilish va nomi juma namozida xutbaga qo‘shib o‘qitilish huquqiga erishdi. Buxoro amirligida bo‘lgani kabi ma’muriy boshqaruv joriy etildi va ko‘p o‘tmay Qo‘qon xonligi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi”[15].

Qo‘qon xonlari, jumladan, Umarxon ham o‘z kelib chiqishini Bobur shaxsi orqali Amir Temurga olib borib bog‘lashadi. Bu xususda so‘z ketganda “Oltin beshik” afsonasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Mirza Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” asarida bu “voqea”ga katta o‘rin berilgan. Unda yozilishicha, Qo‘qon xonligi tarixining ibtidosi shu “voqea” bilan boshlanadi”[16]. Is’hoqxon Ibratning mashhur “Farg‘ona tarixi”[17] va Mulla Olim Mahdum Hojining “Tarixi Turkiston”[18] asarlarida ham bu haqdagi muxtasar ma’lumot mavjud.

“Oltin beshik” afsonasiga ko‘ra, “Mirzo Bobur o‘z yurtini tashlab, Kobul va Hindistonga ketayotganida, yo‘lda bir o‘g‘il farzand ko‘radi.

[14] Ибрат. Фарғона тарихи. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 290.
[15] Ўзбекистон халқлари тарихи. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 68.
[16] Мирза Олим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995. – Б. 11–15.
[17] Ибрат. Фарғона тарихи. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 285–286.
[18] Мулла Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Қарши: Насаф, 1992. – Б. 7–9.

Har xil andishalar bilan chaqaloqni bir oltin beshikka solib, bir beshada qoldirib ketadi. Tangri irodasi va taqdir taqozosi bilan u go‘dak ulg‘ayib, uning avlodlari keyinchalik Qo‘qon xonlari sulolasiga asos soladilar. Biroq shuni qayd qilish lozimki, “Boburnoma”da bu haqda hech nima yozilmagan”[19].

Fazliy Umarxonning hayoti, faoliyati, harbiy yurishlari, shoh, shoir va inson sifatida fazilatlari haqida hikoya qiluvchi “Umarnoma” dostonini yaratgan. Lekin o‘z amriga ko‘ra yaratilgan bu asar shohga ma’qul kelmaydi va Mushrifdan ba’zi isloh va o‘zgartirishlar bilan uni nasrga ko‘chirishini so‘raydi. Tarixchi Sh.Vohidov buning sababini unda aynan “Oltin beshik” qissasining yo‘qligi bilan izohlaydi[20]. Olimlar mazkur qissaning yuzaga kelishini Qo‘qon xonlarining o‘z hokimiyati legitimizatsiyasi yaratish yo‘lidagi harakat sifatida baholaydilar.

Umarxon o‘z faoliyati davomida har doim ham adolat bilan ish ko‘rdi, jabr-zulmga yo‘l qo‘ymadi deb bo‘lmaydi. Chunonchi, O‘ratepani qamal qilgan Umarxon shahar ahlining qarshiligini sindirish, ularning tinkasini quritish uchun yetilgan hosilga o‘t qo‘yishni buyurgan. Bu voqealarning bevosita guvohi va ishtirokchisi bo‘lgan “Tarixi muhojiron” asarining muallifi bo‘lgan shoira Dilshodi Barno: “Xalq orasida shahar qamal bo‘ldi, degan mavhum xabarlar, amir askarlarining talon-toroji, qishloqlar, xususan, shahar atrofidagi imoratlar, ko‘priklarning yondirilib yuborilishi, daraxtlarning yonib ketishi xalqqa vahima va qo‘rqinch solmoqda edi...”[21] , – deb yozadi. Lekin Dilshodi Barno ijodida Amir Umarxon shaxsiga ikki xil munosabatni ko‘ramiz: u Umarxonni hukmdor sifatida tanqid qilsa-da, shoir sifatida unga yuqori baho beradi. Chunonchi, “Tarixi muhojiron” asarida O‘ratepa istilosi voqealarini bayon etar ekan: “Farg‘ona amiri Umarxon o‘zi olim va katta shoir bo‘la turib, bu mazlum shaharning birorta olim va shoiriga rahm qilmadi” [22], – deb yozadi.

Amiriy boshchiligidagi Qo‘qon adabiy muhitining taraqqiy etishida uning umr yo‘ldoshi, zabardast lirik shoira Mohlar oyim Nodiraning (1792-1842) ham xizmatlari beqiyos bo‘lgan. Aynan Nodira turmush

[19] Матғозиев А. Шоҳид нигоҳида бўлган воқеалар (Сўзбоши) // Мирзаолим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва тарих ул-хавоқин. – Б. 4.
[20] Воҳидов Ш. Қўқон тарихчилари Фазлий ва Мушриф. – Т., 1996. – Б. 10–11.
[21] Дилшод. Анбар Отин. “Ўзбек шоиралари баёзи” туркуми. – Т.: Фан, 1994. – Б. 76.
[22] Ўша жойда.

o‘rtog‘ining vafotidan keyin ham o‘g‘li Muhammadalixon bilan birgalikda Qo‘qon xonligidagi adabiy-ijodiy jarayonning faol tarzda davom ettirilishida jonbozlik ko‘rsatdi.

Amiriy asos solgan adabiy maktabning an’ana va tamoyillari ba’zan mavjud tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy voqelik ta’sirida muayyan o‘zgarishlarga uchraganiga qaramay qariyb ikki asr XX birinchi choragiga qadar yashab keldi. Umuman olganda, Qo‘qon adabiy muhitiga xos adabiyot tarixini uch bosqichga ajratish mumkin:

1. Amiriy va Qo‘qon xonligi davri (1810-1822 yillar va XIX asrning 3-choragi)
2. Chor Rusiyasi istilosi davri (XIX asrning oxirgi choragi va XX asr boshlari)
3. Sho‘rolar davri (1917 yildan XX asrning ikkinchi choragicha)

1. Amiriy va Qo‘qon xonligi davri (1810-1822 yillar). Bu davrda o‘zi ham iste’dodli lirik shoir bo‘lgan Amir Umarxon moddiy va ma’naviy rahnamoligida yuzga yaqin shoiru fozillarning ijodiy uyushuvi yuzaga kelib, zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida “Qo‘qon adabiy muhiti” nomini olgan adabiy maktabga asos solindi. Aynan Amiriy davri Qo‘qon adabiy muhitining ilk va avj taraqqiyot bosqichi sifatida tarixda qoldi. Vadud Mahmud Amiriy davri adabiyotini chig‘atoy adabiyotining ikkinchi oltin asri deb baholagan bo‘lsa, Fitrat “Umarxon zamonida adabiyot yangidan bosh ko‘tardi” deydi. [23]

Bu davrdagi ijod ahli orasida Fazliy, Ado, G‘oziy, Hoziq, Mushrif, Fayziy, Akmal, Maxmur, Gulxaniy, Oshiq, Vazir, Nola, Ma’yus, Mujrim, Ramziy, Afsus, Miriy, Nodir-Uzlat, Ravnaq, Hotif, Xijlat, Xon, Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno kabi o‘zbek va tojik tillarida qalam tebratgan iste’dodli so‘z ustalari bor edi. Devon adabiyoti, tarixnavislik, tazkirachilik ushbu bosqichning asosiy yo‘nalishlari sifatida taraqqiy etdi. Fazliyning “Majmuai shoiron” tazkira-antologiyasining she’riy usulda yaratgani o‘zbek adabiyoti uchun yangi tajriba edi. Sharq mumtoz lirikasi an’analaridan bo‘lgan tatabbu’, tavr, taxmis, mushoira kabilardan yuksak darajada istifoda etilib, bu hol adabiy muhitda sog‘lom ijodiy musobaqa ruhini shakllantirdi. G‘azal, muxammas, qasida, masnaviy kabilar yetakchi lirik janrlar sifatida keng iste’molda bo‘ldi. Doston janri namunalari bo‘lgan Nodirning yetti qismdan iborat “Haft gulshan” asari, Hoziqning “Yusuf va Zulayho”

[23] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд .Тошкент: “Маънавият”, 2000, 59-бет.

***

Kel, dahrni imtihon etib ket,
Sayri chamani jahon etib ket.

Bedardlarning jafolaridin
Faryod chekib, fig‘on etib ket.

Dunyo chamanini bulbulisen,
Gul shohida oshyon etib ket.

Ey ashk, ko‘zimni maktabidin,
Hayrat sabaqin ravon etib ket.

Olam chamaniki bevafodur,
Bir oh bila xazon etib ket.

Ushshoq maqomi bo‘stondur.
Azmi rahi bo‘ston etib ket.

Maqsad na edi jahona kelding?
Kayfiyatini bayon etib ket.

Fosh etma ulusqa ishq sirrin,
Ko‘ngulda ani nihon etib ket.

Kel, ishq yo‘lida ko‘zlaringni,
Ey Komila, durfishon etib ket.

G‘AZALLAR

Qoshingg‘a teguzmag‘il qalamni,
Bu xat bila buzmag‘il raqamni.

Butxonalar ichra hech tarso,
Bir ko‘rmadi sen kabi sanamni.

Oshiqlaringga tarahhum etgil,
Ko‘p aylama javr ila sitamni.

Naqshi qadaming muyassar o‘lsa,
Naylay bu jahonda jomi Jamni.

Ko‘nglum qushi toyiri hariming,
Sayd etma kabutari haramni.

To bevatan o‘lmasun ko‘ngullar,
Zulfungdin ayurma pech-u xamni.

La’ling g‘amidin ko‘zum to‘kar qon,
Behuda kechurmagil bu damni.

Yo‘lungda g‘ubori roh bo‘ldum,
Boshimg‘a yeturmading qadamni.

Sen yordin o‘zga kimga dermen,
Ko‘nglumdagi dard ila alamni.

Bir kosa sharobi arg‘uvonim,
Pomol qilur hujumi g‘amni.

Iqlimi vafo Amiridursen,
Ey shah, bu gadog‘a qil karamni.

***

Dedi Yusuf ko‘rub yorimni: “Jononingg‘a sallamno!
Aning ishqig‘a toqat aylag‘an joningg‘a sallamno!”

Qoshing yoyi uza chin ko‘rdi-yu, jon bo‘ldi qurboni,
Yangi oyingg‘a yuz taslimu qurboningg‘a sallamno!

Labingdin va’da qilding bo‘sae, o‘ldum xumoringda,
Agar chin deganing bu ersa, yalg‘oningg‘a sallamno!

Jinon bog‘ig‘a kirsang, hur ila g‘ilmon ko‘rub aytur:
“Iki noring bila sebi zanaxdoningg‘a sallamno!”

Bilolmam, gul yuza shabnamdurur yo iqdi Parvinmu
Banogo‘shingdag‘i la’li duraxshoningg‘a sallamno!

Jafolar dilrabolardin ko‘rub, tark etmading, ey jon,
Vafosizlarg‘a qilg‘on ahdu paymoningg‘a sallamno!

Gulistoni nazokatsan bahori husnida go‘yo,
Jahon o‘ldi muattar – xatti rayhoningg‘a sallamno!

Xirom etgach, labingning g‘unchasi yuz noz ila keldi,
Qading naxli bila gulbargi xandoningg‘a sallamno!

“Bulutdurmu quyosh o‘trusida?” – ko‘rgon zamon aydim,
Banogo‘shingda zulfi anbarafshoningg‘a salamno!

Seni ko‘rgon mahalda ketti hushim, qolmadi sabrim,
Budur gar subhi vasling, shomi hijroningg‘a sallamno!

Qoshing birla yuzung ko‘rg‘och, Amir insof ila aydi:
“Yangi oying bila xurshidi toboningg‘a sallamno!”

***

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shahu, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

Maddi ohim shu’lasi husnung dabiristonida
Misrai barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit.

Sarvi nozim, sendin ayru naxli ohim o‘ldi xam,
Qomating hajrida sindi shohi shamshodim, eshit.

Har nechakim sabr tamirini bunyod ayladim,
Ashk selobida vayron o‘ldi obodim, eshit.

Barcha yor-u oshnodin aylading begonalig‘,
Necha kunlar bo‘ldi, hargiz qilmading yodim, eshit.

Kelki, bir soat seni ko‘rmak uchun mushtoqmen,
Telba bo‘ldim sendin ayru, ey parizodim, eshit.

Komila bodi sabodin senga irsol etgoni
Qildi insho bu g‘azalni, tab’i noshodim, eshit.

***

Na gul sayr ayla, na fikri bahor et,
Jahondin kech, xayoli vasli yor et.

Muhabbatsiz kishi odam emastur,
Gar odamsen muhabbat ixtiyor et.

Uzoru qaddu raftoringni ko‘rsat,
Chaman sarvu gulini sharmisor et.

Labi maxmuridurmen jomi may tut,
Karam qil, soqiyo, daf’i humor et.

“Anal-Haq” mojarosin aylading fosh,
Kel, ey Mansur, istiqboli dor et.

Durri ashku aqiqi xuni dilni
Kelur yoring ayog‘iga nisor et.

Kuyib, ey Komila, olam eliga
Muhabbat shevasini oshkor et!

***

Lab uyur takallumg‘a, zulfni parishon qil!
Qand qiymatin sindur, narxi anbar arzon qil!

Husn shohisan, jono, bu hazin gadolarg‘a
Ko‘z uchi bila boqib, xayr ila ehson qil!

Ishq dinig‘a munkir bo‘lsa zohidi xudbin,
Ey sanam, liqo ko‘rsat, gabrni musulmon qil!

Ehtisob uchun zohid kirsa dayr aro, soqiy,
Bir qadah bila aning zuhdidin pushaymon qil!

Istasang ko‘ngullarni g‘amza “yoy”ig‘a qurbon,
Qoshlaring hilolini mohi iydi qurbon qil.

Sho‘xchashmu navxatsan, noz dashtida sayr et,
Gardi xoki poyingni surmayi Sulaymon qil!

Yor la’lidin harfe ayladim, Amir, insho,
Ey ko‘ngul, bu gavharni jon ichinda pinhon qil!

***

Har nechakim fathi iqlimi jahon ettim, Amir,
Andin o‘ttim, yor ko‘yida makon ettim, Amir.

Ul sanam vasli so‘rog‘idin nishon topqaymu deb,
Har taraf payki xayolingni ravon ettim, Amir.

Jon bila ko‘ngulga etkurdim visoling mujdasin,
Bu gadolarni karamdin komron ettim, Amir.

Etmadim ishqingda, jono, do‘stdin dushmanni farq,
Pand berdi do‘stlar, dushman gumon ettim, Amir.

Ma’siyat mulkin buzub, tarhi binoyi shar’ etib,
Arsai ofoqni dor ul-amon ettim, Amir.

Muddao soqiy yuzi erdi-yu, husni mug‘bacha,
Dayr arokim xizmati piri mug‘on ettim, Amir.

Har kishigakim vafo qildim, mango qildi jafo,
Olam ahlini sarosar imtihon ettim, Amir.

Lashkari nafsu havoyu hirs tug‘yon ayladi,
Jur’atim shulkim, alar birla qiron ettim, Amir.

Baski ko‘rguzdim ulusg‘a mehribonlig‘ shevasin,
Barcha olamni o‘zumg‘a mehribon ettim, Amir.

Garchi bo‘ldum zohir elni shod etarg‘a gul kabi,
Lek pinhon g‘unchadek bag‘rimni qon ettim, Amir.

Lam’ayi shamshiri himmatdur safobaxshi jahon,
Lojaram elga bu javharni ayon ettim, Amir.

G‘AZALLAR

Vasl uyin obod qildim buzdi hijron oqibat,
Seli g‘amdin bu imorat bo‘ldi vayron oqibat

Qildi choki piyrahan dog‘i dilimni oshkor,
Qolmadi ko‘nglumda zahmi ishq pinhon oqibat.

Ahd-u paymonlar qilib erdi vafo qilgum debon,
Ayladi tarki vafo ul ahdi yolg‘on oqibat.

Orzu qildim tutarman deb visoli domanin,
Pora bo‘ldi hajr ilgida giribon oqibat.

Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma’zur tut,
Yor ko‘yida na bo‘ldi shayx Sanon oqibat.

Baski qon bo‘ldi yurokim gavhari ishq o‘rniga
Qatra-qatra ko‘zlarimdin tomdi marjon oqibat.

Ohkim, bo‘ldi yana subhi nashotim shomi g‘am,
Chehra pinhon etti ul xurshidi tobon oqibat.

Garchi bor erdi musahhar devlar farmonida,
Poymoli xayli mo‘r o‘ldi Sulaymon oqibat.

Komila bulbul kabi to nola insho ayladim.
Navbahor o‘tti, xazon o‘ldi guliston oqibat.

Demak, shoira inson ma’naviy kamolotiga ilohiy barkamollik talablaridan kelib chiqib yondashadi. Bu Nodira she’rlarida o‘zbek ayolining ma’naviy qiyofasi, dinu e’tiqodi, aql-zakovati, axloq-odobi ifodalanganligidan dalolat beradi.

***

Man nadoram sabr, on nozofarin dorad chafo,
To kucho oid shavad, yo Rab, maro in mosaro.

Nargisat az noz xuni begunohon rexta,
G‘amzaat dil meraboyad az mani bedastupo.

To kucho faryodu afg‘onam ba go‘shi o‘ rasad,
O‘ sipehru man zamin, o‘ podshohu man gado.

Baski az xalqi chahon vaz’i muruvvat raftaast
Bar sari man zaxmi shamsher ast dasti oshno.

Naqshi xoki poi o‘ har cho ki psh oyad maro,
Giram az shavqu ba chashmi xesh sozam to‘tiyo.

Qomati xamgashta doram az g‘ami sarvi qadat,
Kosh in aftodaro bardorad az so on aso.

Sachdafarso meshavad bo xoki dargohat chabin,
Partavi anvori Haq dory magar, ey mahliqo.

Muddate shud, orzuyi sarvi nozat mekunam,
Yak zamone bigzar az nozu ba so‘yi mo biyo.

Kay rasad aszi niyozi mo ba bazmi nozi o‘ -
Qubbai Layli balandu dasti Majnun noraso.

Intizori makdamat az chashmu chon doram, Amir,
K-in du manzar hardu ch;oi tust, ey badrud-ducho.

MUXAMMASLAR
Navoiy g‘azaliga muxammas

Dilraboliq shevasin oromi jonlardin so‘rung,
Mehnati hijron tariqin bag‘ri qonlardin so‘rung,
Lolaruxlar vasfini rangi somonlardin so‘rung,
Ishq sirrin hajr asiri notavonlardin so‘rung,
Aysh ila ishrat tariqin komronlardin so‘rung.

Ishq bemori bo‘lub, ko‘yungda yottim sarg‘arib,
Kel bu sarvaqtimg‘a o‘lmastin burunroq, ey tabib,
Men bo‘lub mardudu yor oldida hamdamdur raqib,
Bizga juz mehr-u vafo oyini bo‘lmaydur nasib,
Bevafolig‘ rasmini nomehribonlardin so‘rung.

Dahr ayyomida bordur har kishini dilbari,
Kom olur ishrat bila dildordin bo‘lsa zari,
Nozaninlar oshiqi muflisni aytur, tur nari,
Bizni davron mehnati ham ojiz etmish, ham qari,
Husn ila quvvatni ra’no navjuvonlardin so‘rung.

Bemuhabbatlar bilur osudatanlig‘ rasmini,
Tutmagan g‘urbatta bilmas bevatanlig‘ rasmini,
Bilmadi ishq ichra Xusrav Ko‘hkanlig‘ rasmini,
Bedil el diljo‘yluq yo dilshikanlik rasmini
Fahm qilmaslar, bu ishni dilsitonlardin so‘rung.

Men bilurman ishq aro nokomlig‘lar shevasin,
Rindu rasvoliqda xunoshomlig‘lar shevasin,
O‘rtagay Majnung‘a beoromlig‘lar shevasin,
Neknom el ishq aro badnomlig‘lar shevasin
Yaxshi bilmaslar, ani bizdek yomonlardin so‘rung.

Bo‘lg‘asiz to faqr atvorida ogoh ahlidin,
Dardi dil kasb aylangizlar nolavu oh ahlidin,
Istaganlar ishq zavqini bu dargoh ahlidin,
Fardliq zavqini so‘rmang shavkatu joh ahlidin,
Ul suhbat lazzatin bexonumonlardin so‘rung.

NODIRA

O‘zbek adabiyotida shoiralar silsilasining sardori shubhasiz, Nodirabegimdir. Asl ismi Mohlaroyim bo‘lgan shoira Nodira 1792-yilda Andijonda shahar hokimi Rahmonqulibiy oilasida tug‘ilgan. Otasi o‘zbeklarning ming urug‘iga mansub bo‘lib, Farg‘ona hukmdori Olimxonning tog‘asi edi. Onasi Oyshabegim ham savodxon, o‘qimishli ayol bo‘lgan. 1807-yilda Nodira Qo‘qon xoni Olimxonning ukasi Amir Umarxonga turmushga chiqadi. Ularning Muhammad Alixon va Sulton Mahmudxon ismli farzandlari bo‘lgan. 1810-yilda Olimxon o‘limidan keyin Amir Umarxon Qo‘qon taxtini egallaydi va oilasi bilan Qo‘qonga keladi. 1822-yili Nodiraning turmush o‘rtog‘i Umarxon vafot etadi. Nodira mamlakatdorlik ishlari bilan shug‘ullana boshlaydi. U yigirma yillar davomida mamlakatda yuz berib turgan siyosiy-ijtimoiy voqealarni ziyraklik bilan kuzatib, davlat ahamiyati va xalq manfaatlariga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etdi. Bu yillarda Qo‘qon xonligi hududlarida yangi obod shahar va qishloqlar, masjidu madrasalar, kutubxonalar, bozor va karvonsaroylar ko‘paydi. Shuning uchun uni zamon ahli “Nodirai davron” deya sharafladi.

Nodiradan bizgacha boy adabiy meros qolgan. Nodira zabardast zullisonayn shoira bo‘lib, o‘zbek tilida Nodira va Komila, fors-tojikchada Maknuna taxallusi bilan samarali ijod qilgan. Uning har ikki tildagi she’rlari 10000 ming misra atrofida. Jumladan, forsiy merosi 333 ta she’rni o‘z ichiga olib, 5 ming misradan ko‘proq.

Nodiraning “Kel, dahrni imtihon etib ket” misrasi bilan boshlanadigan g‘azali juda mashhur bo‘lib, unga Zaliliy, Xodimiy, Nodim, Roje’ kabi ko‘plab shoirlar taxmis bog‘laganlar. Umuman, Dilshodi Barno, Rojiy Xo‘qandiy, Homidiy, Nodim, Furqat, Anbar otin kabi shoirlarga Nodiraning ta’siri kuchli.

Nodiraning adabiy merosi o‘zbek she’riyatining go‘zal sahifalarini tashkil etadi. Uning o‘zbek va fors tillarida bitilgan devonlari, shoira she’rlari kiritilgan bayozlar bizgacha yetib kelganki, shoira mumtoz adabiyotimizning asosan g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, tarji’band, tarkibband, firoqnoma kabi janrlarida qalam tebratdi.

Nodira muhabbat tasvirining haqiqiy ustasidir. Uningcha, odam muhabbat ixtiyor etganidagina chinakam komil inson bo‘la oladi. Nodirada insonning insonga bo‘lgan muhabbati, ya’ni ishqi majoz ramziy ma’noga ega. U – ishqi ilohiyning ramzi. Chunki insoniy ishqni kuylashdan maqsad ilohiy ishqni ulug‘lashdir.

Firoqing o‘rtadi, ey dilbari nomehribonim, kel,
Bo‘lub oromi jonu rohati ruhi ravonim, kel,
Nisori xoki poying javhari jonu jahonim, kel,
Nigorim, nozaninim, marhami dog‘i nihonim, kel,
Azizim, qiblagohim, xo‘blig‘ Misrida sultonim,
Dil-u jonim sanga qurbon-u, qurboning dil-u jonim.

Na xushtur vasl aro kom istasam shirin dudog‘ingdin,
Labingdin la’l qiymat topti-yu, gavhar qulog‘ingdin,
Niyozu noz aro farq o‘lmadi boshim ayog‘ingdin,
Visolingni tilab ovoralar bo‘ldim so‘rog‘ingdin,
Azizim, qiblagohim, xo‘blig‘ Misrida sultonim,
Dil-u jonim sanga qurbon-u, qurboning dil-u jonim.

Jafo rasmini bunyod aylagan berahm yorimsen,
Sitamparvar, jafojo‘, sangdil, zebo nigorimsen,
Latofat gulshanidan sarvqomat gul’uzorimsen,
Shahidi ishq bo‘ldum, qotili chobuksuvorimsen,
Azizim, qiblagohim, xo‘blig‘ Misrida sultonim,
Dil-u jonim sanga qurbon-u, qurboning dil-u jonim.

Muhabbat xaylining Kayxusravi sohibsaririman,
Junun ahlini shohi, ishq xaylini Amiriman –
Ki, dashtu tog‘ aro Farhodu Majnun dastgiriman,
Kamanding mubtalosi, domi ishqingni asiriman,
Azizim, qiblagohim, xo‘blig‘ Misrida sultonim,
Dil-u jonim sanga qurbon-u, qurboning dil-u jonim.

Ey jafojo‘ dilrabolar, sizga yuz jondur nisor,
G‘amza birla to‘kmang oshiqlarni qonin zinhor,
Notavonlarni g‘azab tig‘i bila qilmang figor,
Ajz tufrog‘ida ishq ahlig‘a o‘lgan hukmi bor,
Qatl hukmi aylamakni qahramonlardin so‘rung.

Anglamas ishqu muhabbat dostonin ahli rasm,
Tonimas mehr ahlining yaxshi-yomonin ahli rasm,
Fahm aylarmu vafo sudu ziyoning ahli rasm,
Bilmadi maqsud ganjining nishonin ahli rasm,
Gar so‘rarsiz oni – benom-u nishonlardin so‘rung.

Telbarab ko‘nglum adam shahrig‘a ketti, do‘stlar,
Bilmadim, ul notavon ne erga etti, do‘stlar,
Ohu afg‘oni Amiri ishq eshitti, do‘stlar,
Chun Navoiy ishq sahrosida itti, do‘stlar,
Oni ul yondin etishgan korvonlardin so‘rung.

TUYUQLAR

Ey ko‘ngul bu kecha sen ul sori bor,
Oh o‘tin yorutmakim, ag‘yori bor,
Tuxmi mehr ektim muhabbat bog‘ida,
Dard barg ochti-yu, g‘am ketori bor.

***

Hamnishin ag‘yor to ul yoradur,
Ko‘kragim hasrat o‘qidin yoradur,
May bila, soqiy, himoyat bo‘lmasa,
Shahnai hijron yurakni yoradur.

***

Ulki sham’i orazini nori bor,
Husn gulzorida yoki nori bor.
Xalq aro oshiqlig‘idin or etib,
Yonida o‘ltursam, aytur: – Nori bor!

***

Ne uchun dog‘ etti zohir lolazor,
Gul yuzungga gar emastur lola zor.
Gul eshitmas nola, savsan so‘zlamas,
Bulbuli bechora gungu lola zor.

MUSADDAS-TARJE’BAND

Nadur holim so‘rarg‘a kelsang, ey sarvi xiromonim,
Gulandomim, malohatlik, pariruxsor jononim,
Demassen bir yo‘li holing nadur, besabru somonim,
Tarahhum chog‘idur, ey nuri didam, jism aro jonim,
Azizim, qiblagohim, xo‘blig‘ Misrida sultonim,
Dil-u jonim sanga qurbon-u, qurboning dil-u jonim.

Yuzung ko‘rmakka mushtoq ko‘z-u, hojatmand erur ko‘nglum,
Jamoling orzusi birla bas xursand erur ko‘nglum,
Kamandi turrai mushkinga o‘yla band erur ko‘nglum,
Musalsal sunbulingni torig‘a payvand erur ko‘nglum,
Azizim, qiblagohim, xo‘blig‘ Misrida sultonim,
Dil-u jonim sanga qurbon-u, qurboning dil-u jonim.

Ko‘zung bemorig‘a noz etma – bemoringni o‘lturma,
Giriftoring erurman – o‘z giriftoringni o‘lturma,
Chekib tig‘i siyosat, oshiqi zoringni o‘lturma,
Vafolig‘ yorsen, bedod ila yoringni o‘lturma,
Azizim, qiblagohim, xo‘blig‘ Misrida sultonim,
Dil-u jonim sanga qurbon-u, qurboning dil-u jonim.

Bugun kulbam sari, ey sarvi gulruxsor, xush kelding,
Ko‘zum oyinasig‘a ko‘rsatib diydor, xush kelding,
Masihi ruhafzoyi dili bemor, xush kelding,
Vafodin zohir aylab yorlig‘, ey yor, xush kelding,
Azizim, qiblagohim, xo‘blig‘ Misrida sultonim,
Dil-u jonim sanga qurbon-u, qurboning dil-u jonim.

O‘sondim, ey ko‘ngul, faryodu ohi dilxaroshingdin,
Ushoq yoshlarg‘a rasvo bo‘lmisham, ey dida, yoshingdin,
Agar bo‘lsa ishorat qatlima, ey yor, qoshingdin,
Muanbar sunbulingdek charx uray yuz qatla boshingdin,
Azizim, qiblagohim, xo‘blig‘ Misrida sultonim,
Dil-u jonim sanga qurbon-u, qurboning dil-u jonim.

Muqayyad o‘ldig‘im gar istamaz sarvi dilozori,
Xam ochdiqcha nadin mashshota zulfin tobdor etmish.

Edardim zabti ashki ko‘yida o‘lsaydi maqduram,
Ki chashmimdan damodam oxdug‘i man’i g‘ubor etmish.

Biyobonda do‘lub qondin o‘yunmaz lolalar chashmi,
Magar zavqi jamoling oni dog‘i intizor etmish.

Damodam sham’tak Xon shu’layi ruxsori hajrindin,
Yoxub o‘dlara jismin, sochin ashkini sharor etmish.

***

Bag‘riming qon o‘ldug‘in gulgun qabolardan so‘rung,
Ashkimi xunobasin ilki xinolardan so‘rung.

Nekhati anbar shamimi zulfi mushkafshonini,
Lahza-lahza kelturan bodi sabolardan so‘rung.

Lola yanglig‘ bag‘rima har sori qo‘ymush dog‘lar,
Dog‘i oni loladek bag‘ri qarolardan so‘rung.

Ochilan gullar tamoshosina kirgaj goh-goh,
Sayri gulzor elini ul dilrabolardan so‘rung.

Dabbadam qonin do‘kub har lahza qurbon aylamak,
Tiyg‘i mujgonin chekarni qoshi yolardan so‘rung.

Charxa chekmakdur fig‘on-u oh oshiq shevasi,
Nozi istig‘no tariqin mahliqolardan so‘rung.

Zori ko‘nglum turrai totorig‘a band o‘ldug‘im,
Husni mulkin tojin olg‘on podsholardan so‘rung.

Dedim: Ishqing oshkora etma har begonaga,
Ishqi atvorini Xondek oshnolardan so‘rung.

MUXAMMASLAR
Navoiy g‘azaliga muxammas

So‘rog‘ingda biyobonlar kezib be po-u sar yurdum,
Kuyundek charx urub jismim g‘uborin ko‘kka sovurdum.
Sen azm aylab ketarg‘a, men bo‘lub bemor, qaygurdum,
Ko‘ngul jon birla bo‘ldi xamrahing, men dard ila turdum,
Senga jon birla ko‘nglumni, seni tengriga topshurdum.

Vidoingni qilurda kuydi jonim xayrbodidin,
Falak sakfi korardi dudi ohimni midodidin,
Jahon zulmat saroyi dudi ohim imtidodidin,
Nishondur tiyra bo‘lg‘on axtari baxtim savodidin,
Tuganlarkim firoqing o‘tidin g‘am shomi kuydurdum.

Qoshing yosi tamannosidadur payvasta kaddim xam,
YUrak zahmig‘a marxam istab etmasman taraddud ham,
Ko‘ngul novaklaringni zaxmidin rohat topar har dam,
YOg‘och birla boshok kim tanda qoldi ul erur marham,
Junundin kim firoqing o‘klarin jismimda sindurdum.

Giribon chok erurman subhi vasling intizoridin,
Qarong‘u bo‘ldi shomim dudi ohimni g‘uboridin,
SHararlig‘ shu’lalar bosh chekti ko‘ksum xor-xoridin,
Tutashti sham’dek har barmog‘im hijron sharoridin,
Ilik marham kuyay deb chun bagir chokiga yetkurdum.

Ko‘rub ul butni zunnor olmagaysiz, ey musulmonlar,
Meningdek yuz baloga qolmagaysiz, ey musulmonlar,
Salomat kunjidin kuzgolmagaysiz, ey musulmonlar,
Chu ul kofir chiqar ko‘z solmagaysiz, ey musulmonlar.
Ki men bechora ko‘nglumni boqib o‘tkuncha oldurdum.

Meni lol etti guftori labi xomushi go‘yosi,
Ushatti kandu shakkar kimmatin la’li shakarxosi,
Na dilkash husn erur ko‘rgan sari ortar tamannosi,
YUzing ko‘rgach boshimga tushti mushkin zulf savdosi,
Figonkim bir boqishda yuz bal boshimga kelturdum.

Seni topmoq base mushqil ko‘rundi justiju birla,
Firoqing dardiga taskin tilarmen guftigu birla,
Gahi paymona birla shugl etib, goxi sabu birla,
Ko‘ngul tinmasqa qolmish erdi har nav orzu birla,
Rizo ko‘yig‘a to kuydum qadam ko‘nglumni tindurdum.

Zarar qilmas muhabbat ahliga ag‘yor ni ta’ni,
Erur badxoxlarning guftiguyi barcha bema’ni
Bu kun, ey Komila, boshdin kuyub toji murassa’ni,
Makon gulxan kulin qildi Navoiy telbadek ya’ni,
Junun torojidin oxir qaro tufroqqa o‘lturdum.

Shom chekmish pardaya xurshidi tobon bir tuni,
Xondakim subhi banogo‘shina solmish soya soch.

To sirishking obi hayvon o‘la, ey ko‘z mardumi,
Ashkingi gavharlarin ul la’li ruhafzoya soch.

Xon boshimda mo‘yi jo‘lidam erur asbobi joh,
Chatri shohitak o‘la Majnuni beparvoya soch.

***

Mus’hafi ruxsori yoqut [ul] labingni yozalar,
Dambadam jon rishtasini bir oni sherozalar.

Oy-u kun ermas falakda orazing timsolidur,
Charx naqqoshi jononingda olur andozalar.

Qo‘rqaramkim, yonmasun o‘dlara barqi ohdin,
Ishqi sahrosi guzargohida qurdum gozalar.

Ey bahori, nozi aksi orazingdurkim mudom,
Suv olib gulzor aro gullar jamolin tozalar.

Xoni yoring dog‘i savdosidadur xoligakim,
Soldi Majnundek balo vodiysida ovozalar.

***

Dili purxunam anjaq orzuyi la’li yor etmish,
To‘la qonlu sirishkim la’lini bee’tibor etmish.

Soqinmazban balo novaklarin yog‘dursa afloking,
Banim davrimdakim sangi malomatdin hisor etmish.

Tani purzahmi qona do‘lmish ochilan [chaman]gullar,
Magar tiyg‘in chekib gulshanda ul qotil guzor etmish.

Etti, ne tongki, xayoli ko‘z yoshim Jayhun kabi,
Mavji tiyg‘ing qildi g‘am selobig‘a boshim hubob.

G‘olibo, vasling tamannosindadur dun-kun kezar,
Charxi sargardon o‘lub Xoning kabi aylar shitob.

***

Sabo, bir lutf go‘star dardimi dildora izhor et,
Yetur arzimi ul jonona, holimdin xabardor et.

Shabi hijrona yo‘x bir hamdamim vul ko‘ya ar dushsam,
Firoqim shiddatin so‘zla, ayo dil, nolau zor et.

Giriftori g‘ami savdoyam, ozodam taalluqdin,
Kamandi zulfig‘a mundan batar, yo Rab, giriftor et.

San, ey dil, ishqi sirrin asrayub eldin nihon dutding,
Muhabbat elina zohir qilib bu so‘zni takror et.

Necha guftora galmaz durji la’ling, ey pari paykar,
Rumuzi ishqidin so‘zla banga har lahza guftor et.

Chu ul mushkin Salosil mehridin kesmaz jafo birla,
Anga, ey ishq, Majnun ko‘nglumi anjaq giriftor et.

***

To tushubdur qarshu ul ruxsori behamtoya soch,
Solajakdur qaydidan xurshidi uzra soya soch.

Gulda sunbul deymu yo xurshidi uzra dudi oh,
Buncha ham zebo dusharmu orazi ra’noya soch.

To sabo gazdurmasin har yon sirishkim durlarin,
Qatra-qatra xoki poyi ul malak siymoya soch.

Rashkidin solg‘il chaman sunbullarina toblar,
Bog‘a kirdukcha birohib orazi zeboya soch.

***

Muhabbat kunlari mohruyi duraxshonimni sog‘indim,
Musibat tunlari sham’i shabistonimni sog‘indim,
Karodur ro‘zgorim mehri tobonimni sog‘indim,
Sitamlar jona etti baski jononimni sog‘indim,
Amiri kajkulah jamshidi davronimni sog‘indim,
Zarofat bobida noyob sultonimni sog‘indim.

Olurdim komi ishrat maxfili shirin mazokidin,
Qilurdim sayri jamiyat baxori ittifokidin,
Na xasratlarkim ko‘rdum aning anduxi firoqidin,
Na kulfatlarki o‘tti lahza-lahza ishtiyoqidin,
Amiri kajkulax jamshidi davronimni sog‘indim,
Zarofat bobida noyob sultonimni sog‘indim.

Chaman rangini ko‘rsam, yod etarman gul’uzorimni,
Biyobon sayrida yod aylaram gardunshikorimni,
Suvora bo‘lgoch aylarman xayol ul shaxsuvorimni,
Olurda jon istarman amiri g‘amgusorimni,
Amiri kajkulax jamshidi davronimni sog‘indim,
Zarofat bobida noyob sultonimni sog‘indim.

Chamanlar xurramu yo‘qtur mening sarvi xiromonim,
Sariri saltanat paydou yo‘qtur shohi Turonim,
Xaloyiq sarxushu paydo emas ul bazmi shohonim,
Jahon xandonu girendur menga bu chashmi xunborim,
Amiri kajkulax jamshidi davronimii sog‘indim,
Zarofat bobida noyob sultonimni sog‘indim.

FIROQNOMA

Ohkim behad menga javr-u jafo aylar falak,
Furqat ichra kismatim dardu balo aylar falak,
Yordin ayru menga ko‘p mojaro aylar falak,
Fam bila guldek yuzumni kaxrabo aylar falak,
Bevafodur oqibat kimga vafo aylar falak,
Xasratu dardu alamga mubtalo aylar falak,
Yorning albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni bebargu navo aylar falak,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun.

Sabr qilsam ishq dardi beqaror aylar meni,
Kasbi xush etsam junun beixtiyor aylar meni,
Dam-badam faryodim eldin sharmisor aylar meni,
Hajr dog‘i dardmandu dilfigor aylar meni.
Uylakim javri falak zor-u nizor aylar meni,
Yorsiz hijron balosiga duchor aylar meni,
Charxi dun tokay firoq ilgida zor aylar meni,
Oqibat bu dardu g‘am Majnun shior aylar meni,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Yoridin ayru ko‘nguldur tiyra-u oshufta hol,
Oftobim necha kun bo‘ldiki ko‘rguzmas jamol,
Furqat ichra badri tobon zafidin bo‘ldi hilol,
G‘am yuki oxir alifdek qomatimni qildi dol,
Ey xush ul soatki erdim mahrami bazmi visol,
Dardi hijron ibtidosin aylamas erdim xayol.
Ul zamon erdi bu nuqsonlar menga ayni kamol.
Bordi ul sarvi ravon, men qolmisham bexush-u lol,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Qaydasen yorim, so‘rog‘ingda ko‘ngul ovoradur,
Kechalar to subh ashkim kavkabi sayyoradur,
Sarvi qaddinga ko‘zum mushtoqi bir nazzoradur,
Pirazoli charx kim oshiqqush-u makkoradur,

G‘AZALLAR

Istadim ul mohi arzi hol edam hayrat banga,
Vul demakdin qoldi, yuzlandi ajab holat banga.

Har dam ochmish ko‘nglumi zavqi visoling mujdasi,
Shukrilillah, baxti yovar o‘lmish yetib davlat banga.

Mo‘yi jo‘lidam-la masrur o‘ldig‘im ayb aylamang,
O‘tdi Majnun, qoldi andin shimdi bu nisbat banga.

Ishqidin bir dam tani zorimni pinhon istamas,
Ban na qildimkim, nasib etmish falak zahmat banga.

Siymbarlardin galan doshlari chekmish davrim,
Ishqi ma’mur eda qasri ravzayi jannat banga.

Ey musavvir, gal qotimdo chek nigorim suvrati,
Vermadi taskin falak lavhindagi suvrat banga.

To hubobi ashkiki ko‘nglumda pinhondir tanim,
Yetdi Xoni ishqidin bu lolagun xil’at banga.

***

Charx ochqach orazingdin tun savoditek niqob,
Tiyg‘ini har subhidam qatlimg‘a chekmish oftob.

Pechtobi zulfi mushkiningdadur miskin ko‘ngul,
Ey muanbar, sunbuling har torida bing pechtob.

Orazing mehri latofat matla’in debochasi,
Qomating sarvi nazokat misraindin intihob.

Sunbuli bo‘zdur guli serob yo jon rishtasi,
Tori zulfingdurmu ruxsoringda yokim mushkinob.

Rangi zardim ishqi vodiysig‘a yetgon za’faron,
Ashki chashmimdur junun sahrosida bo‘lmish sarob.

XON

Muhammad Alixon ibn Amir Umarxon XIX asrning birinchi yarmida Xon taxallusi bilan go‘zal she’rlar yozgan iste’dodli shoirdir. Muhammad Alixon Amir Umarxon va Nodirabegimlarning farzandi bo‘lib, 1808 yilda dunyoga kelgan. 1822-1841-yillarda Qo‘qon xoni sifatida mamlakatni boshqargan. Fuzuliyga ergashib, o‘g‘uz lahjasida, “Layli va Majnun” dostonini yozgani ham aytiladi. O‘z davrida u haqida shoira Uvaysiy “Voqeoti Muhammadalixon” dostonini yozgan.

Hozirgi kunga qadar aniqlangan Xon ijodiy merosi 100 dan ortiq she’r va bir necha maktubdan iborat. G‘azal, muxammas, musaddas, ruboiy va fard janridagi bu she’rlar Xonning she’riy iqtidoridan darak berib, o‘ziga xos salohiyatli shoir ekanligini ko‘rsatadi. Ruboiy va fardlari forscha bo‘lib, qolganlari o‘zbekcha.

U ko‘p she’rlarida Fuzuliy an’analarini davom ettirgan bo‘lsa-da, Alisher Navoiy ijodini qadrlagani ham ma’lum. “Navodiru-n-nihoya”dagi mashhur 93-g‘azal: “Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt…” misrasini tazmin sifatida o‘z she’rida keltiradi. Muhammad Alixon 1838-yilda maxsus farmon bilan Navoiyning mashhur “Xazoyinu-l-maoniy” kulliyotini 300 nusxada ko‘chirtirib, xonlikning turli hududlariga yuborgan.

Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asariga ko‘ra, xalq Muhammad Alixonga ya’ni “Manbai adl-u adolat” unvonini bergan.

Javri zulmidin yurakda benihoyat yoradur,
Emdikim sabr aylamakdin jaybi tokat poradur,
Yig‘lamay naylayki g‘am jonimni o‘rtab boradur.
Chora topmay dardiga bu notavon bechoradur
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Bir kelib holimni sultonim tamosho qilmadi,
Bedavo dardimga rahm aylab, mudovo qilmadi.
Ayrilib, andin ko‘ngul tarki tamanno qilmadi.
Tosh bag‘irlik yor faryodimga parvo qilmadi,
YUsuf ishqida bu ishlarni Zulayxo qilmadi,
O‘tti Vomiq dahrdin yodini Uzro qilmadi,
Motami Farhodni Shirin taqozo qilmadi,
Layli hijronida Majnun men kabi yoqilmadi,
Hech kim, yo Rab, Jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Benavomen qandasen, ey shahriyori muhtaram,
Sharbati vaslingni topmay kon yutarman dam-badam,
Sarv yanglig‘ qomatimni bori mehnat qildi xam,
Menga sensiz dard uza dardu alam uzra alam,
Sendin ayrilgoch gizoli xush mendin qildi ram,
Dard – yor-u, g‘ussa – hamdam, g‘am farovon, aysh kam,
Bilmagan bo‘lsam visoling davlatini muqtanam,
Hajr etak ushlab, giribonimni mahkam tutti g‘am,
Hech kim, yo Rab, Jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Nola qildim yorning vasli muyassar bo‘lmadi,
Toleyim rahbarlig‘ aylab, baxt yovar bo‘lmadi,
Vasl sori davlat-u iqbol rahbar bo‘lmadi,
Ko‘zlarim mehri jamolidin munavvar bo‘lmadi,
Menga hamdam bir kun ul xurshid manzar bo‘lmadi,
Bir nafas diydoridin jon bahraparvar bo‘lmadi,
Kimdur ul kim keldi dunyoga muqaddar bo‘lmadi,
Hajr dardidin parishonxol-u abtar bo‘lmadi,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Menga ul kun kim vafog‘a ahd-u paymon ayladi,
Nushdoru labi dardimga darmon ayladi,
So‘ngra qilgon va’dalarni barcha yolg‘on ayladi,
Yo magar ul ahdu paymondin pushaymon ayladi, tom
Vasl xonidin nasibim dog‘i hijron ayladi,
Loladek bag‘rimni doni furqati kon ayladi.
Xotiri jam’imni bu xasrat parishon ayladi,
Men qolib gurbatda, shohim azmi javlon ayladi.
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun.
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Sen qilib azmi safar men dard ila mahjurman,
Yod aylab lablaring sahbosini maxmurman,
Vasling istab ofiyat sarmanzilidin durman,
El gumon aylarki bu davlat bilan masrurman,
Aylamasman saltanatni yorsiz manzurman,
Mug‘tanam bilmay visolingni agar mag‘rurman.
Emdi ko‘zgu aksidek hayratda nomaqdurman.
Qilmangiz man’i fig‘onim, yordin mahjurman,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun.
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Ey mug‘anniy nagmasoz et Komila guftoridin,
Kim kelur bo‘yi vafo ushshoq aro ash’oridin,
Rishtai jonimga payvand ayla sozing toridin,
Qilmasunmu nola, ayrildi vafolik yoridin,
Toshni suv qildi ta’siri fig‘on-u zoridin,
Nogahon bir ol agar cheksa dili afgoridin.
Charx bunyodini xokistar qilur osoridin,
Bo‘lmasun mahrum oshiq yorning diydoridin,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

* * *

Ey nazokatbaxsh husni nuridan gulzorlar,
Bog‘lamish sunbul sochining yodida zunnorlar.

Egri qo‘ygancha kulohin sahrodan o‘tdimi yo?
Majnun oshufta bo‘lib, yerga otar dastorlar.

Ey sabo, so‘yla qulog‘imga muhabbat ramzini,
Qolmadi olamda o‘zga mahrami asrorlar.

Ul quyoshdek chehrasini bir ko‘rish orzusida,
Ko‘zlarim yulduz kabi tongga qadar bedorlar.

O‘g‘rilar tutmish makon o‘ziga mehrob kunjini,
Qoshi uzra anbarin xoli emish ayyorlar.

Dil qushi forig‘ bo‘larmi noladan hech tongu shom,
Yuzlarida bo‘lsa zulfi torlaridan morlar.

Teng bo‘lolmas jonparvar qomatu rux soriga
Maknuna, ko‘rdim agarchi sarv-u gul bisyorlar.

“Forsiy Devon”dan

G‘AZALLAR

(Ergash Ochilov tarjimasi)

Dil yana azmi tavofi Ka’bai jon aylagay,
Yor yo‘liga bu tiriklik naqdin ehson aylagay.

Ko‘zlarim har lahza yig‘lab hajrida misli bulut,
To‘ldirib olamni ko‘z yoshiga to‘fon aylagay.

Jon uzolmay qiynalar qonga belangan dil qushi,
Jonidan to‘ydirguday oshiqni hijron aylagay.

Lutf etib, gohi nazar tashlay desa menga sanam,
Uyquchi baxtim uni bundan pushaymon aylagay.

G‘uncha yirtar yoqasin gohi dudog‘i shavqida,
Goh g‘amida yoqa ichra boshni pinhon aylagay.

Har nafas yoqamdadir hijron qo‘li ishqing aro,
Yoqama-yoqa ajal birlan u har on aylagay.

Qildi bu besabru toqatlik meni sendan uzoq,
Bu parishon baxtim olam ichra sarson aylagay.

Zulfining xushbo‘yidan tong yeli g‘uncha ko‘nglini
Misli oshiq ko‘nglidek choku parishon aylagay.

Haq guvoh: ko‘rgan emas hattoki Kan’on piri ham,
Hajr aro menga azob ul mohi Kan’on aylagay.

Ko‘ylagidan tong yeli keltirmasa bo‘y har kuni,
Kim bu yig‘loq ko‘zlarim dardiga darmon aylagay?

Bosh egib har lahza zoru notavon Maknunasi
Shohi davron vaslining yodini har on aylagay.

* * *

Yor yana yuzini pinhon qildi,
Hajri dardi g‘orati jon qoldi.

Ketdi-yu oromi jon, ishq ahlini
Mubtalosi dardi hijron qildi.

Dil muhabbat dardidan forig‘ edi,
Keldi-yu ishq, uni vayron qildi.

Yangi oyga intizor bo‘lsa birov,
Qoshi toqini namoyon qildi.

Va’da qildi vaslini hijron kuni,
Bu edi mushkul, u oson qildi.

Hajri dog‘ida jigarning qonidan
Dil terib gullarni xirmon qildi.

Hajri sahrosida sarson jon yana
Azmi sahroyu biyobon qildi.

Maknuna joni firoqda o‘rtanib,
Hajrining dastidan afg‘on qildi.

* * *

Ayriliqqa sabr etishdan o‘zga tadbir bo‘lmagay,
Hech qachon taqdir xati sa’y ila tig‘yir bo‘lmagay.

Ko‘z tikar har tong talab istab ijobat yo‘liga,
Dilning ohisiz duoda aslo ta’sir bo‘lmagay.

Tan fano bo‘lgay agar tushsa ko‘ngilga ishq o‘ti,
Sel yo‘lida chunki hech binoyu ta’mir bo‘lmagay.

Men ko‘ngillar lavhidan uchdim ketib o‘zdan chunon,
Xush hidida gulning aslo rangu tasvir bo‘lmagay.

Har nafas o‘zdan ketarman jilva qilsa ul malak,
Kelsa ham boshga ajal tashvishga arzir bo‘lmagay.

Maknuna ko‘zdan nihon bo‘ldi pari, bas, yo‘q iloj,
O‘ynamay jon muhrasin u senga taqdir bo‘lmagay.

* * *

Ey dili devona, g‘amdan shod bo‘l,
Kech jahon tashvishidan − ozod bo‘l.

Sarvqadlar jilvasidan ko‘zni yum,
Tolibi ul tengi yo‘q hurzod bo‘l.

Istasang Shirin labidan maqsading,
Bir nafas g‘am tog‘ida Farhod bo‘l.

G‘amzaga noz mashqidan ta’lim berib,
Dilrabolik yo‘lida ustod bo‘l.

Noziga ko‘zgu bo‘lishni istasang,
Ey xarob ko‘nglim mening, obod bo‘l.

Ketdi qo‘lingdan visolning etagi,
Endi kasbi tunu kun faryod bo‘l.

Mushkul ishlar oxiri oson bo‘lar,
Maknuna, bas, endi g‘amdan shod bo‘l.

* * *

Tunda yuzing yodida naqshi guliston bog‘ladim,
Tonggacha guldastai xobi parishon bog‘ladim.

Men emasman bexabar kipriklar bedodidan,
Bu jarohat daftarin ko‘zga namoyon bog‘ladim.

Dilni rahmat dengizi tomchisiga qildim qadah,
Sharm ila yor ishqiga ko‘nglimni pinhon bog‘ladim.

Menga hayrat kasb ekan, yo‘q vaslu hijronga ishim,
Bas, firoq shomida yig‘lab, asli bo‘hton bog‘ladim.

Bog‘ladi qon qomati zebosi vasfida ko‘ngil,
Dema, Maknuna, bu misrani men oson bog‘ladim.

So‘zla, ey Fazliy, Umar sulton shukuhu adlidin,
Man qachon aydim Sikandar birla Dorodin gapur.

* * *

Sham’ yoshi yona keldi yona tob ustindadur,
Bu jihatdindurki, “shin” doim shitob ustindadur.

Oncha ul bemor ko‘z hajrida log‘ar bo‘ldi tan,
Boshim anda nuqtayedurki, xarob ustindadur.

Mehri ruxsor ustida payavasta qoshingdur sening,
El gumon aylarki, madd oftob ustindadur.

Ko‘zga qo‘ygaymu qadam deb, bir kun ul chobuksuvor,
Egma qaddi “ro” kabi doim rikob ustindadur.

Sarvdek yaktosan, ey shamshod qadlar sarvari.
Qomatingdur ul alifkim, intixob ustindadur.

Terlagan ruxsoring uzra lolagun burqa’mudur,
Yo tarovat birla gul bargi gulob ustindadur.

Yuzlari maqtulini Fazliyg‘a te’dod etgali,
Qoshi ul hay sargahidurkim, hisob ustindadur.

* * *

Shom san birla may ichtim, subh xandonman hanuz,
Subh shomi furqat o‘ldi, masti hayronman hanuz.

Har g‘uborim zarra-zarra bo‘ldi barbodi fano,
Volavu shaydoyi bir xurshidi tobonman hanuz.

Subhdek bir kun yaqo yirtib, junun soz ayladim,
Telbalarga nusxai choki giribonman hanuz.

Bir ko‘rub aksi jamolingni azal mir’otida,
Dahr aro oyinadek madhushu hayronman hanuz

UVAYSIY

Ismi Jahonoy (Jahonotin), taxallusi Uvaysiy, Vaysiy bo‘lgan bu shoiraning lirik janrlardagi asarlarini o‘z ichiga olgan she’riy devoni(bir necha nusxada), “Qissai shahzoda Hasan”, “Qissai shahzoda Husayn” nomlaridagi diniy-sarguzasht dostonlari hamda “Voqeoti Muhammad Alixon” nomli tarixiy manzumasi ma’lum. XIX asrda tuzilgan ayrim tarixiy solnomalarda shoira asli marg‘ilonlik bo‘lib, 1789-1790-yili dunyoga kelganligi, adabiyot va musiqaga ixlosmand ma’rifatli oilada tarbiya topganligi, o‘ta savodxon otincha ayollardan biri sifatida tanilib, keyinchalik Qo‘qonda Nodira bilan yaqin tutinib ijod qilganligi aytiladi.

Uvaysiy she’riyatining mavzu doirasi keng. Uning devonidagi she’rlarida ishq-muhabbat, yor-u diyor, visol va hijron, ona va farzand, dunyo va ilohiyot haqidagi rang-barang mavzular talqin etiladi. Uning ko‘p she’rlarida asosiy lirik qahramon muhabbat o‘tida o‘rtangan ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday she’rlarda qo‘llangan tasviriy vositalar ham ayol kishining ishqdagi ahvol-ruhiyasini ifodalashga qaratiladi.

Uvaysiy Alisher Navoiydan so‘ng lug‘z-chiston, muammo va muvashshah janrlariga alohida e’tibor berdi, bu janrlarning adabiy ijodda an’ana sifatida davom etishida katta xizmat qildi.

Uvaysiy shye’riyati murakkab, xoslar she’riyati. U dunyo, olam, insonlar munosabati borasida chuqur tafakkur mezonlaridan turib mushohada yurituvchi falsafiy mohiyatga ega. Shoiraning ko‘pchilik asarlari maxsus sharhlashni taqozo etadi. Ifodalangan xos mazmunni sharhsiz anglash qiyin. Shoira asarlaridagi ishq – keng ma’nodagi yaralmish va u orqali yaratuvchiga bo‘lgan muhabbatdir. U mahbuba, vahdati vujud, ilohiy birlik haqidagi tushunchalarini izhor etarkan, olam tashqi ko‘rinishidan – moddiy, ichki mohiyati bilan esa – ilohiy, degan tasavvurda turadi. Uvaysiy lirik qahramoni tabiatida xuddi shu maqomdagi oshiq obrazini ko‘ramiz.

Uvaysiy mujgon, bozor, may, soqiy, bulbul, parvona kabi yuzlab poetik obrazlarning yangi ma’noviy sarhadlarini kashf etib, o‘zbek mumtoz adabiyoti obrazlar tizimini boyitishga beqiyos ulush qo‘shdi. Uvaysiy ijodida qo‘llanilgan har bir obraz uning falsafiy dunyoqarash qamrovini, olamni anglash mezonini, fikrlash tarzini, ijodiy tamoyilini aniqlashimizda muhim ahamiyatga ega.

G‘AZALLAR

Mehnat-u alamlarga mubtalo Uvaysiymen,
Qayda dard eli bo‘lsa, oshino Uvaysiymen.

Istadim bu olamni, topmadim vafo ahli,
Barchadin yumub ko‘zni muddao Uvaysiymen.

Kechalar fig‘onimdin tinmadi kavokiblar.
Arz to samo uzra mojaro Uvaysiymen.

To ko‘rib xarobotin ta’n etma, ey zohid,
Bir nafas emas xoliy iqtido Uvaysiymen,

Faqr borgohig‘a qo‘ysa gar qadam har kim,
Bosh anga kerak bo‘lsa, jon fido Uvaysiymen.

Vaysiy beriyozat deb sahl tutma, ey orif,
Ishq aro nihon, dardi bedavo Uvaysiymen.

***

Bag‘rimi qoni labi la’li badaxshona fido,
Nuri imonim o‘shal sham’i shabistona fido.

Aqlu hushim bila idrok siyah xolig‘a kim,
Tab ham fahmu farosat xati rayxona fido.

Husni ruxsoringga jonon ko‘zimi mardumaki
Dini islomim o‘shal zulfi parishona fido.

Boshimi quyi etib muntazir ettim o‘zimi
Ishq maydonida o‘ynar esa Chavgona fido.

Etmadim munchaki xurshidni mohiyatini,
Ikki yaldoni aro bir mahi tobona fido.

Sochti ko‘z gavhari bag‘rim aralab gavhari ashk,
Labi la’li orasinda duri dandona fido.

Shukri javring eturga ko‘nglum ichra gullardek,
Har taraf yarolardin bosh chiqardi paykonlar.

Kofiri siyahmasti sangdili asiriman,
Yig‘lasam fig‘on tortib, kulmang, ey musulmonlar.

Halqa-halqa zulfungni pecha xam shikanjida,
Aylanurg‘a boshingdin payvand bo‘lub jonlar.

Fasli navbahor o‘ldi, shohidu sharob ista,
Tarki ishqi may qilma, keltirur pushaymonlar.

Shohi din Umar sulton chokariman, ey Fazliy,
Bosh qo‘yar murod istab dargohig‘a sultonlar.

* * *

Ey sabo, kel bog‘ aro, ko‘rgan tamoshodin gapur,
Sarv ila guldin dema, ul sarvi ra’nodin gapur.

Pistavu bodomidin dam urmagil, ey bog‘bon,
Ul labi xandondin aytib, chashmi shahlodin gapur.

Tobsang, ey shaydo ko‘ngul, nogah ani ko‘yig‘a yo‘l,
Ul pari ollida bu majnuni rasvodin gapur.

Yor zulfidin girih ochmoq hunardur, ey nasim,
Nuktadonlar ichra bu mushkil muammodin gapur.

Zuhd ta’rifini qil zohidg‘a bo‘lsang hamnishin,
Rindlar bazmida sog‘ar birla miynodin gapur.

Xudnamolig‘din mukaddardur ko‘ngul, ey mayfurush,
Urma dam oyinadin, jomi musaffodin gapur.

Ey mudarris, ishq darsini rumuzidur daqiq,
Muxtasar qil ushbu so‘zni, “Sharhi Mullo”din gapur.

Zi baxshishu karami shohi din Umar sulton,
Dabir sabz shudu Fazliyi Namangon surx.

* * *

Soqiyo, sensiz manga bo‘ldi bu oqshom kom talx,
Dam-badam la’ling xumoridin icharmen jom talx.

Nargising aylar nigohi tund, la’ling zahrxand,
Vah, nadindur bu chamanda pistavu bodom talx.

Zulfi simin so‘idu maygun labing hijronida,
Boda yo‘qkim, qon yutarman subhidin to shom talx.

Zahri g‘am yutmak labing hajrida odatdur manga –
Kim, emas maxmurlarg‘a bodai gulfom talx.

Hajr og‘usidin agar oh etmazam la’ling tilab,
Necha may talx o‘lsa, bilmaz oni mayoshom talx.

Sarva ko‘rguzma qadingni, gulga arz etma jamol,
Qilma gulshan ayshini, ey sarvi gulandom, talx.

Nash’ai sahbo kabi Fazliy guvorodur manga,
Garchi bordur yori shirin la’lidin dashnom talx.

* * *

Sunbulung asiridur turrai parishonlar,
Nofai g‘izoli Chin rashkidin yutar qonlar.

Nargisingni mast etma bodai tag‘ofuldin,
Bas emasmu qatlimg‘a surmarang mijgonlar.

O‘tti ul kamonabro‘ g‘amza o‘qlarin otib,
Qoldi yodgor andin ko‘nglum ichra paykonlar.

Ko‘rdi xoni husnungni – yozdi mardumi chashmim,
Qo‘yki, bahra olsunlar ul g‘arib mehmonlar.

Vaysiy, o‘lganda tirilmakdin agar etsang umid,
Aylagil joni azizingni ki jonona fido.

***

Kir bazmiga jononimi may no‘shi tamosho,
Sol bo‘ynunga zulfini buno go‘shi tamosho.

Bir joningi bir qatrai may olg‘il o‘shal dam,
Ilkingda turub sog‘ari behushi tamosho.

Madhush so‘zi birla yana aqlinga yonsang,
Olamni xususan ki faromushi tamosho.

Ishq ahli suchuk bildi sanam tig‘ini jondin,
Qatl etganida jabr ila xomushi tamosho.

Ilkiga g‘azab tig‘ini gar olsa nigorim,
O‘lmakligiga mingni dilin jo‘shi tamosho.

Soqiy ki sabuhig‘a Haq asrorini qo‘ymish,
Ul piyri mugon oldida sarpo‘shi tamosho.

Vaysiy, seni ul mug‘bacha lo ya’qul edarsa,
G‘am sog‘arida doruyi madhushi tamosho.

***

Ko‘rub ul donai xoling, dedim domingga sallamno,
Nigohing qatl etar ul chashm hangomingga sallamno.

Masiho iqtisob aylab ekan lali labingdin kim,
So‘zing ming jon berur bir damda ul komingga sallamno.

O‘shal abru hiloling iydi ruxsoringda ko‘rsam men,
Ki qurbon aylaram jonimni ayyomingga sallamno.

Vujudim ichra jonim o‘rtanur fonus sham’idek,

Chirog‘ing etmagil darkor ul shomingga sallamno.

Ko‘zum hil bo‘ldi ko‘z tutmog‘da to yo‘lungga, ey qosid,
Deram har kun muyassar yo‘qtu payg‘omingga sallamno.

Tag‘ofil qilma, ey soqiy, bu kun xuni jigar sog‘ar,
Yutarmen tashnalig‘din harna der jomingga sallamno.

Uvaysiy, qofiya tang o‘lsa ham mazmuni mahvashdin,
Xayolin mahkam et, ayg‘ilki, ixromingga sallamno.

***

Qildi ul mashriq saridin o‘zni izhor oftob,
Na uchun kim izlagay har ro‘z diydor oftob.

Charx zarfig‘a qo‘yib og‘zin yutar har kunda qon,
Shom vaqtida shafaq bilgurdi xunbor oftob.

Kecha izlar, kunduz izlar, vahki, bir dam tinmayin,
Charx vodisida Majnuni jigar xor oftob.

Benasibing deb edim bir mendumen har ro‘zu shab,
Men kibi, jono, yuzung ko‘rmakkadur zor oftob.

Men nuchuk Majnun kibi rasvoi olam bo‘lmayin,
Charx uza ruxsori mohingga giriftor oftob.

Do‘st deb tuttum etokin ul falak g‘addorni,
Shatta urdi ketti mag‘rib topti ozor oftob.

Vaysiy, boshing uzra qo‘y xurshidi tal’at yorni,
Bilmadingmu zarralar boshinda dastor oftob.

Aylabon ta’zim uchun arsh uzra qo‘yg‘onda qadam,
Gardi na’layn bu to‘quz borgah bosh uzra toj.

Saltanat dayhamidin yuz qatla ortuqdur manga,
Har qachon ko‘yingda qilsam xokrah bosh uzra toj.

Dunyavu uqboda andin o‘zga sulton yo‘qki, bor –
Ki, shafoat daftari ilkida ogah bosh uzra toj.

Shohlar ichra Umar sultong‘a, Fazliy, ofarin,
Davlatida qo‘ydi har qaysi sipah bosh uzra toj.

* * *

Zi tobi boda chunon gasht ro‘yi jonon surx,
Ki shud zi didani u chashmi mayparaston surx.

Labash ba xanda magar nash’aye ryext dar sog‘ar,
Ki gasht boda az on la’li nobi xandon surx.

Bahor omadu az jo‘shi nolai bulbuli mo,
Ba xun tapid ba range, ki shud guliston surx.

Guft zi xuni xano to shafaq damonad maro,
Zi girya shud mijja chun panjahoyi marjon surx.

Fishonad diydai man qatra-qatra xuni jigar,
Gumon mabar, ki zi nayson chakid boron surx.

Chunonki rang fizoyad bahor gulshanro,
Chaman shud az qadami shahriyori davron surx.

Shukufa bar sari har shox az latofati gul,
Ba jilva omad chun bandagoni sulton surx.

Sikandarist jahongir k-az salobati u,
Zi xuni da’voyi xud shud kulohi xoqon surx.

Ishq osondur va lek jon o‘ynamoq dushvor erur
Bulhavas ham o‘ynar erdi bo‘lsa oson o‘ynamoq.

O‘ynag‘il Fazliy vafo nardin qurub jon naqdini
Gar tilar bo‘lsa saningla tab’i jonon o‘ynamoq.

***

Ey parivash, har necha husni tajammuldur sanga,
Yuz oningcha shevai nozu tag‘ofuldur sanga.

Sanga ushbu notavon qul xizmati maqbul emas,
Nechakim, ey husn shohi, barcha el quldur sanga.

Orazing sham’iki gullar ochti sahbo tobidin,
Murg‘i dil parvona erdi, emdi bulbuldur sanga.

Ey ko‘ngil, xatti g‘uboriy sabza keltirur,
Ul vafo sultonidin xatti tarassuldur sanga.

Qilma, ey devona, ko‘z yoshini hargiz munqate’ –
Kim, ani har qatrasi bir sog‘ari muldur sanga.

Manga zulfu qad xatidur g‘araz, ey bog‘bon,
Muddao gar sarv ila rayhonu sunbuldur sanga.

Garchi har oshiq topar o‘z yoridin sabru shikyeb,
Fazliyi devona besabru tahammuldur sanga

* * *

Har gadokim, bor anga eski kulah bosh uzra toj,
Shod erur, andoqki, qo‘yg‘ay podshah bosh uzra toj.

Xasta ko‘nglim mahmili shavqingdin o‘ldi sarfaroz,
Yo‘q ajab Yusufni dalvin qilsa chah bosh uzra toj.

Charx gulzorig‘a javlon etgach ul mohi tamom,
Qildilar na’li samandin mehru mah bosh uzra toj.

***

Shukri lillah husni ruxsoring menga bo‘ldi nasib,
Marhamat bobin yuzumga aylagil vo, ey habib.

Bir pari ko‘nglumda hozir, yuzda g‘oyibdur netay,
Ul sababdin ostoningga kelibmen oxtarib.

O‘qlaring zaxmi vujudimda jarohat doimo,
Marhamat etgil jismi ur’yonim ko‘rubon, ey tabib.

Poymoli xokirah bo‘lsa vujudim maqsadim,
Jon baxaq taslim etsam gardi poying yastanib.

Ey ulus, yumgul ko‘zing ahvolima rahm aylabon,
Ko‘z ochay husnig‘a mahbubim kelurmish tebratib,

Shum raqiblar bo‘lsa, vaslingdin yiroq etkil meni,
Men g‘arib holim deyin, didoringa qilg‘il qarib.

Bosh kerak bo‘lsa bukun to‘kkil Uvaysiy qonini,
Zulfi tarroring tarab ochg‘il samanding o‘ynatib.

MUXAMMAS
Navoiy g‘azaliga muxammas

Ishq irshodi erur avroqi dilbar topsa xat,
Maqsading hosil o‘lur Xizri payambar topsa xat,
Bok yo‘q ko‘nglum sharorin birla kavsar topsa xat,
Tong emas kim tobi ishqingdin ko‘ngul gar topsa xat:
Ne ajab o‘t shulasi birla samandar topsa xat.

Demagil, ey sho‘x, ko‘nglungda xayoling besabot,
Nutqingi yod etmakimdindur mukarrar ul nabot
Xasta ko‘nglum bir labing qandidin ar obixayot
Rahm aylabon meni maxmura qilsang iltifot,
Topti xat sharbat ichib netti mukarrar topsa xat.

O‘lgusi suvdin chiqar bo‘lsa agar chandi nahang,
Bizlara sensen tiriklik qilmagil nomusu nang,
Bermagil ozor, ozoring ko‘rub, ey sho‘x shang
Jomi la’lingdin ko‘ngul maxzuz bo‘ldi, vah netong,
Tushsa maxmur ilking bu nav sog‘ar topsa xat.

Bu na holat beg‘arazlik ichra men bokin esam
Ko‘rmagim bo‘lsa maholu o‘lmag‘a mumkin esam
Vasl ichra noshakibo, hajrida tamkin esam
Tunu kun ul sho‘x may ichganda gar g‘amgin esam
Bok yuk mendin kerak kim ul sitamgar topsa xat.

Soqiyo, xummorlig‘din; vohki, paymonim to‘lar.
Bazm qurg‘il, jon toparlar yor ag‘yori o‘lar,
Ba’zilar mardudi vasling, ba’zilar mahram bo‘lar,
Men yutub qon yig‘laram la’ling ichib sog‘ar kular,
Teng qadah ichgan kerak erdi barobar topsa xat.

Doimo mayxona ichra jonu tan uftodadin
Layli deb Majnunlig‘ etgan bexalal jondodadin
Xonaqohu, masjidu ham xirqau sajjodadin
Aqli komillar ko‘rar yuz zuhd bir lab bodadin
Go‘yo men xat toparmen ul sumanbar topsa xat.

Davlati visolingga shukr etmaganlarni,
G‘am o‘tig‘a dog‘ aylab, mubtaloyi hijron qil.

Soqiyo, yuzung aksi qildi bodani gulgun,
Lola rang sog‘ar tut bazmni guliston qil.

Ey ko‘ngul xarobingga kelsa yoshurun dardi,
Voqif o‘lmasun mardum ko‘z uyida mehmon qil.

Oshiqi talabgoring mardlarni shohidur,
Bo‘sai dahoningdin nazri shohi mardon qil

Fazliyo, Umar sulton dargahiga yo‘l topsang,
Ko‘zlaringga tufrog‘in surmai Sulaymon qil.

***

Gul chog‘i xushdur qilib sayri guliston o‘ynamoq,
Yor ila gulshanda sarmastu xiromon o‘ynamoq.

Yor la’li birla o‘ynab bo‘lmas, ey shaydo ko‘ngul,
Bas degil insof ila osonmudur jon o‘ynamoq.

Turfa sarkashdur samandi noz surma tund ani,
Kim anga odat erur qilg‘onda javlon o‘ynamoq,

Halqai zulfungga chindur ko‘ngul o‘ynab berganim.
Yo‘qsa ishq oyinida bordurmu yolg‘on o‘ynamoq,

Bok emas gar tarqasa ashkim yuzum atrofina,
Yoshlarg‘a rasmdur haryon parishon o‘ynamoq.

Keldi yoding ko‘ngluma ashkim yugurdi har taraf,
Tiflg‘a odat erur kelganda mehmon o‘ynamoq.

Ey ko‘ngul, vayronalig‘lar birla xush tut xotirin,
Gar sening birla tilar ul tifli nodon o‘ynamoq.

Qoshlaring misli kamon paykonni qaydan topay,
Topilmas bo‘lsa paykon kiprigimdan olaman.

***

Bunchalar nozik ekan tanda hayot, ey ko‘ngul,
Gohida o‘tgay xato ming jarohat, ey ko‘ngul.

Bir qo‘nimda turmagay gohi shod, goho ma’yus,
Chaqsa til qayg‘urmagin, ayla toqat, ey ko‘ngul.

Ranjimay yo‘qdir iloj, besabab bo‘lsa bo‘hton,
Dil yorishmas yoqsa sham behalovat, ey ko‘ngul.

Kezsa gulzor yor ila dunyoni tark aylagay,
Shirin suhbat davradan topgay rohat, ey ko‘ngul.

Doimo birdek emas hasratida bor alam,
Dardini etgay bayon, gar xiyonat, ey ko‘ngul.

Toblanar turli-tuman, shodligu g‘am yonma-yon,
Sofligin qilgay ayon, bor diyonat, ey ko‘ngul.

Ishq-muhabbat kuyida o‘rtagay shomu sahar,
Dilda hijron uyg‘otib oh, malohat, ey ko‘ngul.

Va’dasi oshkoradir yorning ko‘nglin ovlasa,
Bol tomar tildan shu on, chin sadoqat, ey ko‘ngul.

Nodonlarning dastidan, Fazliy, zinhor ranjima,
Xokisor bo‘l el aro, hur latofat, ey ko‘ngul.

***

Gul yuzungda zulfungni bog‘ aro namoyon qil,
Lola birla sunbulni dog‘ etib parishon qil.

Lolagun qabo jaybing tugmasin ochib gohe,
Gul yaqosini chok et, g‘uncha bag‘rini qon qil.

Aylamish ko‘nglum solib zunnor bilman azmidin
Fahm qildim aqlu xush idrok jam’in jazmidin
Vaysig‘a tab’i xirad ortarki jonon bazmidin
Ne ajab ahli xiral xushdil Navoiy nazmidin
Javhari topkanda tong yo‘q yaxshi gavhar topsa xat.

CHISTONLAR

Ul na gunbazdur, eshigu tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur makon?
Sindirib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlarig‘a parda tortilg‘an, yoturlar bag‘ri qon!
(Anor)

Ul na: boshi to‘rt, bo‘yni oltidur sohib suxan,
Beli to‘rt yuz, poyi bir, joni ikki yuz rohzan?
Tong ermas, dil muddaosi bo‘lsa hosil, ey gado,
Bul Azizi Misrdurkim, Yusufi gulpirahan.
(Dutor)

Ul na shahridur: yigirma bob, bir bozori bor,
Bulbuli mingdur, ajoyib etti yuz gulzori bor?
Yona vafi shahri Rumdur, hindular tutmish vatan,
Tashna so‘rsa, bog‘i abjaddin chiqar anhori bor!
(Qog‘oz)

Ul nadurkim, sabz to‘nliq, yoz yog‘ochning boshida,
Qish yalang‘och aylag‘ay barcha xaloyiq qoshida?
Barcha qushlarning so‘ngoki ichida,
Ul na qushdurkim so‘ngoki toshida.
(Yong‘oq)

FAZLIY

Abdulkarim Fazliy Namangoniy (XVIII asr II yarmi – XIX asr I yarmi) Qo‘qon adabiy muhitining yetuk vakillaridan biridir. XIX asr boshlarida To‘raqo‘rg‘on va Namanganda turli mansablarda ishlagan. Umarxon hukmronligi yillari (1810-1822) Qo‘qonga kelgan. She’riy iste’dodi tufayli xonning marhamatiga sazovor bo‘lib, tez orada saroy shoirlarining boshlig‘i – “maliku-sh-shuaro” nomini olgan. Umarxonning hayoti, faoliyati, harbiy yurishlari, hukmronligi davridagi voqealarni “Umarnoma” dostonida tasvirlagan. Xon topshirig‘iga ko‘ra, Fazliy “Majmuai shoiron” (“Shoirlar majmuasi”, 1821) tazkirasini tuzishga boshchilik qilgan. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk marta she’riy yo‘l bilan yaratilgan mazkur tazkirada XIX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitining ko‘plab vakillari haqidagi qimmatli ma’lumotlar va asarlaridan namunalar mavjud. Shu jumladan, unda Fazliyning qasida va g‘azallari, shoira Mahzuna bilan mushoirasi ham bor.

Fazliyning “Devon” tuzgani ma’lum, ammo u topilmagan. Uning o‘zbek va tojik tillarida yozilgan g‘azal, masnaviy, muxammas, ruboiy va tuyuqlari turli majmua va bayozlarda uchraydi. Fazliyning “Majmuai shoiron” tazkirasi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qo‘lyozma va toshbosma nusxalarda keng tarqalgan. Eng qadimiy ko‘chirilgan nusxa 1822-yilga oiddir. Uning mukammal qo‘lyozma nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. (inv. № 7510, 9914 va b.). Fazliy Umarxon vafotidan so‘ng (1822), Namanganga ketgan va o‘sha yerda vafot etgan. Bizga ma’lum muxtasar merosi ham uning shoirlik salohiyati baland bo‘lganligidan dalolat beradi. Qator g‘azallari qo‘shiqqa aylanib. “Shashmaqom”dan mustahkam o‘rin egallagan (“Gul yuzungda zulfungni bog‘ aro namoyon qil”, “Qila boshladi menga zulmkim”, “Ey sabo, kel bog‘ aro – ko‘rgan tamoshodin gapur”). So‘zga ustaligi, hozirjavobligi, ilmu adab ahli bilan hazil-mutoyibalari to‘g‘risida xalq ichida ko‘plab latifa va hikoyatlar yuradi.

G‘AZALLAR

Ey g‘ubori maqdaming, jon diydasig‘a to‘tiyo,
Tongmas topsa ko‘ngul oyinasi andin jilo.

Xoki dargahingdadur xosiyati ganji murod,
Kosh bu iksirdin(i) tuprog‘i(y)m o‘lsa kimyo.

Dargahing tuprog‘idir yonimda rohat bistari,
Ostoning xishtidur boshimg‘a zarrin muttako.

Ko‘z emas kahlil javohir minnatidin tiyra dil,
Surmai chashmi jahon Chindur manga ul xokipo.

Ey nasim, ul sarv gul ruxsoridin berding xabar,
Xo‘b qilding, yaxshi kelding, xayra maqdam marhabo.

Sinsa ko‘ngul rishtasi tadbir bilan bo‘lmas butun,
Ustuxon ermaski, oni rost qilmas mo‘miyo.

To abad bo‘lg‘ay jahon mulkida Fazliy jovidon,
Xusravi sohibqiron Sulton Umar kishvarkusho.

***

Bosh egdim muhabbatga, men g‘arib bechoraman,
Topgaydir meni albat yo‘lida ovoraman.

Bilmagan der ul Majnun, ishqida devonaman,
Izlab husniga doston mag‘ribga ravonaman.

Hanuz yordin yo‘q xabar, o‘zimdan begonaman,
Ilk muhabbat qasrida, tun shamga hamxonaman.

Bergali tuhfa yorga xun dilim oh, yonaman,
Ul go‘zal bo‘lsa yiroq, sevgiga afsonaman.

Ey sanam, xor aylama, voz kechsang gar tonaman,
Ko‘zlaringdan oqsa yosh marjon kabi tomaman.

G‘AZALLAR

Butmas ermish hajr tig‘idin bag‘irning yorasi,
Juz visoli marhamidin yo‘qtur oning chorasi.

Ey falak, insof birla aylag‘il holimg‘a rahm,
Ishq zulmidin bo‘lub ko‘ngul jahon ovorasi.

Charx uza har yon ko‘rungan tun aro anjum emas,
Qatralar sochti yoshimdin ko‘zlarim favvorasi.

Demagil g‘am dashti uzra ochilibdur lolalar,
Ul jigardur hajr zahridin to‘kulgan porasi.

Tutma ko‘z hargiz falakdin surati behbudlik,
Holatim etti digargun sobit-u sayyorasi.

Gul kabi oqti xayolim gulshani sahnig‘a qon,
Jon boshig‘a tegdi g‘am otlig‘ni sangi xorasi.

Ishq keldi men sori ko‘zlab muhabbat tog‘idin,
Ayladi Uzlat kabi bechoraning bechorasi.

***

Aningdek bir parivash husn gulzorida kam ermish,
Malohat kishvarida orazi bog‘i Eram ermish.

Meni kayfiyatim yaxshi-yomonin vasl-u hajridin,
Yozarg‘a orazi lavhi uza qoshi qalam ermish.

Icharman rashkdin har tun may o‘rnig‘a bag‘ir qonim,
Aning bazmi aro ag‘yor, baskim, muhtaram ermish.

Ko‘rungay yorsiz mahfil aro sing‘on safoldek,
Icharg‘a may qadah o‘rnig‘a garchi jomi Jam ermish.

Pariro‘lar necha sarhang birla may ichar sarxush,
Hamisha ishq ahlig‘a jahonda oh-u g‘am ermish.

Mo‘tak injildim, emasman tiyra baxtimdin malul,
Ul qaro ko‘z nargisi davrida mijgonman hunuz.

Bu chaman bulbullari xatmi tarannum qildilar,
Man hazin shah vasfida madhu sanoxonman hanuz.

Adl aro Fazliy Umar Sultonni ko‘rgandin beri,
Munkiri ovvozai Fag‘furu Xoqonman hanuz.

* * *

Bo‘ldi ayyomi visolu dog‘i hijronman hanuz,
La’li ahvolimg‘a xandon o‘ldi giryonman hanuz.

Kecha tush ko‘rdum sari zulfungni tebratmish nasim,
Vahki, bu oshufta uyqudin parishonman hanuz.

Zulfi mushkini dilovyezig‘a berdim naqdi jon,
Sud erur, lekin bu suddin parishonman hanuz.

O‘tti umru, bilmadim, mohiyatim tahqiqini,
Ko‘daki suvratdek o‘z holimg‘a hayronman hanuz.

Guljabinlarni xoki o‘ldum, valek,
Andalibi benavoyi bu gulistonman hanuz.

Shodmen, Fazliy, amir ul-mu’minin davronida,
Bir g‘azal madhin dedim, mumnuni ehsonman hanuz.

* * *

O‘zin piri mug‘on zohid kabi cho‘x berivoj etmaz –
Kim, ul afsun ila afsona deb so‘zni lijoj etmaz.

Tajarrud davlati aflok uza chekti Masihoni,
Xush ulkim, dahr zolig‘a qabuli izdivoj etmaz.

Xayoli xaylig‘a mahram bo‘la olsang afokalloh –
Kim, ul bebok xud ushshoqi mayli imtizoj etmaz.

Agar bo‘lsaydi faqr ichra havoyi saltanat nechun,
Gado kachkulini vojun kiyib, bosh uzra toj etmaz.

Duri ashki aqiqiy xuni dildur hosili ishqim,
Bu javharni junun savdogaridin shahna boj etmaz.

Agar jon olg‘asen ko‘nglumni xud vasl ila xursand et,
Deh obod o‘lmag‘uncha shoh taklifi xiroj etmaz.

Beli mazmunidin ramze dedim, tund o‘lma, ey Fazliy,
O‘zin da’voyi oshiqlik qilon nozikmizoj etmaz.

* * *

Biravkim, ul guli ra’no visolini xayol etmish,
Sarig‘ aylab yuzini, ashki selobini ol etmish.

Tarab sham’ini ravshan aylab ul oy chehrai tobdin,
Ko‘zum mardumlarini mahrami bazmi visol etmish.

Ravo qil xojatin aylar duo, tund o‘lma, ehson qil,
Labingdin kom istab, bo‘sai ko‘nglum savol etmish.

Gulandomeki, ra’no qad bila har dam xirom etgach,
Chamanda sarvi gulni soya yanglig‘ poymol etmish.

Yuzingdin qatra-qatra xay tarovat oshkor etgach,
Hayo gul shabnamini g‘arqi bahri infiol etmish.

Ko‘rub gulbargi ruxsoringniyu shahdi kalomingni,
Tahayyur bulbulu to‘tini gulshan ichra lol etmish.

Yuzin ko‘rmoqqa ko‘z mushtoqi xojatmand edi ko‘nglum,
Nadur vajhi bugun oyinai arzi jamol etmish.

MUHAMMADSHARIF (UZLAT, MAHJUR, NODIR)

Asli ismi Muhammadsharif bo‘lib, Uzlat (Uzlatiy), Mahjur, Nodir (Nodiriy), Sharif (Sharifiy) taxalluslari bilan o‘zbek va tojik tillarida ijod etgan zullisonayn shoir Qo‘qon adabiy muhiti so‘z san’atkorlari orasida alohida mavqega ega.

Uning hayoti va faoliyatiga doir ayrim ma’lumotlar shoirning o‘z qo‘lyozmalari hamda Abdulkarim Fazliyning “Majmuai shoiron”, Po‘latjon domulla Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” asarlarida uchraydi.

Muhammadsharif Uzlat 1752-1758-yillarda hozirgi Namangan viloyati Chust tumanining Koson qishlog‘ida tug‘ilgan. Shoir keksalik chog‘ida Qo‘qonga ko‘chib boradi. Bu payt Amiriy – Umarxon xonligining so‘nggi yillariga to‘g‘ri keladi.

Fazliy o‘z tazkirasida Uzlat iste’dodli shoir, qavoidshunos olim, mashhur xattot, fozil kishi bo‘lganligini, qayd etib o‘tgan. Bizgacha mazkur shoirning xalqparvarlik, adolat, muhabbat, vafodorlik, saxiylik, halollik kabi g‘oyalarni targ‘ib etuvchi “Haft gulshan” dostoni va taqdirning shumligidan, ijtimoiy tengsizlikdan shikoyat, baxtsiz sevgi alamlaridan zorlanish, insoniy fazilatlarni ulug‘lash, kishiga va tabiat go‘zalliklariga muhabbat, turli ijtimoiy toifalarga munosabat singari motivlar kuylangan she’rlaridan tuzilgan devonlari yetib kelgan. 1962-yilda Uzlatning asli vatani – Kosondan topilgan o‘zbekcha va forscha devoni (inv. №693) va shu devonning noto‘liq Namangan nusxasi ham Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanmoqda**.**

Har kishida bir g‘araz bor har ko‘ngulda bir xayol,
Man sani husningga hayron va ko‘ngul oshifta hol,
Bu muxammas ichradur maqsudim, ey vahshiy g‘izol,
Nuqtadonsan ro‘yi har bir baytdin bir harf ol,
Xo‘bro‘lar vasfida Fazliy toza guftor o‘lmisham.

Manga anbar ila sunbul isin, ey bod, kelturma,
Nasimi nakhati zulfi mani oshuftahol etmish.

Topolmas muddao Fazliy hayolidin xalal hargiz,
Nedinkim, xizmati Kayxusravi sohibkamol etmish.

* * *

Tishladim la’lingni, qahr etma, anga jondur evaz,
To‘kkaning qonimni san ham qoniga qondur evaz.

Gar labingni bo‘sasig‘a jon badal bo‘ldi desam,
Qilma bovar ushbu so‘zga, jona yolg‘ondur evaz.

O‘qlaringni garchi kuch bila tanimdin chektilar,
Manga andin zaxm aro bir necha paykondur evaz.

Jonda rohat erdi vaslingdin ko‘ngulda oqibat.
Emdi aning har birig‘a dog‘i hijrondur evaz.

Vasl bazmida surudi aysh ila mahzuz edim,
Anga emdi bayt ul-ahzan ichra afg‘ondur evaz.

Ishq aro gar naqdi jon o‘ldi talaf, yo‘qdur g‘amim,
Balki andin shodmankim, vasli jonondur evaz.

Xo‘blarda, ey ko‘ngul, yo‘qtur muruvvat shevasi,
Oshkor etsang duo, dashnomi pinhondur evaz.

Vasl bobi orzusi birla jon berganlara,
Zavqi unnobi labi, sebi zanaxdondur evaz.

Shukrkim, Fazliy zamon abnosini bedodig‘a,
Hazrati sulton Umardin lutfu ehsondur evaz.

* * *

Ko‘zlaring maxmurig‘a may birla sog‘ardin na haz,
Tashnai la’li labingga obi Kavsardin na haz.

Jon labingdin ayru tushti tutg‘il achchig‘ may anga,
Talx komi zahri hijroningga shakkardin na haz.

Tobmasa jonbaxsh la’ling no‘shidin obi hayot,
Xizrg‘a olam aro umri mukarrardin na haz.

Sayri olamdain topar sayqal ko‘ngul oyinasi,
Yo‘qsa Iskandarg‘a fathi haft kishvardin na haz.

Farz qildimkim, jahon mulkidadursan tojdor,
Dardisardin o‘zga boshing uzra afsardin na haz.

Gar ko‘ngulda nash’ai dog‘i muhabbat bo‘lmasa,
Sog‘ari Jamshidu mir’oti Sikandardin na haz.

Qadr don jilva Fazliy diydai hayron emas,
Beshuur oyinag‘a diydori dilbardin na haz.

* * *

Magarki tobmadi ul zulfdin farog‘ tarog‘,
Xarobdur jigari reshu bedimog‘ tarog‘.

Chamanni go‘shasida tarbiyat qilur shamshod,
Sochining sunbulig‘a aylamakka bog‘ tarog‘.

Tararda zulfi yuzing oyi bo‘ldi ravshanroq,
Magar husn chirog‘ig‘a quydi yog‘ tarog‘.

Tazallum ilkin ochib, tarqatib sochi girihin,
Ko‘ngulni nolasig‘a solmadi qulog‘ tarog‘.

Hamisha zulfingg‘a gustoxlig‘da qo‘l uzatur,
Xabar ber o‘z xaddidan chekmasin ayog‘ tarog‘.

Soching savodida oydek yuzingni partavidin,
Qorong‘u kechada ravshan qilur chirog‘ tarog‘.

MUXAMMAS

Ohkim sarvi sihi qomat sanga zor o‘lmisham,
Xasta jonu notavon zoru dilafkor o‘lmisham,
Kuyi g‘am vayronasi, majnuni bozor o‘lmisham,
Xalq aro ishqi junun savdosida xor o‘lmisham,
Naqdi jonbirla visolingga xaridor o‘lmisham.

Noz ila, ey sarvi xushraftor o‘ldurding mani,
Ey gul andomi suman ruxsor o‘ldurding mani,
Bevafoliq zohir aylab zor o‘ldurding mani,
Kimga borib dod etay, ey yor o‘ldurding mani,
Sen kabi berahm qotilg‘agiriftor o‘lmisham.

Oh, ey san sangdil, berahm, ey bedodgar,
Qilmadi hargiz sanga faryodu afg‘onim asar,
Tig‘i bedodingdin o‘ldum ayla qonimdin hazar,
Mubtaloman bo‘lmag‘il holi dilimdin bexabar,
Rahm qilkim, dardi ishqing birla bemor o‘lmisham.

Xo‘bro‘ylar shahriyorisan, parilar sarvari,
Sarv, shamshodu sanobar naxl qadding chokari,
Oftobi xovari avji malohat ahtari,
Ko‘zlaring mardumlari xoni mulk g‘oratgari,
Man asiri g‘amzai ul ikki xunxor o‘lmisham.

Oftobi olamorodur yuzing sharmandasi,
Yusufi Kan’on malohatda jamoling bandasi,
Sarvi jannat qaddi diljo‘yingni sarafkandasi,
Ko‘zlarimni qildi giryon la’l nobing xandasi,
Hasratingda abri naysondek guharbor o‘lmisham.

Nozu istig‘noli sendek bir diloro ko‘rmadim,
Gul yuzung yanglig‘ jahon bog‘ida ra’no ko‘rmadim,
San kabi davron aro bir sho‘x zebo ko‘rmadim,
Dardi ruxsoringda zulfingdek muammo ko‘rmadim,
Nuqtai xoling xayoli ichra purkor o‘lmisham.

Verub eldin huzurin g‘unchai gul bo‘lmoq havosi-la,
Giriboni taammul on sad choka do‘ndurdi.

Ko‘ngulni kokulung tasxir etib, zulfungga band etti,
Kamanding har nakim sayd etti, fitroka do‘ndurdi.

Xating andishasidin talxkom erdim, bihamdilloh,
Labing xosiyati ul zahrni taryoka do‘ndirdi.

Falak toqini ravshan aylagan har shom barq ermas,
Sipehr ohim o‘tin aflokdin afloka do‘ndurdi.

Tama’ dandonini tez aylamakka hirs asbobi,
Irik suhon edi, zohid ani misvoka do‘ndurdi.

Mudom ich bodai gulrang, Fazliykim, bu o‘t tobi,
Ko‘nguldin tiyralikni shu’lai idroka do‘ndurdi.

* * *

Qila boshladi menga zulmkim,
Sitam etdi jabru jafolaring –

Ki, vafoga va’dalar aylabon,
Qani va’dalarga vafolaring?

Mahi orazingni xayolida,
Kuyaman firoq ila hajrida,

Menga ishq tuhmatin aylabon,
Meni chaqdi yuzi qarolaring.

Dilu joni Fazliyi notavon,
Senga muntazir ko‘zi nigaron.

Hamma dam ko‘nglida muhabbating,
Tunu kun dilida duolaring.

Magarki telba erur xasta bo‘ldi zulfung aro,
Baloda qolmas edi, bo‘lsa erdi sog‘ tarog‘.

Chu sumbulingni nasim ochti g‘ayratdin oning,
Yurakni ayladi yuz chok dog‘-dog‘ tarog‘.

Dameki shona chekar yor zulfig‘a, Fazliy,
Yurakni resh etaram rashkdin tarog‘ tarog‘.

* * *

Shomi firoq ravshan etarga chirog‘ dog‘,
Qildi tanim fatilavu ashkimni yog‘ dog‘.

Husnungni mehr ko‘rdi, zulfingni ochti yel,
Oina tira qoldi-yu, bo‘ldi tarog‘ dog‘.

Aytur ko‘ngul g‘amida kuhan dog‘ toza bo‘l,
Bu telba so‘zig‘a nega solmas qulog‘ dog‘.

La’ling mayi xumorida ayshim mudomdur,
Qonlug‘ ko‘ngul surohiyu sahbo ayog‘ dog‘.

Yuz poralig‘ ko‘ngul yaqosi chok-chok edi,
Gulchini rufu’sidek etti yamog‘ dog‘.

Sayri chamang‘a emdi manga yo‘qdur ehtiyoj,
Ko‘ksimni bo‘yla ayladi ishqingda bog‘ dog‘.

Fazliy, vafo riyozini tovusi bo‘lmisham,
Azbaski hajr o‘tida tanim bo‘ldi dog‘-dog‘.

* * *

Tanim xoki rahing, ey sarvinozi gul’uzor, o‘lsun,
Xirom etkim, ayog‘ing ostida boshim g‘ubor o‘lsun.

Mani, ey sho‘x, tig‘i noz ila ko‘ying aro o‘ltur,
Aning tirnog‘ig‘a qonim hinosidin nigor o‘lsun.

Quyosh ko‘zgusini husnungg‘a tashbyeh ayladi gardun,
Yuzungni ro‘baru qil, ora yerda sharmisor o‘lsun.

Sochi savdosidin oshuftahol o‘ldum, kel, ey mutrib,
Navo qil har nafas – jon rishtasi sozingg‘a tor o‘lsun.

Chaman shohidlarig‘a gulshan ichra chehra ko‘rguzkim,
Giribonini gul yuz chok etib, bulbul hazor o‘lsun.

Birav ishqida rasvoliqda tobdim e’tibor, al-Haq,
Mani tark aylagin yor oldida noe’tibor o‘lsun.

Shahi davron amir ul-muslimin Sayyid Umar Sulton,
Binoyi davlati, yo Rab, hamisha ustuvor o‘lsun.

Jahon boricha iqbolu saodat borgohida,
Falak mahkumu davlat hamnishinu baxtiyor o‘lsun.

Duo injularini chekti silki nazm aro Fazliy,
Bu gavharlar nisori maqdaming, ey shaxsuvor, o‘lsun.

* * *

Ul pari paykarki, majnunman ani savdosidin,
Bir boqib holimni so‘rmaz o‘ldum istig‘nosidin.

Har necha mahkam edi sabrim binosiga asos,
Qolmadi obod hijron xaylini yag‘mosidin.

Qoshlari yoyig‘a qurbon erdi ko‘nglum nogahon,
G‘amza paykoni qadaldi nargisi shahlosidin.

Yor azmi gulshan etti, bordi keynidin raqib,
Umr borgandek shitob aylab o‘lum arqosidin.

Xo‘blar mehrini tark et, dema, ey nosih, manga,
Telba o‘lgaymu parilar ishqini da’vosidin.

Dog‘ ila dardim ko‘nguldindur biri, jondin biri,
Bu ikki mehnat manga mundin biri, ondin biri.

Nola qilmasman bu boisdinki, gar cheksam alam,
Qolg‘udek ermas bu to‘qquz charxi gardondin biri.

Bog‘i rizvonu Eram gulzorini sayr aylasam,
Ravzai ko‘yingdek ermas yuz gulistondin biri.

Xurram ermas navbahori orazing gulzoridin,
Yuz tarovat birla sakkiz bog‘i rizvondin biri.

Gavharu marjon nisori maqdaming etdimki, bor
Ko‘zda yoshimdin biri, bag‘rimdagi qondin biri.

Aylaram har shom yuz faryodu afg‘on to sahar,
Sanga yetmas, lek bu faryodu afg‘ondin biri.

Jonu dil, hushu xirad bir umrdur aylab tapish,
Tobmadi maxlas bu ko‘zu qoshu mijgondin biri.

Ko‘zlarim bir umrdur oyina yanglig‘ intizor,
Ko‘rmadi ul mohni bul ikki hayrondin biri.

Adl oyin etmadi Fazliy Umar sulton kabi,
Qaysar-u Iskandar-u Fag‘fur-u Xoqondin biri.

* * *

Ul oykim, o‘q etib paykonlarini xoka do‘ndurdi,
Yog‘in deb tuxmtin bu diydai namnoka do‘ndurdi.

Chu surdi tig‘i kin ushshoq jismi o‘rtadi go‘yo,
Inonin barqi lomye’ xirmani xoshoka do‘ndurdi.

Magar zohid xabardor o‘ldi jomi may safosidin,
Qo‘pub mehrobdin ro‘yi irodat xoka do‘ndurdi.

Belu og‘zing asrorin bilmayin sari mo‘ye,
Xurdadonu mudaqqiqlar qoldilar qilu qol ichra.

Manga obi hayvon jomi Jamdin ortuqdur,
Bersa dayr aro soqiy durdi may sopol ichra.

Garchi she’r bazmida lof urar erdi Fazliy,
Ko‘rdi bir g‘azal shohdin qoldi infiol ichra.

* * *

Husn aro ul oydek ermas mahliqolardin biri,
Mandek ermas mubtalosi mubtalolardin biri.

Qayda Majnun o‘ldi g‘ofil erdi Layli itlari,
Yo‘q edi boshida yoru oshnolardin biri.

Berma nisbat yor qaddin sarv ila shamshodg‘a –
Kim, qabul etmas bu ma’nida rasolardin biri.

Sunbuli zulfungni mushki Chin demishmen shavqdin,
Bu erur ishqingda man qilg‘on xatolardin biri.

Ko‘ngul olmoqda saningdek sho‘xi shahroshub emas,
Mohtal’at, sarvqomat dilrabolardin biri.

Xo‘bro‘lar bevafodurlar, ey jon ofati,
Sen erursan husn aro ul bevafolardin biri.

Soldi hijron shahnasi boshimg‘a turluk mojaro,
Jon talashmoqda manga ul mojarolardin biri.

To‘tiyu qumri navo qilg‘onda sulton madhida,
Bulbul erdi ul chamanda xushnavolardin biri.

Gar desam Fazliy Umar sultong‘a quldur shohlar,
Aylamas inkor anga farmonravolardin biri.

* * *

Dahr bog‘i bevafodur ne uchun, ey andalib,
Ko‘ngul uzmassan bu gulshanni guli ra’nosidin.

Shayx zuhdidin malul erdim, xusho, piri mug‘on,
May bila qutqardi ul iblisni savdosidin.

* * *

Ko‘ngul dog‘in dedim ishq ibtilosidin nishondur bu,
Ko‘zum aydiki, mandin sachragan bir qatra qondur bu.

Tanimda ko‘r o‘qung zaxmini, ko‘b qilma taajjubkim,
Erur ul dard tog‘i, g‘am qushig‘a oshyondur bu.

Qadalgan novakingni chekma ko‘ksum zaxmidin o‘lmay,
Nedinkim, notavon jismim aro ruhi ravondur bu.

Hujum xatti g‘uborin la’lidin so‘rdum, kulub aydi,
Badaxshon mulkig‘a kelgan Xitoyi korvondur bu.

Dedim, zulfung na yuzdin orazingda pechu tob aylar,
Dedi, o‘t shu’lasida iztirob etgan yilondur bu.

G‘amingda bu sarig‘ ruxsor ila andog‘ zaif o‘ldum,
Gumon aylar mani ko‘rgan kishi bir parsimondur bu.

Degay ahboblarg‘a o‘qugan lavhi mazorimni,
Shahidi novaki bir dilbari abro‘kamondur bu.

Agar g‘am lashkaridin bo‘lsa maqsudung amon tobmoq,
Xarobot ichra manzil aylakim, dor ul-amondur bu.

G‘urur etma nasab piroyasig‘a, hosil et ma’ni,
Na sud andin degaylarkim, falon ibni falondur bu.

Xirad ahli junun ko‘yida ahvolimni ko‘rganda,
Demishlar oshiqi devona husni falondur bu.

Taarruz aylama, ey muddaiy, Fazliy kalomig‘a,
Radifi shohbayti xusravi sohibqirondur bu.

* * *

Chiqti tun kesh bo‘rkini egri qo‘yub qosh ustina,
Shamdek o‘tlar tutashti shavqidin bosh ustina.

Gar tazallum zohir etsam, solma chin qosh ustina,
Surma gavhar mavjidek tig‘i g‘azab bosh ustina.

Ikki zoim qoshlaring bosh indirub qatlim uchun,
Ro‘baru o‘lturdilar bir-birga kengosh ustina.

Baski gulgun to‘n kiyib, raxsh uzra javlon aylading,
Qon o‘lub chiqti jigar pargolasi bosh ustina.

Ko‘zni husnung xonidin ko‘z yoshi qildi benasib,
Bo‘lsa betole’ yetim, burni qonar osh ustina.

Notavon ko‘nglumda g‘amlardur sanamlar javridin,
Qo‘ydilar yuz tog‘ni bir dona xashxosh ustina.

Tiyra dillarga jamoling tobidin yuz xiyralik,
Javr o‘lur xurshid partav solsa xuffosh ustina.

Yor qattig‘ ko‘ngli ashkimdin muloyim bo‘lmadi,
Sud qilmas har necha yamg‘ur yog‘ar tosh ustina.

Shahsuvorekim, erur ko‘k toqidin kursi anga,
Sahl himmatdur agar o‘ltursa Ko‘ktosh ustina.

Shohlardur xirmani ehsonidin ummedvor,
Ore, har yerda gadolar g‘ur etar chosh ustina.

* * *

Tilarmen telba ko‘nglum o‘rtadi hijron samuminda,
Manga hamdam emas g‘am shomida savdo hujuminda.

Agar ishq ichra yuz tig‘i baliyat kelsa bosh uzra,
Anga taslim erur shoyista oshiqlig‘ rusuminda.

Vafo ko‘z tutma, ey bulbul, bu gulshan gullarindinkim,
Giyohi mehr nopaydodur olam marzu buminda.

Sochingdek sunbuli mushkin, yuzing yanglig‘ guli nasrin,
Na xoqoni Chinu Mochinda, na Qaysarda, na Ruminda.

Raqibimdin shikoyat aylasam , ey moh, tund o‘lma –
Ki, hijron axtari ko‘rdum ani ruxsori shuminda.

Labi jonbaxshidin el orzusi bo‘lsa jon tobmoq,
Manga bu orzu basdurki, jon bersam quduminda.

Yuzung oyidin ayru ko‘zlarim qon to‘kti bu oqshom,
Munajjim fitna osorin ko‘rar ashkim nujuminda.

Magar ishq ahlina qilg‘on jafolardin pushaymonsen,
Bu mazmun o‘ldi ravshan sabza xatting ruquminda.

Qila olg‘oymu Fazliy bu g‘azalda shahg‘a payravlig‘,
Falotun aqli hayrondur Umar sulton uluminda.

* * *

Orazing tamannosi tushgali xayol ichra,
Bordur, o‘ylakim, gohi Kun tushar zilol ichra.

Girdbodi sahroyi mehnat firoq o‘lg‘ay,
Har kishiki shukr etmas davlati visol ichra.

Ki yuzung tilar ko‘nglumki kamandi zulfungni,
Qilmisham kashokashda man bu mohu sol ichra.

Egnidin yashil xil’at yerga urdi xijolatdin,
Sarv ko‘rdi qaddingni to qaboyi ol ichra.

MAXMUR

Maxmur (Mahmud) – o‘zbek satirik shoiri. Qo‘qon shahri Sarmozor dahasidagi Shohliq Mozor mahallasida tavallud topgan. Uning tug‘ilgan va vafot etgan yillari aniq emas. Qori Qunduziy “Tavorixi manzuma” (She’riy ta’rixlar) asarida Maxmurning 1844-yili Qo‘qon hukmdorlaridan Sheralixon vafotiga bag‘ishlab yozilgan she’riy ta’rixini keltiradiki, bundan Maxmurning shu yillari hayot bo‘lgani anglashiladi. Shoir va olim Mullasher Muhammad Akmal o‘g‘li. Uning asl ismi Mahmuddir. “Maxmur” – “xumor bo‘lgan”, “ilohiy ishqdan mast bo‘lgan” degan ma’nolarni anglatadi.

Maxmurning otasi Shermuhammad a’lam o‘z davrining e’tiborli ziyolisi va mudarrisi bo‘lishdan tashqari, iste’dodli shoiri ham bo‘lgan. U“Akmal” taxallusi bilan ikki tilda ravon she’rlar yozib, devon tartib bergan. Maxmur ham juda erta yoshidan she’r yoza boshlagan. Qo‘qondagi madrasai Mirda otasi va Muhammadya’qub Oxund qo‘llida ta’lim olgan. Umarxon qo‘shinida xizmat qilgan.

Mahmud avval Mahmud Maxdum, so‘ngroq taxallusiga ko‘ra, Maxmur Mahdum nomlari bilan taniladi.

XX asrning 50-yillarigacha Maxmuming “Majmuai shoiron”da keltirilgan beshtagina g‘azali (“Hapalak”, “Tarog‘” radifli va boshqalar) hamda Qori Qunduziyning “Tavorixi manzuma” asaridagi ba’zi ta’rix she’rlarigina ma’lum edi, xolos. Adabiyot tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimlar Maxmurning shaxsiyati, ijodi haqida shu sanoqli she’rlar asosidagina fikr yuritardilar. 50-yilar boshlarida qo‘qonlik tazkirachi olim Po‘latjon domulla Qayyumiy hamda aruznavis shoir Asg‘arali Charxiyning sa’y-harakati bilan Maxmurning 69 ta she’rini (3417 misra) o‘z ichiga olgan qo‘lyozmasi topildi. Unda g‘azal, muxammas, masnaviy shakllarida yozilgan hajviy asarlar mavjudligi ma’lum bo‘ldi. O‘sha yillari yosh tadqiqotchi bo‘lgan bo‘lajak akademik Azizxon Polatjon domulla o‘g‘li Qayumov Maxmuming yangi topilgan qo‘lyozmasi ustida akademik V.Zohidov rahbarligida tadqiqot olib bordi. 1956-yili uning tadqiqot va matnlardan iborat “Maxmur” nomli kitobi nashr etildi. Bu kitobning I qismi Maxmur hayoti va ijodi, ikkinchi qismi she’rlaridan iborat. Maxmur zullisonayn shoir bo‘lgan. Uning hajviy asarlari ichida fors-tojik tilida yozilgan, ba’zan o‘zbek-tojik tillarida shiru-shakar (mulamma’) usulida bitilgan she’rlari bor. U Turdi kabi shoirlar an’analariga ergashib, hamma she’rlariga asar mazmuniga ishora qiluvchi forscha nomlar qo‘ygan.

O‘tar o‘tgan kabi, hech kelmaganga g‘am yemang zinhor,
Tutung emdi g‘animat ushbu damni, dam bu dam ermish.

Falakdin shikva etma, izla, Uzlat, gavhari maqsud,
Huboboso jahon bahri uza ul ham adam ermish.

***

Solib ziynat uchun mashshota zulf uzra tarog‘ini,
Ko‘ngul choki bila gul topmadi sunbul so‘rog‘ini.

Magar yorimni kelgay deb tajammul birla bog‘ ichra,
Chaman shohi yasab gul jinsidin tuhfa yarog‘ini.

Nigorim tunda bazm aylarg‘a ko‘nglin ayladi moyil,
Falak anjumlaridin yondurur har yon charog‘ini.

Vafo bazmida may o‘rnig‘a ichmakdur yurak qoni,
Itob-u mastliq birla nega ochmas qabog‘ini?

Visoli gulshanig‘a orzu birla kiray desam,
Aning hijroni boshimg‘a ko‘toribdur tayog‘ini.

Bu za’f ila visoli Ka’basig‘a yetmog‘im mushkil,
Firoqi dashti birla na deyin yo‘lni uzog‘ini.

Bilibon lola qochti dasht uza, gul bag‘ri qon bo‘ldi,
Jafosi o‘rtagan Uzlatni g‘amliq bag‘ri dog‘ini.

***

Soqiyo, lutf ayla, to‘ldur boda birla jomni,
To chiqorg‘ayman ko‘nguldin kulfati ayyomni.

Jur’a no‘sh aylab visoli orzusi bazmida,
Mastliqdin bilmag‘ayman subh birla shomni.

Hajr dashtida etib devonalig‘ni ixtiyor,
Tashladim tandin libosi nang birla nomni.

Jilvasini yod etib gulshan aro siymobdek,
Topmadim qargiz koʻngulda sabr ila oromni.

Suv berib ashkim nami birla vujudim bogʻigʻa,
Koʻzlari fikrida tiktim donai bodomni.

Ishq dashtini yoʻli garchi uzogʻ-u ham maxuf,
Yor vasli kaʼbasigʻa bogʻladim ehromni.

Olam ichra bu tiriklik uyqu ermish yo xayol,
Tark etgil, ey koʻngul, shodu gʻami avhomni.

Bulbuloso nola et, Uzlat, koʻngulni bogʻida
To sabo yetkursa vasli yordin paygʻomni.

***

Tangʻa edi ruhbaxsh lutfi takallumlari,
Jongʻa toʻkub shahdlar labda tabassumlari.

Hajrida kuygan koʻngul nega figʻon etmasun,
Shafqatidin koʻp edi manga tarahhumlari.

Ishqida boʻldum ado, men kabi yoʻq benavo,
Koʻz yoshim oldida kam bahr talotumlari.

Tundagi faryodima, xotiri neshodima,
Yigʻladi ahvolima charxni anjumlari.

Vasli mayi bazmigʻa emdi qachon tenglashur,
Toʻlsa agar bodadin yetti chalak xumlari.

Uzlatiyni nolada koʻrsa agar andalib,
Soldi xijolat aro sozu tarannumlari.

Ey xaloyiq, duo aylang bu shahri odobigʻa,
Har qayu yerga Sadoyidek durri afshondur Xoʻqand.

***

Oh deb ovora boʻldim, yor bilmaydur hanuz
Dod etay men kimgʻa ahvolimni soʻrmaydur hanuz.

Dudi ohim barq urub har dam falakni sahnida
Bu aziz jismim kuyub kul boʻldi kelmaydur hanuz.

Jon chiqar vaqtigʻa yetdi telmurub bu koʻzlarim
Ul kelib bir dam mani qoshimgʻa turmaydur hanuz.

Ul paridur yo malak yo hur yo gʻilmon erur
Gohlar boʻlsa kelib kuyumda yurmaydur hanuz.

Umrini xush oʻtkarib bir necha yaxshilar bilan
Biz yomonni yo magar koʻziga ilmaydur hanuz.

Bir biriga har kishi aylar tavozeʼ ham adab
Odamylig‘ rasmini yo yor bilmaydur hanuz.

El koʻrubdur oshkoro xanjari xunrezi bor
Chiqsa jonim koshki koʻksimgʻa urmaydur hanuz.

Yor aytur xalqi olamni borin qatl ayladim
Bir mani deb bu Sadoyi nega oʻlmaydur hanuz.

Ta’rifi Xo‘qand

Shukurulloh aytayluk, ne’mat farovondur Xo‘qand,
Har mato‘yi jumla ashyolardurki arzondur Xo‘qand.

O‘ngu-so‘ldin kelsa olam halqi har atorofdin,
O‘ziga ziynat berib, bir shod-u xandondur Xo‘qand.

Tojik-o‘zbak demas, barcha barobar bilsangiz,
Xush musofirparvar, lutfi farovondur Xo‘qand.

Har g‘arib-u hastalar kelsa bu Xo‘qand shahrig‘a,
Ochligidin g‘am yemaslar, xirmoni nondur Xo‘qand.

Soqlasin dushmandin qodiri parvardigor,
Necha yillardin beri hush ayshi xandondur Xo‘qand.

Aql hayron, taajjubdur aning bozorig‘a,
Jannati Firdavs yanglig‘ misli Rizvondur Xo‘qand.

Keladur har dam dimog‘img‘a mani bo‘yi behisht,
Soya-i salqin ajoyib, bog‘u bo‘stondur Xo‘qand.

Odamiysi odamiylik rasmini chandon bilur,
Zikr qilib o‘rgan, bari har qaysi insondur Xo‘qand.

Har kishiga hayr etarlar xotiri xolis bilan,
Suv desa sharbat berur, kim ko‘rsa hayrondur Xo‘qand.

Holi ermas har birisi hayrdin ey xosi-om,
Mardumi ozada-i kosibi dehqondur Xo‘qand.

Har birisidur aning alloma-i vaqti jahon,
Amri ma’ruf qilsalar bisyor mardondur Xo‘qand.

Podshohidur adolat ba ro‘yi ja’riyi Nabiy,
Beva-i bechoralar dardiga darmondur Xo‘qand.

Ma’odin ilmi adab misli Buxoroyi Sharif,
Jumla-i yoronlari hofizi Qur’ondur Xo‘qand.

MA’DAN

Ma’dan XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida yashab ijod etgan. U o‘zining barakali ijodi bilan o‘zbek va tojik adabiyoti tarixida munosib o‘rin egallaydi.

Shoirning asl nomi Odinamuhammad bo‘lib, Ma’dan uning adabiy taxallusidir. U 1761-yilda Pang‘oz qishlog‘ida (hozirgi Tojikiston, Asht tumani) dunyoga keldi. Ma’dan dastlabki ma’lumotni o‘z qishlog‘ida oladi, so‘ngra bilimini oshirish maqsadida Punuk qishlog‘iga kelib, Muhammad Aminxo‘ja ismli olim va fozil kishiga shogird tushadi. Punukda qisqa muddatli tahsildan so‘ng u yana o‘z qishlog‘iga qaytib keladi va ota kasbi – dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ayni vaqtda Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Hiloliy, Bedil va boshqa mumtoz shoirlar ijodlarini qunt bilan o‘rganadi.

Ma’dan ijodida satirik yo‘nalish yetakchi o‘rin egallaydi. Shoir o‘z zamondoshlari Maxmur va Gulxaniylarga ergashib o‘tkir hajviy asarlar yaratdi. Shoirning she’riy asarlari ayrim tazkiralarda, masalan, Fazliyning “Majmuai shoiron”ida, Po‘latjon domulla Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy”, 1908-yilda Toshkentda nashr etilgan bayozda mavjud. 1962-yilda shoir tug‘ilgan qishloqda uning bir necha she’riy devonlari borligi aniqlandi. Bu yerda biz ana shu devonlarga kirgan she’rlardan ayrim namunalar beramiz.

G‘AZALLAR

Boda tut, soqiy, rahi mayxona ko‘rguzgil manga,
Barqi istig‘noyi ishrat yona ko‘rguzgil manga.

Charxdin kom istamak ermas bani odamga qurb,
Muttaqoyi ishqdin afsona ko‘rguzgil manga.

Vodiyi hijrona chekkan ranjdin o‘lmam malul
Suhbati chug‘z istaram vayrona ko‘rguzgil manga.

To nuzul o‘ldum, qadahdin dayr aro bo‘ldum xumor
Soqiyo, rahm aylagil paymona ko‘rguzgil manga.

Qatrai ashkimni to‘foni jununsoz aylagil,
Ma’rifat daryosidin durdona ko‘rguzgil manga.

Shomi hijron uzra ko‘nglum zohiri ermish xomush,
Shohsori subhdin uyg‘ona ko‘rguzgil manga.

Har qachon bazm ahlidin qat’i taalluq aylaram,
Bori g‘amdin sog‘ari rindona ko‘rguzgil manga.

Ishqdur, Ma’dan, rafiqim vaqti g‘am tug‘yonida,
Paykarim uryoni g‘am parvona ko‘rguzgil manga.

* * *

Avvalo g‘am loyidin jismimni ijod etti charx,
G‘amga xo‘ qildim dog‘i yuz qatla g‘ambod etti charx.

Nola ta’sir etmadi tuzdum tazarru’ torini,
Ul tazarru’ uzra yuz ming zulmu bedod etti charx.

Bir necha ag‘yordin sirrimni ixfo asradim,
El aro rasvolig‘im tahriri bunyod etti charx.

Talx komim o‘lmayin Shirin mazoqi la’lidin,
Xusravi Parvizdek xasmimni Farhod etti charx.

So‘rmagondin bul mani ul mehribon yor qaydadur,
Bul aziz jismim kuyub bo‘ldiki nosoq o‘zgacha.

Bilmadim hargiz ani man do‘st yo dushmanlig‘in,
Ayladi bir so‘z birla bizga shiltoq o‘zgacha.

Bir sabablar birla kelg‘on oldig‘a mehmon edim,
Man ketarman, ul bo‘lur bul erda qolmoq o‘zgacha.

Jon fido aylar agarchi har kim ul jononag‘a,
Vu Sadoyi kunda ming bo‘ldiki mushtoq o‘zgacha.

* * *

Sani yodingda man yig‘lab, ayo ey dilbari jonim,
Agar aytsam ado bo‘lmas, ki bu dardi farovonim.

Judolikda bo‘lib Ya’qub, bu mehnat bobida Ayyub,
Davosini tilarman, aylagil dardimg‘a darmonim.

Topilmas xoki poying ko‘zlarimg‘a to‘tiyo qilsam,
Eram bog‘ida bitgan bul ajab sarvi xiromonim.

Yaqin bo‘ldum kuyub o‘lmoqg‘a, jono, bilmading hargie„
Nechuk sharh aylamay etsun sanga bu rozi pinhonim.

Eshikingga bo‘lub soil sanga ko‘p iltijo aylab,
Ulug‘ daryo bo‘lub oqg‘on mani bu chashmi giryonim.

Rizodurman qarig‘onda shahid etsang Sadoyini,
Yarashur oq soqolimdan agar oqsa qizil qonim.

Sadoyi bu junun birla bo‘lub giryonu ham nolon,
Chiqorur o‘tlarin har masjidu mayxonag‘a kirsa.

* * *

Yorni ko‘rdum ajab gullar ochilmish boshida,
Bu sababdin bulbuli sho‘rida bo‘ldim qoshida.

Yo muazzin har zamonkim aylasa bongi namoz,
Sajdagohim naqshi mehrobimni ko‘rdum qoshida.

Dog‘ etib bir kun mani qadrimni hargiz bilmadi,
Oshno bo‘ldum na uchun dilbarimni qoshida.

Muncha ko‘p aylab raqiblar birla doim maslahat,
O‘lturur oxir mani ul bo‘lmadi kengoshida.

Bir umed aylab edim borib ko‘ray deb yorni,
Boqmayin ketti, qarab qoldim uyini toshida.

Manga mundog‘ nasiba kunda ming obi azob,
G‘arq bo‘lmas na sababdin bu ko‘zumni yoshida.

Dam urolmas bu Sadoyi yordin aylab ibo,
Sharh etolmas hasbi holin har kishini qoshida.

* * *

Barq urub ul dilrabo boshida qolfoq o‘zgacha,
Belida zarrin kamar, egnida mursoq o‘zgacha.

Goh kiyib kimxobu atlas, goh kiyib gulgun qabo,
Ushbu holat birla bo‘ldi manga o‘rtoq o‘zgacha.

Necha kunlar bo‘ldi hargiz bilmadim jononani,
Bir maningdek bo‘lmag‘ay olamda mushtoq o‘zgacha.

Shohidi jomi nishotim soz edi may bazmidin,
Sindurub may zarfini ko‘nglumni noshod etti charx.

Kunda yuz ming jabr ila zulm etmakin, ey do‘stlar,
Bilmanam po‘shida kimdin o‘rganib, yod etti charx.

Qildi ta’zirim mening xursheddek gardun aro,
O‘ldururg‘a vaz’ining qatlimg‘a jallod etti charx.

Bul tiriklik domidin bo‘ldim sivo, ming shukrkim,
O‘ldurub g‘am ilkidin Ma’danni ozod etti charx.

* * *

To xusumat raxshini dahr uzra javlon etti charx,
Bevafoliq rasmini xublarg‘a farmon etti charx.

Oyu kun, anjum, malak, sonsiz kavokib xaylining,
Iztirob ila falak toqinda sarson etti charx.

Ko‘k aro Isr tajarrud, er uza ovora Xizr,
Har kimi bir nav’ men yanglig‘ parishon etti charx.

Ko‘b fusun naqshin chekib har dam sipehr ayvonig‘a,
Yuz tuman makri ila taklifi mehmon etti charx.

Go‘starib hayrat bisotin tarhi gardun uzrakim,
Shomi zulfin ko‘rsatur tun husnini qon etti charx.

Boda bazmin tarqatib mahfilim jam’iyatin,
Lashkari anduh ila toroju tug‘yon etti charx.

Umr poyoni vido‘ etti safar raxtin tuzub,
Bu fano bozoridin naqdimni toroj etti charx.

May chekib dildor ila jom erdi, Ma’dan, ulfatim
O‘t yoqub mayxonama o‘tlug‘ nayiston etti charx.

* * *

Muanbar kokulingni mushk birlan g‘ola yozmishlar,
Labingga uqday kofurdin buthola yozmishlar.

Muqaddar munshilar arbobi husning mushafi uzra
To‘lun oy jadvalig‘a sun’ birlan hola yozmishlar.

Pari gulchehralar tumori tasxiri aloyiqdur,
Fusun ahli qiyomat nasridin timsola yozmishlar.

Na yanglig‘ qona tabdil rang olibdur kifriking o‘qi,
Yuraklar porasidin anga yuz parkola yozmishlar.

Emasmu mazhabi ishq ichra joyiz Ko‘hkan shavqi,
Ki lavhi Besutun satriga tarhi lola yozmishlar.

Ko‘ngul purg‘am, yurak obila hamdam ko‘zda yoshim qon,
Sango husn-u latofat, manga oh-u nola yozmishlar.

Shabi ohimdin onjoq Ma’dan o‘ldi tiyra gardunkim,
Sirishkimdin taqi kim Shomu Chinni ola yozmishlar.

G‘AZALLAR

Latofat bo‘stonida sanidek yor kelgaymu?
Jahon g‘amxonasi ichra manidek zor kelgaymu?

Yuzingni ishqida man benavodek, ey shahi xubon,
Alamdin siynasi majruh, yurak afgor kelgaymu?

Qurub majlis tutub sog‘ar tamom elini kuydurgon,
Ichib maydin bo‘lub mast, ko‘zi xummor kelgaymu?

Tamomi avvalu oxir sani hoziq tabib derlar,
Yurub darmon topolmay, man kabi bemor kelgaymu?

Jamoling ko‘rmayin, jono, qolib hasrat bila g‘amda
Aziz jondin jahonda man kabi bezor kelgaymu?

Saningdek nozanin shoyad mani hajrimda o‘lgan deb,
Baland bo‘lg‘an mozorim qilg‘ali hamvor kelgaymu?

Munodiylar qilib doim jahonni izlasam tinmay,
Sadoyidek g‘aribu xasta beg‘amxor kelgaymu?

* * *

Bo‘lub masti junun oshiq agar mayxonag‘a kirsa,
Bo‘lur albatta ul obod agar vayronag‘a kirsa.

Ki oshiq ishqidin qilsa agar har qaysig‘a noshir,
O‘zin tutmay urar o‘tg‘a agar parvonag‘a kirsa.

Qadamni qo‘ysa oshiqlar agar butxona sorig‘a,
Hama butlar qilur sajda agar giryonag‘a kirsa.

Junun ahlini ayb etmang, ki bu devonalig‘ birla,
Chiqib Eron-u To‘rondin agar Farg‘onag‘a kirsa.

Hama ushshoq eli birdan takallum aylasa nogoh,
Qolur zohid eli hayron agar afsonag‘a kirsa.

Badiiy barkamollik jihatidan Sadoiy she’riyati o‘z davrida yuksak e’tirofga loyiq bo‘lganidek, bugungi kunda ham aslo qimmatini yo‘qotgan emas.

MUXAMMAS

Kima sho‘ri junundin ranji nuqson o‘lmasun, yo Rab,
Man o‘ldum g‘am asiry hech inson o‘lmasun, yo Rab,
Boshi charxi falak go‘yinda chavgon o‘lmasun, yo Rab,
Quyundek g‘am biyobonida sarson o‘lmasun, yo Rab,
G‘ariqi bahri hayrat mahzi hijron o‘lmasun, yo Rab,

Bu foniy dahr aro el ko‘rmagan mehnatni man ko‘rdum,
Na tamkini farog‘at, na halovoti vatan ko‘rdum,
Na sayri lolau bog‘u tamoshoyi vatan ko‘rdum,
Na gulgashti biyobon, nakhati rangi suman ko‘rdum,
Nakim bag‘rida mandek dog‘i hijron o‘lmasun, yo Rab.

Guli bog‘i nishotim so‘la o‘xshar dahr bog‘inda,
Ki qumri gul yaqosin yozadurmish davr oyog‘inda,
Topib, anjoq ziyoe ya’s kulbam g‘am charog‘inda,
Ketib aqlim manim ovoradur ko‘nglum so‘rog‘inda,
Qayu inson bu yanglig‘ zoru hayron o‘lmasun, yo Rab.

Solib mehri falak jonimg‘a yuz mahshar alomoti,
Qayon borsam boshimdin kam emasdur g‘am baliyoti,
Manga har nav’ davron ko‘rsatur rangi adovoti,
Tuganmas zarrae bir umr gar qylsam shikoyoti,
Nakim mandek Qatili tig‘i hijron o‘lmasun, yo Rab.

Falak vojun, zamon ahli zabun, shoh iltifoti kam,
Tanim majruh, hijron xanjari dil chokina marham,
Makonim qo‘hi mehnat, hamdamim – oh-u, rafiqim – g‘am,
Na ma’kule muqarrar mazrai rizqim uza marqam,
Maishat oz, muncha g‘am farovon o‘lmasun, yo Rab.

Mani atvori zishtim aylagach dun ahlig‘a muhtoj,
Shukuhi fitratim mulki tama’din bo‘lmadi ixroj,
Kelanda shomi furqat bo‘ldi ayyomi tarab toroj,
Qani ohi muassir fath uyina yong‘ali minhoj,
Ki miftohi ijobat lavhin pinhon o‘lmasun, yo Rab...

Mashaqqat cho‘x, farog‘at yo‘x, alam behad, fig‘on afzun,
Ichim g‘amliq, yurak dog‘lik, yuzim soriq, ko‘zim purxun,
Tunum zulmat, kunum mehnat, boshim charx uzra chun gardun,
Qilur nafrin bu yanglig‘ izzatimga Vomiqu Majnun,
Jafo har qancha mushkil menga oson o‘lmasun, yo Rab.

Kuyib kul bo‘ldi hijron sham’idek ejod o‘lub Ma’dan,
Fano bo‘lg‘ach sovurdi axgarin g‘ambod o‘lub Ma’dan,
Halovat jomidin shod o‘lmadi dilshod o‘lub Ma’dan,
Qazo jomin ushotti jur’ati Farhod o‘lub Ma’dan,
Bu rasvolig‘da bag‘rim loladek qon o‘lmasun, yo Rab.

SADOYI

Qo‘qon adabiy muhitining iste’doli vakillaridan biri Mulla Mir Hasandir. Sadoyi uning adabiy taxallusi. U XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlarida Qo‘qonda yashab ijod etgan. Shoira Dilshod Barnoning “Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) asaridagi ma’lumotlarga qaraganda, Sadoyi 1820-yillarda vafot etgan. Sadoiy haqida ma’lumotlar Po‘latjon domulla Qayumiyning “Tazkirai Qayumiy”, A.Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti”, A.Turdaliyevning bir necha maqolalarida uchraydi. Adabiyotshunos olima Muhitdinova Nazmiya Muslihiddinovna G‘oziy va Sadoiylar ijodi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini yozgan.

Sadoyi o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan Lutfiy, Alisher Navoiy, Mashrab, Huvaydo, fors-tojik adabiyotidan Hofiz Sheroziy adabiy an’analarini davom ettirib, ularning asarlariga naziralar bitgan, g‘oyaviy hamovozlik qilgan.

Sadoyi hazrat Huvaydoning avlodlaridan bo‘lib, Chimyonda tavallud topgan. Xo‘qand madrasalarida tahsil olib, uzoq yillar Chitgarlik mahallasida istiqomat qilib, Mingoyim madrasasida dars bergan. Keksaygach, Chimyonga qaytib, taxminan 1810-1812-yillarda vafot etgan.

Mirhasan Sadoyi – sohibdevon shoir. Uning devoni birinchi marta Toshkentda 1916-yilda G‘ulomhasan Orifjonov litografiyasida nashr etilgan. She’rlarida ishq, do‘stlik, axloqiy fazilatlar, ilm-ma’rifat kuylangan, ijtimoiy nohaqliklardan shikoyat qilgan.

Mirhasan Sadoiy XVIII asr boshlaridayoq turli shakl va yo‘nalishda rivoj topgan sermahsul Qo‘qon adabiy muhitida shakllandi. Shoirning o‘zi masnaviysida e’tirof etganidek, u Oxuniy, Boboi Sha’ro, Nozil, Ravnaq, Nozimi Komil, Fazliy, Sayyid Davoiy va Huvaydo yaratgan adabiy merosdan bahramand bo‘ldi. U o‘ziga zamondosh shoirlar kabi milliy adabiyot taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shdi, hayotda faollik qildi. Inson va jamiyatni shariat va tariqat vositasida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan shoirlar qatorida ijod qildi. O‘z zamondoshlari Huvaydo, Maxmur kabi shoirlarning mashhur asarlari, devonlaridan xabardorlik Sadoiyni o‘z she’rlarini yig‘ib, devon tuzishga ilhomlantirdi.

Sadoiy devonidan olti janrdagi – 209 g‘azal, 9, 7, 8 banddan iborat uch murabba’ turkumi, 9 muxammas (shundan 3 tasi marsiya-muxammas), 14 banddan iborat bir musabba’, 1 qit’a va yagona sharhi hol masnaviy o‘rin olgan.

G‘AZALLAR

Sabo, yetkur menga aknun xabar ul guluzorimdin,
Vafo rasmini hargiz bilmayan mahvash nigorimdin.

Qarodur baxtim onjoq subhi vaslingdin dushub ayru,
Ki kasb aylar savodin shomi hijron ro‘zgorimdin.

Uzoridin solib burqa’, surub noz abrashin urdi,
Na nom-u na nishon qoldi meni sabr-u qarorimdin.

Kecha to subh o‘lanja g‘ayr ila sarmast, men g‘amgin,
Umidim bul emaz erdi o‘shal ko‘zi xumorimdin.

Yuzung bo‘lsun qaro baxtim kabi, ey charxi kajraftor,
Judo qilding meni bir davr ila yoru diyorimdin.

Ado bo‘ldum beli fikridau, og‘zi xayolida,
Qani bersa xabar bir yor mushfiq yo‘x-u vorimdin.

Yaqosin chok etib har tun boshimda so‘z ila yig‘lar,
Bo‘lak yo‘qdur menga dilso‘zroq sham’i mazorimdin.

Agar yig‘lar esam bir lahza ruxsorini yod aylab,
Iki olam kedar seloba ashki shash qatorimdin.

Meni bir charx birla, ey quyun, jonimg‘a minnat qo‘y.
Inondur yorimi o‘lmog‘ima mushti g‘uborimdin.

Muhabbat tobidin otashgohdur paykarim, G‘oziy,
Falak xirmanlari o‘rtab bo‘lur kul bir sharorimdin.

***

Giriftor o‘ldi jon bir dilbari tovus raftora,
Vafo rasmini hargiz bilmayan sho‘xi sitamkora.

Jahon ahli na bilsun holimi yuz ko‘z bila gardun,
Junun dashtida majnun ko‘rmamishdur mendek ovora.

Maxmurning yuqoridagi majmuasidan tashqari, turli qo‘lyozma bayozlar, manbalar orqali Hofiz, Soib kabi shoirlar g‘azallariga yozilgan tazmin muxammaslari ham topildi.

Maxmur ijodi faqat satirik asarlardangina iborat bo‘lmay, balki u lirik she’rlar ham yaratdi. Hozirgi uning 10 ga yaqin lirik she’rlari topilgan. Ayniqsa shoirning tojik tilidagi yuksak mahorati, dilrabo asarlar yozish qobiliyati uning lirik asarlarida alohida yarqirab turadi.

Dar sifati qishloqi Hapalak ki ba maxdum Maxmur taalluq yofta (Maxmur maxdum aloqador bo‘lgan Xapalak qishlog‘ining sifatida)

Ey jahondori zafar, kavkabai davri falak,
Go‘sh qil qissai qishloqi xarobi Hapalak.

Turfa qishloqi g‘azab karda ki parrandalari,
Tovuqi ignachi-yu, o‘rdag-u g‘ozi kapalak.

Vor-u yo‘q uylarini banda bayon gar qilsam,
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to‘rt katalak.

Dema uy, balki zaminkandur agar kirsa kishi,
Har taraf betiga urgaylar aning ko‘rshapalak.

Xalqini ko‘rsang agar o‘lasiyu, qoq-u xarob,
Ochlikdin egilib qomati misli kamalak.

Ajirig‘ tomirini o‘g‘urida mayda tuyub,
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.

Gar tahorat qisa qavmi suv topolmay nochor,
Betini qum bila yub (ko‘zi)ga surgay guvalak.

Ey falak qadr-u adolat shiyami mulk-u malak.
Marhamat chog‘ida rahm ayla ba holi Xapalak.

Kecha go‘yo eshitib shuhrati tillo pulini,
Xapalak qo‘rqusidan uchdi misoli kapalak.

Himmating yo‘lida bir tepa karomat qilg‘il,
Kapalak boz qo‘nub joyiga bo‘lgay Xapalak.

***

G‘azali qozi Muhammad Rajab avj dar borai xud
(Qozi Muhammad Rajab Avjning o‘zi to‘g‘risidagi g‘azali)

Kelgil, ey ahbob, avval tarzi raftorimni ko‘r,
Ba’d davri gumbazi dastor davvorimni ko‘r.

Kimki dastorimni ko‘rsa o‘rni[din] qo‘rqub (turar),
Betahorat aylagan olamni murdorimni ko‘r.

Gohkim boshimga sallam o‘lmasa, ul dam qarab,
Rasmu rohi, to‘hmat-u shaltoq kirdorimni ko‘r.

Qozilikda jam’ kilgan pulni savdo aylasam.
Asfalasofil degan davrida bozorimni ko‘r.

To adamdin azmya dunyo ayladim yuz voy kim,
Qo‘ymadim olamda bir kun nafsi qahhorimni ko‘r.

Boshlanur boshi sabohi uyqudin to nim shom
Olti eshik, yetti teshik, non-u nondorimni ko‘r.

Bir magarmajmanki yuz ming ajdaho gar uchrasa,
Aylaram bir luqma devi jui ashrorimni ko‘r.

Garchi men qildim taxallus Avj yolg‘ondur hama,
Xalqning ostida qolgan baxti jabborimni ko‘r.

G‘oziy she’riyatida salaflari – Sa’diy, Hofiz, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Bedillar ohanglari, g‘oyalari yaqqol sezilib turadi.

G‘OZIY

G‘oziy – Muhammadg‘oziyning yashagan va ijod etgan davri taxminan XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning 20-yillariga to‘g‘ri keladi.

Shoir Buxoro madrasalarida tahsil ko‘rgan. Qo‘qondagi Madrasai Mirda mudarris, muftiy bo‘lgan. Akmal Xo‘qandiyning yaqin do‘sti. O‘zbek va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoirlardan biri bo‘lgan. Fuzuliyni o‘ziga ustoz bilgan. She’rlarining mazmuni bilan ham, dunyoga, atrof-muhitga munosabatini ko‘rsatishda, badiiy san’atlardan foydalanishda ham Fuzuliy yo‘li, uslubini qo‘llagan. Uning g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Ko‘proq lirik g‘azallar, ta’rix-she’rlar yozgan, devon tuzgan. Lirik she’rlarida inson qalbining kechinmalarini, orzu-istaklarini, quvonch va qayg‘ularini kuylagan, chin insoniy muhabbat, go‘zallik va sadoqat, insonparvarlik va adolatparvarlikni ulug‘lagan. G‘oziy she’rlari XVIII asrning II yarmi–XIX asr boshlaridagi ijtimoiy hayotning haqqoniy manzarasini ko‘rsatishga, adabiy hayotda mavjud bo‘lgan turli yo‘nalishlarning mohiyatini to‘laroq yoritishga xizmat qiladi. Ta’rix-she’rlari asosan ruboiy tarzida yozilgan bo‘lib, ko‘pchiligi shahar a’yonlari, yirik amaldorlarning vafotiga bag‘ishlangan. Didaktik mavzudagi asarlarida inson fazilatlarini yuqori tutish, hayotda kamtar bo‘lish, inson qadrini yerga urmaslik, o‘z qadr-qimmatini saqlash zarurligi ta’kidlangan. An’anaviy “shir-u shakar” usulida musaddas va mustazod-tarje’bandlar ham yozgan; mustazodlarining ayrimlari original usulda yozilgan.

G‘oziyning jami to‘rtta qo‘lyozma devoni bor. Ulardan uchtasi O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar institutida, bittasi esa RosR FA ShI Sankt-Peterburg bo‘limida saqlanmaoqda. Shoir devonlari ichida eng mukammali va muayyan tartib bilan yozilgani O‘zR FA ShI inv. №121 qo‘lyozmasidir. Ushbu qo‘lyozmada G‘oziyning 3000 misradan ortiq she’ri bor. Sankt-Peterburgdagi qo‘lyozmasi №109, Toshkent qo‘lyozmalari №6117 hamda №2296 II inventar raqamlari ostida saqlanmoqda.

Bundan tashqari, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan bir “Bayoz”da ham shoirning she’rlaridan namunalar mavjud. Bayozda G‘oziy, Amiriy, Saloh, Jomiy, Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Fazliy, Mushfiqiy, Sa’diy singari shoirlarning fors va turkiy tillardagi g‘azal, muxammas, ruboiy janridagi she’rlaridan tashkil topgan.

***

Dar sifati Hakim Turobiyi hazor xalta budir

Bihamdillah tabibi shahru Buqroti xaloyiqman,
Ajaldin ham bani odamni o‘ldurmoqqa foyiqman,

Tabibi shahr nomi oyda bir bemor o‘ldursa,
Vale men kunda yuz bemor o‘ldurmoqqa hoziqman.

Meni badbaxt to zarbul-masal bo‘ldum tabiblikda,
Jahon voricha aknun ko‘p haqoratlarga loyiqman.

Hakimi shahr deb, oldimga har kim keldi o‘ldurdim,
Tariqi rostim shuldurki, jallodi kdloyiqman.

Erur ko‘p nohaq (ishlar) gardanimga tavqi la’nat kim,
Jahannam sadriga bu jurm ilan sardori sobiqman.

Adamdin to kelibman davri olamda xisolim shul,
Musulmonlarga hosidman, munofiqqa muvofiqman.

***

Munojot va dargohi qoziyu-l-hojot
(Hojatlarni chiqaruvchi qozi dargohiga munojot)

Amr-u nahying rohi botil uzra ermish yodimiz,
Kecha-yu kunduz sifotingdur bizi avrodimiz,
Sendin, ey xalloq yo‘qdur nolau faryodimiz,
Lek charxi kajravishni dastidindur dodimiz,
Senki lutf aylab aning dasturi davron aylading.

Xor qilding oqibat har kimki erdi arjumand,
Past etding soyadek, naxleki bo‘ldi sarbaland,
Barcha fe’ling nosutuda, jumla vasfing nopisand,
Yusufi Misrini aylab chohi zindon ichra band,
Piri kan’on manzilini baytul-ahzon aylading.

Qaysi bir zulming etay te’dod, ey garduni dun,
Kim sening bedodu javring haddu g‘oyatdin burun,
Behunar johilga berding beadad dunyoyi dun,
Jam’i donolarni qilding holini zeru zabun,
Zog‘ni a’lo qilib, to‘tini nodon aylading.

Siynalar ma’murasini seldek qilding xarob,
Ahli dil bag‘rini hasrat o‘tida etding kabob.
Fe’lu atvoring mukaddar, guftu go‘ying nosavob,
Lutfing ermas beg‘araz, in’oming ermas behisob,
Tifldek bo‘ldung pushaymon kimga ehson aylading.

To qalam chekti qazo lavhi vujudi kun fakon,
Kelmadi bir rostliq naqlingda, ey kaj doston,
Mumtahandursan yomonlig‘da na hojat imtihon,
Naxli idboring uza murg‘eki qo‘ydi oshyon,
Tuxmi anjum gardishidin sangboron aylading.

Dosha izhor ayladi Farhod Shirin dardini,
Ishq oyinida uldur behayolardin biri.

Qoshu ko‘zu Holu zulfi birla ulfat tutma cho‘x,
Qilmasun rasvo seni yuzi qarolardin biri.

Senga, ey Majnun, junun ilmida taslim aylaram.
Sen rasolardin biri, men norasolardin biri.

Gulxaniy, tinmay duo qilg‘il shahi voloni sen,
Negakim ul podshohdur, sen gadolardin biri.

Etoking tutqoli ko‘nglumda andog‘ tebramak go‘yo,
Tutub nabzim tabibi shahr, idroki mizoj etmaz.

Rahi ishqingda dardu dog‘i hijroning matoimdur,
Qaroqchi aylamas toroj oning kimsa boj etmaz.

Asiri qomating gar soyadek tuproqqa yastanmish,
Gadoyi dargahing ham orzuyi taxtu toj etmaz.

Sen o‘z diningni tuz, zohid, meni ko‘p yo‘ldin ozg‘urma,
Bu surat sham’ yondurdung ziyosi pur rivoj etmaz.

Qamu bemora la’lidin shifo bermish Masih oso,
Nadin ul sho‘x anglab, Gulxaniy, darding iloj etmaz.

* * *

Terlamish may tobidin gulbargi ruxsorin ko‘rung,
Rahzani din o‘ldi tori zulfi zunnorin ko‘rung.

Belu og‘zidin nishon gar bir sari mo‘ desalar,
Aylaram inkoru iqror etmazam vorin ko‘rung.

O‘z makonini tilar har gah qafasdin qochsa qush,
Eyki istarsiz ko‘ngulni zulfi har torin ko‘rung.

G‘amzasi jonim olur, novaklari bag‘rim tilar,
Zolimi berahm ozor uzra ozorin ko‘rung.

Soqiyo, hajr ilgida xunoba yutdim, Gulxaniy,
G‘ayr ila bazm ichra oni jomi sarshorin ko‘rung.

* * *

Yetmadi Majnung‘a men ko‘rgan balolardin biri,
Hajr vodiysi aro chekkan jafolardin biri.

Rahm etib, holimni so‘rmaslar ko‘rung bedodlig‘,
Siyimbarlardin biri, gulgun qabolardin biri.

****

Ta’rifi viloyati Qurama va az davoni Kandir guzashtan
(Qurama viloyati va Kandir dovonidan o‘tishning ta’rifi)

Ey ko‘ngil, aylama minba’d havoyi Qurama,
Bo‘lmagil boz giriftori jafoyi Qurama,
Mahv qil fikr zamiridagi royi Qurama,
Ganji bodovar agar bo‘lsa sadoyi Qurama,
Borma zinhor so‘yi Hotami toyi Qurama.

Sharh aylay sifati hodisai dahri digar,
Qissai bul’ajabu hodisai shahri digar,
Dashtu sahroyi digar, bahri digar, nahri digar,
Obu oshi hama zaqqumu suvi zahri digar,
Arzu afloki digar, davri binoyi Qurama.

Samado, saxla digar bora Kirovchi yo‘lidin,
Solma yodimga ani dashti qiyomat cho‘lidin,
Talxkom aylama lutfing bila achchiq qo‘lidin,
Shikvagar to bo‘mayin qumi Qaraqchi cho‘lidin,
Bir yurib yo‘lida ming so‘kma saroyi Qurama.

Turfa shahriki aning sarsari monandi samum,
Kuydirur shiddati sarmosi xaloyiqni chu mum,
Har taraf anda olib xayli balo, favji hujum,
Suvi zahrobai g‘am, chashmalari ayni zaqum,
Hosilu mahsuli ofoti baqoyi Qurama.

Yozu qish uru yalang‘och naru modasidur,
Modazodi galai xirs sog‘in podasidur,
Olti xurjinni olib bo‘yniga ozodasidur,
Sar-sari od dami subhni shabbodasidur,
Dema to‘fonki nasimi zurafoyi Qurama.

Menki yurdim Qurama ichra bosib qor-u qirov,
Ko‘rmadim anda bashar sinfini g‘ayr az xaru gov,
Boyini chinniyi jononasidur eski likov,
Jomi jamshedisidur biylarini kuhna sulov,
Qopi ming yilgisi mirzoyi qaboyi Qurama.

Mavziekim bo‘sa mohiyati ismi Qurama,
Qurusun oti oning, ismini mendin so‘rama,
Bir ko‘rub bori digar, yoniga hargiz yo‘lama,
Yo‘lasang tashna bo‘lub yo‘lida andin sulama,
To‘la qatroni jahannam hama soyi Qurama.

Oqibat charx nalar solmadi boshimga meni,
Qildi sarson samo zarrada boshimga meni,
Osmon ustida tosh aylana boshimga meni,
Soldi tuz o‘rniga qum, ko‘k uza oshimga meni,
Bu sazo birla jazo azmi havoyi Qurama.

Deya ko‘rma Qurama, xo‘b ani, hokimi xo‘b,
Xo‘blar topmasa Kandir ani yo‘lida cho‘kub,
Bersa Eshonquli yuz yilqini oldiga surub,
Arzimas, toati har ranjiga, hurram bo‘ma ko‘p,
Filmasal bersa agar dema havoyi Qurama.

Toqi ayvonki ani qullai kandir derlar,
Osmon ostida ko‘talcha sifat qir derlar,
Ustini xalq qarab, ostida pir-pir derlar,
Toqlar jumla bu Kandir olida yer derlar,
Manzari margi muallaq ba samoyi Qurama.

Toqi shohiniyi kandir dema Miri g‘azabi,
Bo‘ldi bu hujjat ilan ofati dunyo sababi,
Bo‘lmasun nega muni margi xaloyiq talabi,
Hasabi miri g‘azab, miri ajaldur nasabi,
Modari favji balo hodisa zoyi Qurama.

Kimki Kandirdin oshib yer yuziga boz kelar,
Bahudo shahri fanodin ba baqo soz kelar,
Toki hifzi samadi oldida mumtoz kelar,
Yo magar lashkari qudsiy anga hamroz kelar,
Chunki mi’roji qazodur bu quroyi Qurama.

Charxi yettinchiki Kandirni furumoyasidur,
Sa’di akbar falaki minbari shash poyasidur,
Osmoni qamari soyasining soyasidur,

asarlarni, zarbulmasal kitoblarini ham ko‘p o‘qigan. “Zarbulmasal” majoz asosiga qurilgan qissa bo‘lib, unda turmush voqea-hodisalari, turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning fe’l- atvorlari, bir-biriga munosabatlari qushlar, hayvonlar tilida bayon qilinadi. Unda murakkab qatlamli majozga duch kelamiz. Xullas, asarda xalq maqollari va naqllari (300dan ortiq) katta o‘rin tutganligi, asosiy voqea-hodisalar qushlar-hayvonlar timsollari orqali ifodalanganligi, bosh qoliplovchi hikoya hisoblangan Boyo‘g‘li va Yapaloqqush hikoyasi bilan bog‘lanib ketuvchi katta va kichik masal-hikoyalar ham keltirilganligi uchun adib uni “Zarbulmasal” deb nomlagan.

G‘AZALLAR

Lola ko‘ksidek bag‘rim tah-batah qaro qonlar
Hajr ibtilosidin naylay, ey musulmonlar.

G‘amza o‘qidin har yon bosh chiqardilar chandon,
Jismi notavonimdin dasta-dasta paykonlar.

Bir dam ayla mardumlig‘ diydam ichra manzil qil.
Durru la’l sochsunlar maqdamingga mijgonlar.

Va’dalar qilib eding, shod etay sani g‘amdin,
Ushbu g‘amda jon berdim qoni ahdu paymonlar.

Sen nechuk paridursan, topmadim so‘rog‘ingni,
Kezmisham quyun yanglig‘ vodiyu biyobonlar.

Gulxaniyni qon tortdi azmi ko‘yi yor etti,
Qatl etarga mijgonlar chekti tig‘i uryonlar.

* * *

Ko‘ngul ozodadur, dunyog‘a arzi ehtiyoj etmaz.
Tariqat soliki bu yo‘lda mayli izdivoj etmaz.

Dili vayronadin, jono tavaqqu’ qilma dog‘ingni,
Buzulgan mulkdin, albattakim, sulton xiroj etmaz.

GULXANIY

Gulxaniy XIX asring I yarmi Qo‘qon adabiy muhitida masal- tamsil janrida betakror asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan ijodkordir. Gulxaniy tabiatan hazil-mutoyibaga usta, xalq urf-odatlarini, til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarini, hajv va yumorini chuqur bilgan shaxs bo‘lgan. Gulxaniyning shaxsiyati va adabiy merosi haqida ma’lumot beruvchi ilk manba Umarxon davrida yaratilgan “Majmuai shoiron” tazkirasidir. Chunki tazkira, birinchidan, Gulxaniy hayotlik vaqtida maydonga kelgan, ikkinchidan, tazkira adibni ko‘rgan, bilgan, u bilan muloqotda bo‘lgan kishilar (Fazliy, Mushrif, Xotif, Mirzo Qalandar) tomonidan yozilgan. Tazkiraning Gulxaniy hayotini yoritishga bag‘ishlangan sahifalarida adibning “mulki ko‘histon” (tog‘lar diyori) dan ekani, uning ajdodlari o‘z yurtining e’tiborli kishilaridan bolgani, o‘ziga Gulxaniy taxallusini olib, “tog‘liklar shevasida latif-u ravon” g‘azallar bitgani uqtirib o‘tiladi.

Gulxaniydan qolgan lirik she’rlar uncha ko‘p emas. Uning g‘azal va qasidalardan iborat kitob tartib bergani haqida xabar bo‘lsa ham, u topilganicha yo‘q. Shoirning lirik merosidan bizgacha “Biri”, “Etmaz”, “Ko‘rung” radifli va “Lola ko‘ksidek bag‘rim tah-batah qora qonlar...” deb boshlanuvchi o‘zbekcha, “Ey to‘ti”, “Burun”, “Az chashmi man”, “Angusht”, “Angushtam”, “Bidih” radifli tojikcha g‘azallari yetib kelgan. She’rlaridan to‘rttasi o‘zbekcha, to‘rttasi tojikcha; bitta tojikcha qasidasi ham bor. Hammasi to‘qqizta. U tojikcha g‘azallarida Jur’at taxallusini ham qo‘lladi.

Gulxaniy nomini avloddan avlodga yetkazib kelayotgan va adabiyotimiz tarixida unga abadiy joy olib bergan yodgorlik, bu – Zarbulmasal”dir.

Fors adabiyotida Ubayd Zokoniy, XIX asr o‘zbek adabiyotida Nozil Xo‘jandiy, Sulaymonqul Rojiy kabilar maqollar keltirib, “Zarbulmasal” nomlari bilan asarlar yaratganlar. Gulxaniy asari ham garchand “Zarbulmasal” deb atalsa-da, ko‘pgina o‘ziga xos xususiyatlarga ega majoziy asardir. “Zarbulmasal” syujeti hikoyachilik asosiga qurilganligi bilan o‘zbek adabiyotidagi Rabg‘uziy va Xoja qissa-hikoyatlariga, undagi majoziylik, qushlar, hayvonlar tilidan so‘zlash; pandnamolik xususiyati jihatidan esa, Sharqda keng tarqalgan “Kalila va Dimna” asariga yaqinlashadi. Shubhasiz, Gulxaniy xalq og‘zaki ijodi boyliklarini yaxshi bilish bilan birga, madrasa tahsilini olgan mulla kishi (manbalarda Mulla Gulxaniy nomi bilan keltiriladi) sifatida qo‘lyozma

Odam o‘ldurmoq ani robitai doyasidur,
Qilma umringni habo bahri g‘inoyi Qurama.

Jazm qilsang, anga chiqmoqni jahondin kecha ko‘r,
O‘lturub ustida avval kafaningni bicha ko‘r,
Yo‘lda qancha suv agar bo‘lsa ani sen icha ko‘r,
Bormau, ko‘rma duyum bora qaroyi Qurama.

Subh Kandirda nasimiki, o‘tar ul sahari,
Ul nasimi sahariy, dema samumi saqariy,
Sovug‘i zahri saqar, issig‘i do‘zax sharari,
Turfa tog‘eki, base odama shoyon zarari,
Qullai qiyri qadar bahri fazoyi Qurama.

Chilla-u qishda kim ul kim qisa Kandirda yurush,
Aylagay ul kishi beshak juli astarni bado‘sh,
Olg‘ay andin asari shiddati sarmo dilu tush,
Ul zamon do‘zax agar bo‘lsa qilur dar og‘ush.
Misli mahbubi pari tal’ati mohi Qurama.

Farqi Kandirda gahikim men edim bo dili chok,
Topmayin tushgani bu holi taboh hiyla — halok,
Keldi oldimg‘aki, ul faxri hama xilqati xok,
Abdu Qodir nasabi asl aban anjadi pok,
To Kirovchi bo‘lib ul roh namoyi Qurama.

Toki bordim bu ravish holki maqsadga qarin,
Yuz nadomat bila yuz favji g‘aromat ba kamin,
Tani Majnuni alam, qomati monandi nigin,
Tushubon vasli jalolatga yiroq g‘amga yaqin,
Shukr ko‘rdim basihat hukmi ravoyi Qurama.

Lillahilhamdki Maxmur saropo yurdum,
Boshi Avluq, oyog‘i shahr hayoni ko‘rdum,
Necha kun hokimini oldida yakto yurdum,
Boricha davlati ayyomni boham so‘rdum,
Shuncha bas, qilma duyum bora havoyi Qurama.

***

Ey xudovandaki, arzi charx gardon aylading
Mehru mohu do‘zaxu firdavs rizvon aylading
Xomai sun’ing bilan tasviri inson aylading
Naqsh etding anga jismu ma’dini jon aylading
Birni qilding benavoyu birni sulton aylading

Amri rahying rohi botil uzra ermish bodimiz
Kecha kunduzda siftingdur bizi avrodimiz
Sendin ey xalloq yo‘qdur nolau faryodimiz
Lek charxi kajravishni dastidindur dodimiz
Sanki lutf aylab ani dasturi davron aylading

Doimo ehsoni voy boshad ba suyi ag‘niyo
Kard donoyon ba zeri panjai johil fano
To‘tiyonro soxta dar qaydi zindon mubtalo
Andalibonro mute’i bum kardiy ey sabo
Ahli donishni zabuni dasti nodon aylading

Xor qilding oqibat har kimki erdi arjumand
Past etding soyadek naxliki, erdi sarbaland
Barcha fe’ling nostu’da, jumla sun’ing nopisand
Yusufi Misriyni aylab gohi zindon ila band
Piri Kan’on manzilini baytul ahzon aylading

Qaysi bir zulming etay te’dod ey garduni dun
Kim sening bedodu javring haddi g‘oyatdin fuzun
Behunar johilga berding be adad dunyoi dun
Jam’i donolarni qilding holini zoru zabun
Zog‘ni a’lo qilib bulbulni nolon aylading

Tokay ey garduni dun dunro rioyat mekuniy
Chand bo ham nomi hud lutfu inoyat mekuniy
To bakay dono ba holi xud shikoyat mekuniy
Chand bo in ablahon naqli hikoyat mekuniy
Ham sifat, ham nom uchun dunlarga maylon aylading

Shahrlar ma’murasini seldek qilding xarob
Ahli dil bag‘rini hasrat o‘tig‘a etding kabob
Fe’li atvoring mukaddar, gufti-go‘ying nosavob
Lutfing ermas beg‘araz, in’oming ermas behisob
Tifldek bo‘lding pushaymon kimga ehson aylading

To qalam chekdi qazi lavhi vujud kavni makon
Kelmadi bir rostliq naqlingda ey kajdoston
Mumtaxamdursen yomonliqda na hojat imtihon
Nahli idboring uza far’iga ko‘ydi shodmon
Tuxmi anjum gardishindin sangboron aylading.

Yor kelsa mahbubing bo‘lib, bir necha ma’shuqing bo‘lib,
Mezbon duogo‘ying bo‘lib, mehmonlar aytur ofarin,

Shavqiy qulingni dodig‘a, tun kechalar faryodiga
Tahsin etib abyotig‘a, jononlar aytur ofarin.

MUSTAZOD

Davlat tilasang haqdin adab rishtasin ushla, davlat anga payvand,
Hech ziynat emas surati zebog‘a adabcha, tark aylama zinhor.

Ahdingni buzub qavlingga yolg‘on suxan olma hurmat talab ersang,
Bo‘lmas bu ikov ahli malohat zarifig‘a, albatta sazovor.

Gar Shavqiy so‘zi kelsa malol senga, ayo mah, andin hazar etma,
Harchand agar talxdur, anga amal ayla, mazmunida so‘z bor.

“Pandnomai Xudoyorxon”

(Qisqartirib olindi)

Uni yosh og‘o, derdilar, Mallaxon,
Nasihat qilur erdilar har zamon.

Bu xon aka g‘amin er erdilar,
Fasih til bila gohi der erdilar

Unga, bu nasihatni dark aylagil,
Bu bachkana ishlarni tark aylagil.

Erur shah ishi elga damsozlik,
Munosib emas xonga sarbozlik.

Qayon bordi bu sandagi aqli xush,
Egay har iting kunda bir nimta go‘sht.

Taajjub seni elga bu qilmishing,
Munosibmi senga bu qilgan ishing.

Necha safshikan er bahodir yigit,
Bular barcha och bo‘lsa, to‘q bo‘lsa it.

Kimi qildi falak hojat ravo dunyodakim oxir,
Mubaddal qilmadi bir charx ila iqbolin idbora.

Ko‘zum namlu, ko‘ngul g‘amlu, sirishkim qon, ishim afg‘on,
Tanim ranjurdur boshim sitam doshi bila yora.

O‘lancha asraram sirri g‘aming jon pardasi ichra,
Bihamdillahki, voqif bo‘lmadi ko‘ngul bu asrora.

Tabibo, chekma zahmat ko‘zlari bemor bo‘lmishman,
Qila olmaz Masiho chora ham bemor bemora.

Mukaddardur ko‘ngul ko‘zgusi xudbinliq havosidin,
Giriftor o‘lmasun hech oyina, yo Rab, bu zangora

Havo jomidin o‘lmish mast ko‘rdum, zohidi xudbin,
Asosina tayonib g‘arra bo‘lmish fashi dastora.

Talattuf ilki birla marhami kofuri vaslingni,
Qo‘y emdi G‘ozini(ng) bag‘ri erur, billoh, yuz pora

***

Tarahhum aylamaz holimg‘a ul sho‘xi parizodim,
Necha qulmen desam hargiz inonmaz sarvi ozodim.

Menga xursandlig‘ mumkin emazdur, aylamish go‘yo
Qazo me’mori g‘am tufrog‘idin ta’mir bunyodim.

Qiyo boqmay tutub ag‘yor ilkin sarvi noz o‘tti,
Tag‘oful mashrabim, zolim tabiat, qaddi shamshodim.

Ajabdurkim aning berahm ko‘nglig‘a asar qilmaz,
Falak minolarini ayladi simob faryodim.

Menga, ey do‘stlar, taklifi sayri gulsiton etmang,
Ochilmaz sayri gulzori iramda tab’i noshodim.

Chekib tig‘i jafo el qonin ichmakdur ishi doim,
Xudo bezor, kofirkeshi, shahroshubi jallodim.

Ko‘ngul mulkini xayli noz ilan yag‘mo qilur hardam.
Qiyomat bexabar devona dushman do‘st bedodim.

Qaroliq birla o‘tti ro‘zgorim zulfidin doim,
Munavvar bo‘lmadi sham’i ruxidin zulmat obodim.

Men, ey G‘oziy, bu noqis shayxlarg‘a yo‘qtur ixlosim,
Muhabbat murshidim, dardu alamdur xatti irshodim.

MUSTAZOD

Bechora ko‘ngul ko‘rdi yuzung qoldi balog‘a, ey sho‘xi sumanbar.
Tadbir eda olmaz kishi taqdiri xudog‘a, bul erdi muqarrar.

Mahvashlar ishi cho‘x sitamu javru jafodur, kundin kuna billoh.
Bu nukta hama o‘zni bilan ahli vafog‘a, ma’lum o‘la yaksar.

Ko‘rgach yuzini naqdi xirad bir yo‘la verdim, bu zarbulmasaldur.
O‘z qilg‘on isha qayda boray emdi davog‘a, el rost deyarlar.

Gulshanda yuzi gullara xunoba ichurdi, yuz pora ko‘nguldin.
To‘bi bo‘yini ko‘rdi boshin qo‘ydi ayog‘a, shamshod-u sanubar.

Xoli labidin rahm umid aylama aslo, ey soda ko‘ngulkim,
Bu hinduyi bedodfan-u yuzi qarog‘a, zulm o‘ldi muqaddar.

Shahlo ko‘zina holi dil etdim necha izhor yuz ajz ila har tun.
Ul joduyi mo‘ltoniyi modar baxatog‘a, hech qilmadi bovar.

Payg‘omimi, ey bodi sabo, yetkura ko‘rgil, o‘lmoqqa yetishtim,
Zinhor o‘shal mohvashi hurliqog‘a, holim o‘la abtar.

Aydimki parivashlara oshiq o‘la ko‘rma, g‘am dashnasi yersen
Naylayki ko‘ngul olmadi bu so‘zni qulog‘a, loyiq anga xanjar.

Kechti hama umrum seni ko‘yungda nigoro, afg‘on ila tun-kun.
Hech aylamading lutf meni zor gadog‘a, ey shahlara sarvar.

G‘AZALLAR

Jahon obod aylar ul parivash husni gulzori,
Ikki xam qoshlarini go‘shasida chashmi xummori.

Ikki navras niholi, la’li shakar, orazi zebo,
Ko‘rarga bas ajoyib narx o‘lubdur husn bozori

Ko‘zi jodu, yuzi gul, sarv qomat, lablari shakkar
Munavvar aylagay olam yuzini husn diydori.

Yaroshub sarvdek qomatga nozik jomai gulgun,
Jamolin bir tamosho qilg‘ali olam giriftori.

Latofat koni ul shirin, malohat g‘amzasi xunxor,
Jahon sahnnga t.ushgan huri jannatni namudori.

Bu shaklu, bu latofat, muncha ra’nolik ajoyibkim
Jahonga fitna solmish shevai noz ila raftori.

Hamisha nozaninlar vasfida guftor etar Shavqiy,
Na xushdur har kishini bo‘lsa bu suratli dildori.

* * *

Jono, jamolingni ko‘rib, jononlar aytur ofarin,
O‘z ko‘ksiga o‘zi urib, yoronlar aytur ofarin.

Qaddi niholingga qarab, abru kamolingga qarab,
Shoho, visolingga qarab, sultonlar aytur ofarin.

Bulbul sanga nolon o‘lib, qumri ajab hayron o‘lib,
To‘ti ko‘rib giryon o‘lib, xushxonlar aytur ofarin.

Lutfu karam xonlar berur, do‘st do‘stig‘a nonlar berur,
La’li labing jonlar berur, o‘lganlar aytur ofarin.

Ishqingda ko‘p ovoralar, borsun qayon bechoralar,
Husning aro parvonalar, kuyganlar aytur ofarin.

SHAVQIY

Mulla Shamsi mulla Husan o‘g‘li Shavqiy Namangoniy to‘raqo‘rg‘onlik bo‘lib, XIX asrda (1805-1889) yashab ijod etgan Qo‘qon adabiy muhiti shoir va tarixchilaridan biridir. U ilk bilimlarini otasi Mulla Hasandan oladi. Keyinchalik Namangandagi Shaxand madrasasida o‘qiydi. Shoirning asarlari devon holiga keltirilgan. “Devon”ida o‘zbek va tojik tillaridagi she’rlari jamlangan bo‘lib, ularning asosiy qismini o‘zbek tilidagi she’rlari tashkil qiladi. She’rlari, asosan, g‘azal, muxammas, masnaviylardan iborat. Shoir asarlari (“Parishonlar”, “Bir guli ra’no”, “Zebo”, “Ishq sayli” va b.) ning asosiy mavzusi diniy-tasavvufiy va ishqiy kechinmalar mazmunida. Shu bilan birga devonda ijtimoiy va tarixiy mavzuga bag‘ishlangan muxammas va masnaviylar ham uchraydi. Ularda chor Rossiyasining Turkistonni, xususan, Qo‘qon xonligini bosib olish voqealari she’riy misralarda tasvirlangan. Uning muborak haj ziyorati davomidagi taassurotlari aks etgan she’riy asarlari XX asr boshlarida Toshkent litografiyalarida chop etilgan. Shoirning “Jame’u-l-havodis” (“Hodisalar jamlanmasi”), “Pandnomai Xudoyorxon”, “Jangnomai Xudoyorxon”, “Tarixi Xo‘qand” kabi asarlari ahamiyatlidir. Mazkur asarlar tarixiy doston janriga mansub bo‘lib, ularda, asosan, XIX asr II yarmida Qo‘qon xonligida yuz bergan qipchoqlar qo‘zg‘oloni voqealariga bag‘ishlangan. Bu dostonlar Xudoyorxon davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni, turli tabaqa vakillarining o‘zaro munosabatlarini o‘rganishda ahamiyatlidir. Shoirining “Devoni Shavqiy”, “Jome’u-l-havodis” asarlari O‘zR FA ShI da saqlanadi.

La’li labi sharmandasi konlar ora yoqut, boshin ura dosha.
Zulfi eda yuz ta’na bukun mushki xitog‘a, tiyra o‘la anbar.

Xunobi jigar birla tahorat qila doim to gavhari vasling.
G‘oziy kecha-kunduz o‘la mashg‘ul duog‘a o‘lduqcha muyassar.

RUBOIYLAR

Ey charx, meni jahona dovar qilding,
Ham sohibi mulku taxtu afsar qilding,
Xurshed kabi subh chiqarding bafalak,
Shom o‘ldi chu yer birla barobar qilding.

***

Bukulgan qaddim, ko‘r, qo‘lumda aso,
Ajal qildi tayyor o‘q birla yo.
Qo‘yub ko‘zga aynakni dermen o‘zumm
Ajal yo‘lig‘a to‘rt bo‘lmish ko‘zum.

MUXAMMAS

Benavomen g‘ussa mulkida falokatmandimen,
Taxti mehnat uzra o‘lturgan alam xursandimen,
Halqai zanjirbobu dardu g‘am darbandimen,
Mehnatu g‘am bog‘ini to‘tiyi shakkarxandimen,
Ranju mehnatga yaqin, rohatga dur afkandimen.

Yuz yamog‘liq eski shol egnimda shohlik kisvatim,
Fag‘furu Jamshidu Skandardin ortuq davlatim,
Mehnatu g‘amga mubaddal bo‘ldi ayshu ishratim,
Bo‘lmadi ushbu jahonda bir yo‘li xush suhbatim,
Hazrati Odamni qandoq badguhar farzandimen.

Bo‘ldi qalqon g‘am o‘qig‘a jismi mehnat paykarim,
O‘tlug‘ ohimdur ham chashmi tarimdur kavsarim,
Manzilim dashti junun, xori mug‘ilon bistarim,
G‘ussa bolim, g‘am matoim, ranju kulfat chokarim,
Shukr lillah, kishvari ixlos davlatmondimen.

Ketdilar ozodalar g‘am birla, nokas bo‘ldi kas,
Shohlar o‘rnig‘a o‘lturdn xakas birla magas,
Nola aylarmen firoq ilgida monandi jaras,
Hech kishi yo‘q so‘rsa holim, olsa ko‘nglum bir nafas,
Dardu g‘am zindonini ostida qolg‘on bandimen.

G‘am yukin tortnb alif qaddim egilli mislp nun,
Na qarorim qoldi, na oromu, na sabru sukun.
Holi zorim so‘rki, g‘am ilgida yo‘q mendin zabun,
Zufununlar oldida tab’im Falotundin fuzun,
Dun tabiat, bebasiratlarni noxursandimen...

Hamdamim g‘am, mahramim motam, alam hamsuhbatim,
Kavkabimdur nahs, baxtim tiyra, noxush tal’atim,
Xastadurmen ko‘z yumub ochqucha yo‘qtur toqatim,
O‘zga yerdin kelsam erdi ortar erdi izzatim,
G‘oziyo, aybim budurki shoiri Xo‘qandimen.

MUSADDAS

Bedod-u sitam pesha buti hurliqosen,
Ming zulm-u jafo jonima har lahza qilosen,
Siymin badan-u lola ruxu koni adosen,
Bilsamki malak yo pariyi hushrabosen,
Vah-vah na ajab zolimi pur javru jafosen,
Olam elini o‘rtag‘ali turfa balosen.

Ey sho‘x, sening nargisi bemoringa qulmen,
Ul xanjari mujgoni dilozoringa qulmen,
La’l kabi shirini shakarboringa qulmen,
Tovus kabi noz ila raftoringa qulmen,
Vah-vah na ajab zolimi pur javru jafosen,
Olam elini o‘rtag‘ali turfa balosen.

Men g‘amzadau bekasu bechorau noshod,
Tun-kun seni ishqingda ishim nolau faryod,
Ko‘nglum qushi hech o‘lmadi g‘am domidin ozod,
Sen zolimi bedod elidin kimga etay dod,
Vah-vah na ajab zolimi pur javru jafosen,
Olam elini o‘rtag‘ali turfa balosen.

****

Sanchilan o‘qungmudur bu chashmi purob ustina?
Yoki chekmishmu Skandar mil-girdob ustina?

Ko‘nglum o‘ldi pora-pora gul yuzung ko‘rgan hamon,
Ul katon yanglig‘ki, nogah tushsa mahtob ustina.

Ey, pariro‘, oshiyoning uzra qon to‘ksam, netong,
Xat yozilmoq rasmdur shingarfdin bob ustina.

Javhari xatti labing ko‘rgach degay maxmurlar,
La’lidin jomiki mavj urmish mayi nob ustina.

Donai tabxoli la’ling uzra Behjat angladi,
O‘ylakim, shabnam tushar gulbargi serob ustina.

Agar husnung rivojin istasang oyinag‘a boqma,
Jamoling shavkatin bu chashmi hayrondin tamosho qil.

Chaman sayri gulu shamshodig‘a gar moyil o‘lmishman,
Yuzi gul, qomati-sarvi xiromondin tamosho qil.

Fasod ahlin qazo amri bila qonini to‘kmakni,
Amir ul-muslimin Sayyid Umarxondin tamosho qil.

Kel, ey, Behjat, duo qilmoq yo‘lin tut, shodkom o‘lg‘il,
Tariqi mehribonliq xoni xonondin tamosho qil.

***

Desa harkim, qadah yanglig‘ nasibam la’li yor o‘lsun,
Kirib mug‘ kulbasig‘a mayparastu bodaxor o‘lsun.

Xino bargi qo‘lini olmag‘i rashki uchun derman,
Nigorim ilki ko‘nglum qonidin, yo rab, nigor o‘lsun.

Iki ruxsoru xolingni namoyon ayla gulshanda,
Ochilsun lolalar pinhon, tikonlar oshkor o‘lsun.

Qarori yo‘q ko‘ngilni hajrdin, ey sho‘x, tangrichun,
Visol oromgohig‘a yeturkim, barqaror o‘lsun.

Saning davringda, ey shoh, har kishikim, qilsa sarkashlik,
Ayoq ostida naqish poy yanglig‘ xokisor o‘lsun.

Ayog‘ing ostida yer, boshing uzra osmon, yo arb,
Jahon to vordur – taxt ila tojing ustuvor o‘lsun.

Riyozi davlatingda chun topar nash’u namo Behjat,
Anga rasmi duo u, sanga davlat poydor o‘lsun.

Jono, meni holimni zabun aylading oxir,
Minoyi nishotimni nigun aylading oxir,
Kundin-kuna dardimni fuzun aylading oxir,
Ovorai sahroyi junun aylading oxir,
Vah-vah na ajab zolimi pur javru jafosen,
Olam elini o‘rtag‘ali turfa balosen.

Ey sarv qadu kokili sunbul, ko‘zi shahlo,
Xurshed ruxu xoli labi anbari soro,
Rayhoni xating sabzai gulzori tamosho,
Bir kun meni bechorani shod etmading aslo,
Vah-vah na ajab zolimi pur javru jafosen,.
Olam elini o‘rtag‘ali turfa balosen.

Har kecha meni zorg‘a darding o‘la hamdam.
Anduhu mashaqqat menga hamxonau mahram,
Bazmi tarab o‘lmish menga motamkadai g‘am,
Hech aylamading G‘oziyi dilxastani xurram,
Vah-vah na ajab zolimi pur javru jafosen,
Olam elini o‘rtag‘ali turfa balosen.

TARJE’BAND

Ey sho‘xi sumanbari shakarlab,
Siymin zaqani turunj g‘abg‘ab.
Az xichlati zulfu orazi tu,
Sunbul dar tobu mehr dar tab.
Ishqat ba tani xarob har ro‘z,
Dardat ba dili shikasta har shab.
Ruxsori tu muddaou maqsud,
Mehri tu maro murodu matlab.
Murdam zi g‘amat tarahhume kun,
Gardam zi sarat tabassume kui.

Hajringda manam asiri yuz g‘am,
Ag‘yor o‘la shodmonu xurram.
Bag‘rim o‘la qahr tig‘idin chok,
Qo‘y lutf ali birla anga marham.
Mahrum o‘la bazmi ayshdin men,

Xilvatgahi roza g‘ayr mahram.
Vasling etib orzu o‘lanja,
Qon ila dilim deyur damodam:
Ey rohati jon, beqaroram,
Vey komi dili ummedvoram.

Ruxsori tu mohi olam oro,
Az bahri xudo niqob bikusho.
Gisuyi siyohi anbarinat
Gardid rasan ba gardani mo
Az xona barun xirom, ey sho‘x,
Sozand chahoniyon tamosho.
Shud g‘arra ba husn on parivash,
Yakbor maro naguft aslo
Ey oshiqi zulmdidai man,
Vey zor-u sitamkashidai man.

Men xastag‘a bo‘ldi darding afzun,
Holim o‘la za’fdin digar gun.
Bir davr ila charxi bemuruvvat,
Jomi tarabimni etti vojun.
Hush ahlina shahr qutlug‘ o‘lsun,
Men telbaya manzil o‘ldi homun.
Anduhi firoq haddin oshti,
Tangri uchun, ey nigorim, aknun
Bir dam meni yod aylasangchi,
Vasling bila shod aylasangchi.

Dar ishqi tu beqaroram imro‘z,
Aftodau xoru zoram imro‘z.
Soqy, xumi boda ar bishkast
Az sog‘ari may xumoram imro‘z.
Mashitob asal ki az firoqash
Chonro ba tu mesuporam imro‘z.
Rahme ba dili xarobi man kun,
Chuz tu digare padoram imro‘z.
Savgand baxoli anbarinat,
Bo nargisi fitna dar kaminat.

Masti nozi kofirdur, begunoh qatl aylar,
Chiqsa har qachon sarxush, butrang, ey musulmonlar.

Baski, xati yodida jon berur edim, Behjat,
Tong emas, agar chiqsa qabrim uzra rayhonlar.

***

O‘lturur sehr ila jodu-chashmi xunxorin ko‘rung,
Tirguzur la’li Masihi – mo‘‘jiz izhorin ko‘rung.

Sayr qilg‘och bog‘a tashrifi qudumig‘a bahor,
SHabnamu gul naqdidin siymu zar iysorin ko‘rung.

Hajri o‘lturg‘och mani ag‘yor ila ishrat tuzar,
Ey, muhabbat ahli, ozor uzra ozorin ko‘rung.

Gulshan ichra bulbul ohini gazandi daf’i chun,
G‘unchadin gul naxlini bo‘ynida tumorin ko‘rung.

Dog‘ o‘lub ma’shuqu oshiq motamida yig‘lamish,
SHam’ning parvona chun ashki guharborin ko‘rung.

Sarvu shamshodu sanavbar poymol o‘ldi bu kun,
Bog‘ aro ul sarvi gulruxsor raftorin ko‘rung.

Qoshi ikki misra’ining sharhini qildi raqam,
Behjati dilxastani barjasta ash’orin ko‘rung.

****

Yuzung ra’nolig‘in, ey gul, gulistondin tamosho qil,
Qading zebolig‘ini sarvi bo‘stondin tamosho qil.

Saharlarkim qilur faryod bulbul gul xayolida,
Yuzung vasfini man yanglig‘ sanoxondin tamosho qil.

Vafo oyinani ko‘rgil mani besabru somondin,
Jafo somonini ul nomusulmondin tamosho qil.

G‘AZALLAR

Zulfi mushkining ila xoling sani, ey dilrabo,
Ko‘nglimi oshufta etti, ro‘zgorimni qaro.

Gar sabo imdodidin tobsa g‘ubori maqdaming,
Ko‘zlarim tufroqg‘a to‘lsun gar desam man to‘tiyo.

To xirom etting chamnda noz ila, ey sarvinoz,
Rashkdin sarv ila bulbul bo‘ldi bebargu navo.

Biri yo tasvir aylab, biri-o‘q tartib etib,
Qosh ila ko‘zung qilur qatlamg‘a hardam mojaro.

Charxkim, g‘am o‘qlarin, gohi malomat toshlarin,
Yog‘durur boshimg‘a afg‘onkim, balo uzra balo.

Ham kima bir san’at o‘lmish qismat az ro‘za azal,
Shohdin, yo rab, karam kam bo‘lmasun, bizdin-duo.

Tong emas, Behjat, agar tufrog‘im oltun aylasa,
Shoh lutfi baski, iksiri saodatdur mango.

***

Fasli navbahor o‘ldi, tozaro‘ gulistonlar,
May bila qiling, ahbob, o‘zga ahdu paymonlar.

Ayb emas agar har dam o‘psalar ayog‘ini,
Kokili giriftori zulfidek parishonlar.

Ul pari erur Layli, el bo‘lub senga Majnun,
Kezdilar quyun yanglig‘ vodiyi biyobonlar.

Ko‘zi husn bog‘ida nargisu yuzi guldur,
Og‘zi – g‘unchai xandon, kirpigi – xiyobonlar.

O‘rgatib qading vasfin ishq maktabi ichra,
Saqladi alif yanglig‘ dil arosig‘a jonlar.

To men senga oshno bo‘lubmen,
G‘am ilkida mubtalo bo‘lubmsn.
Lutf ayla menga xudo haqikim,
Dardingnn chekib ado bo‘lubmen.
Jonimga jafo-u javr kam qil,
Cho‘x ojizu benavo bo‘lubmen.
Rayhon xating edub tamanno,
Mavjud jahonda to bo‘lubmen,
Yo‘xdur meni sabr ila qarorim,
Ilkimda inonu ixtiyorim.

Ey mohvash, besharob mastam,
Umrest chafokashi tu hastam.
Yak lahzau yak zamonu yak dam,
Hargiz zi kamandn g‘amparastam.
Bar tofta az chahoniyon ro‘
Dar ko‘yi tu solho nishastam.
Zunnor zi kokuli siyohat
Bar gardani choii xesh bastam.
Devonai keshi kofiratman,
Qurboni sari sitamgaratman.

Qildi meni zor ishtiyoqing,
Bosh birla borib o‘pam oyoqing.
Aqlim eda vola xattu zulfing,
Hayron eda qosh ila qaboqing.
Jannat gulidin naku visoling,
Do‘zax o‘tidin batar firoqing.
Men g‘amzadaya jafo qilurg‘a
Ag‘yor ila birdur ittifoqing.
Sendin bu amal na loyiq o‘lmish,
Bal sarzanishi xaloyiq o‘lmish.

Ey zuhra chabin-u lola ruxsor,
Tokay ba man in chafou ozar.
Gul chok zada zi sharmi ro‘yat
Pirohani xeshtan ba gulzor.
Az hasrati orazi tu doram
Har shomu saboh nolai zor.

G‘oziyi hazinu benavoro
Zin besh badardi hachr maguzor.
Az durii tu kabob tokay,
Holash zi g‘amat xarob tokay.

BEHJAT

Shoir Behjat Mirzo Qalandar Mushrifning o‘g‘li bo‘lib, ismi Mirzo Ayyubdir. U haqidagi ayrim ma’lumotlar “Majmuai shoiron”, Qori Rahmatulloh Vozeh Buxoriyning “Tuhfatu-l-ahbob”, Po‘latjon domulla Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy”, “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” asarlarida uchraydi. Tarjimai holiga doir ma’lumotlar juda oz. Behjat Umarxon davrida yosh yigit bo‘lgan. “Majmuai shoiron”da 21 o‘rinda shoirga ta’rif berilgan. Ularda birida uning ulg‘ayganda, Aflotunga o‘xshagan donishmand bo‘ladi, deb yaxshi ta’rif bildiriladi:

Yake ibn Mushrifki, u Behjat ast,
Zi ilmu adab qobili suhbat ast.
Niholi barumandi bog‘i xayol,
Falotun shavad gar rasad bakamol.

(“Majmuai shoiron” 8-bet).

Umarxon hukmronligi davrida ilk bor kitobdor lovozimi ta’sis etilib, Mulla Mirza Qalandar Mushrif ushbu lavozimga tayinlangan. Mulla Mirza Qalandar Mushrifdan so‘ng uning farzandlari ham kitobdorlik mansbida saroy kutubxonasini boshqarganlar. Bu haqda manbalarda quyidagicha ma’lumot uchraydi: Muhammad Alixon davrida Mirza Ayyub Behjat saroy kutubxonasiga kitobdor lavozimiga tayinlanadi. Chunonchi, Po‘latjon Qayyumiy shunday yozadi: “Mirza Ayyub Behjat – Mirza Qalandar Mushrifning o‘g‘lidur. Bular Isfara qaryasinda bo‘lib mulkdor, mansabdor kishilar edi. Xon saroyida kitobdorlik mansabi bularga berilganidan bularning avlodi kitobdor laqabini o‘zlariga iftixor familiya etib yuritadilar”. Behjat o‘zbek va fors tillarida ijod etgan zullisonayn shoir bo‘lgan. She’rlaridan devon tuzgani haqida ma’lumot bo‘lsa-da, bu devon hozirgacha topilmagan.

Sa’dixon qozi to‘g‘risida hajv

Chiqdi olamga bachchag‘ar qozi,
El aro shuhrati zahar qozi.

Nomini Sa’d deb g‘alat qo‘ygan,
Nahsdan tug‘di, ibni shar qozi.

Ota merosidir sag‘ir moli,
Kimki o‘lsa, anga padar qozi.

Suvchayon yo ilon desam bilmay,
Bilgan aytur, tovonteshar qozn.

Kunduzi masnadi qazo uzra,
Kechasi, ya’ni yo‘lto‘sar qozn.

Boylar sudiga javob hozir,
Kambag‘al hukmini buzar qozi.

Xonavayron necha etim, tullar,
Dod dastingdan, ey o‘jar qozi!

Qal’acha kafsh-u oq banoras to‘n,
Hayf zar do‘ppi, kalsar qozi.

Bo‘lsa erdi tariqcha aqling agar,
Topar erding bo‘lak hunar, qozi.

Bu g‘azalni eshit Pisandiydan,
Ablahi dahr, muxtasar qozi.

Bu na xon ishidur, bu na qilgoning,
Berib ot, boqasin it olgoning.

Erur shah qanoti yigit birla ot,
Agar xon esang qil ani ehtiyot.

Bu behuda ish xon ishidin emas,
Xushomad eli sanga bu so‘z demas.

Qoshingga kelib bir necha ahli joh,
Bori o‘zlarin ko‘rsatur nek xoh.

O‘zin hiylalar birla aylab qarib,
Berib senga har kuni yuz firib.

Seni bu maishatga mag‘rur etib,
Bori ajdahodek o‘zin zo‘r etib.

Hukumatga atrofin qo‘l solib,
Eb-ichib, bori olg‘oncha olib.

Borib hukm ishini qilib poymol,
Bularga g‘araz esa bir teksa mol.

Bo‘libsan shikoru o‘yin birla g‘arq,
Bilib qilmading do‘st-u dushmanni farq.

Kishi jon chekib qilsa xizmat agar,
Ayarmu aningdin kishi molu zar.

Ko‘rib xizmat in’omini qilmasang,
Chopon qadricha jonini ko‘rmasang.

Qishi arzi bo‘lsa oldingda so‘r,
Har ishni o‘zing qil, ko‘zing birla ko‘r.

Bu yanglig‘ ishing bo‘lsa anjom qil,
Sipah jabdug‘ini saranjom qil.

Bu yanglig‘ nasihat, bu yanglig‘ rama,
Necha desalar yoqmas erdi, so‘zlama.

“Jame’u-l-havodis”
(Dostondan parcha)

Zanbarakchi yubordi uch o‘qni,
Bilmadi so‘ngra bor ila yo‘qni.

Bir yo‘la barcha qo‘ydi ul dam ot,
Ikki yondin solishtilar: “Hayhot!”

Er yigitlarning g‘ayrati qaynab,
Turmadi emdi otlari o‘ynab.

Bo‘ldi yakboraki, urush qattiq,
Ko‘p sinib nayzalar, uyulib tig‘.

Garm bo‘ldi o‘lumni bozori,
Rasuli mavt o‘lub xaridori.

Suv kibi el qoni to‘kilmog‘lik,
Tanlaridan bosh so‘kilmog‘lik.

O‘tlashub, tishlashub olishmoqdur,
Ro‘baro‘ kelsa kim solishmoqdur.

Barchasi bir-birin surib har yon,
Ba’zi jon vahmidin bo‘lub hayron

Kim qochib, kim quvar bilolmaslar,
Gard ila bir-birin ko‘rolmaslar,

Soy toshi sonicha kesib boshni,
Qayda farq aylagay qari-yoshni.

Kim qishloqni, otni olg‘on kim,
Qip-qizil qonig‘a bo‘yolg‘on kim.

Furqat g‘azaliga muxammas

Nim nigohini raqiblarga nisor aylar ko‘zing,
Bnzni bir ko‘rmoq uchun ko‘p intizor aylar ko‘zing,
Bir boqishda tiyra ko‘nglumni bahor aylar ko‘zing,
May ichibkim g‘amza tig‘in obdor aylar ko‘zing,
Bir qarashda yuz kishini dilfigor aylar ko‘zing.

Zulm behad etgali hazm ayladi andeshasin,
Qo‘lg‘a oldi bexi umrum kesgali g‘am teshasin,
Qatl etarda tutdi ul Hajjoji zolnm peshasin,
Tutmag‘on bo‘lsa g‘azabdin Shohimardon shevasin,
Nega qoshingdin hamoyil zulfiqor aylar ko‘zing.

Ishq elin sehr etgali joduligin ifsho qilib,
Qon to‘kib jon olg‘ali mujgonlarin burro qilib,
Xalq aro sho‘ri qiyomatni solib, g‘avg‘o qilib,
Xoling oshubi habash iqlimini yag‘mo qilib,
Fitnadin toroji mulki Zangbor aylar ko‘zing.

Jumlani devona qilg‘on o‘sma rangli qosh erur,
Kecha-kunduz shum raqiblar mahramu sirdosh erur,
Garchi, ey ohu nigorim, biz qari, sen yosh erur,
Aylamas toqat nigohingga agarchi tosh erur,
Ko‘zguni siymob yanglig‘ beqaror aylar ko‘zing.

Kuydimu o‘ldum, yoronlar, yor istig‘nosidin,
Qatrae tottirmadi hargiz karam daryosidin,
Qutqar emdi bu tiriklikda ajal da’vosidin,
Otibon mujgon o‘qini qoshlarini yosidin,
Voykim, jonu ko‘ngullarni shikor aylar ko‘zing.

To Pisandiy yor o‘lurg‘a jo‘sh qilg‘il dam-badam,
Dod etarmen, ey nigorim, go‘sh qilg‘il dam-badam,
Bizni ham may loyidin behush qilg‘il dam-badam,
Bazm aro gulrang may sun, no‘sh qilg‘il dam-badam,
Furqatiyg‘a bir boqib daf’i xumor aylar ko‘zing.

Maqsudi ot chiqarsa, boylikda Shoh G‘ulom nom,
Bekturni zahri qildi boshdin-oyoq siroyat...

Hindu sifat topib pul tinmay yurardi har yon,
Do‘konu ko‘chalarda ko‘knorivor mehmon,
Haq aylasun bu shum.ni kelgan baloga qalqoi,
Bo‘ldi bu Abdurahmon boylar ichida shayton,
Bekturni hasratida o‘ldi chekib nadomat.

Bir umrda musofir dunyo qidirdi nodon,
Qorun bilib o‘zini Xayriddin nom afg‘on,
Oxir quturgon itdek har odamini qopgon,
O‘lsa kafan topilmas, tortar mahalla tovon,
Ketti bu oxiratga bexayr-u besaxovat.

Oxir zamon ishidur itlar kefakka to‘ydi,
Kirdi zakunga boylar shar’i sharifi kuydi,
So‘mlarni ko‘tarolmay eshakka yukni qo‘ydi,
Mansurquli inoqni Bektur ko‘zini o‘ydi,
Mundin ziyoda bo‘lmas islom aro qabohat.

Dunyo topib gadolar ko‘p e’tibor bo‘ldi,
Avvalda mo‘r erdi, bir ajdahor bo‘ldi,
Ayrildi so‘mlaridin bir nonga zor bo‘ldi,
Xayriddinxo‘ja oxir el ichra xor bo‘ldi,
Qildi tama’ bu nodon Bekturdin istionat.

Shamsiddinxo‘ja degon dunyoda turfa nodon,
Suratda odam, ammo siyratda misli shayton,
So‘mlar ketib qo‘lidin ko‘zdin oqib qaro qon,
Gohi o‘lub tirilgan hindu sifat berib jon,
Boshig‘a soldi Bektur ro‘zi jazo qiyomat.

To‘fon suyiga o‘xshab oqti ko‘zini yoshi,
So‘mlarni oldi Bektur, hasratda qotti boshi,
Xalq ichra ko‘p tamysho har kunda jon taloshi,
Qo‘rboshilik amalda zahr o‘ldi egan oshi,
Do‘zaxda ham tuganmas Bektur bilan adovat.

Kimsani zaxmidin oqib qoni,
Qiynalib chiqmayin birov joni.

Goh o‘ngdin suruldilar so‘lga,
Goh so‘ldin surildilar o‘ngga.

Ul kuni bul sifat erdi doim,
Bo‘ldi, go‘yo qiyomat qoyim.

Kimni bog‘ida bosh ko‘tarsa terak,
Der edi: “Kes, yiqit, bu bizga kerak”.

Elga sangi jafoni ottilar,
Suvni dehqon eliga sottilar.

Ba’zisi ani butmagan erdi,
Suv bahosidin o‘tmagan erdi.

Zulm el mag‘zidin o‘tti,
Ustixonga pichoq borib yetti.

DILSHODI BARNO

Dilshodi Barno Rahimqul so‘fi qizi 1215 (1800)-yilda O‘ratepa (qadimiy Istravshan, shoira ham bu yerni shunday ataydi) shahridagi sobiq Mir Mushok mahallasida tug‘ildi. Otasi Rahimqul shoir tabiatli kishi edi. U O‘ratepada olib borilgan janglarning birida halok bo‘lgan, onasi esa 1813-yilda vabo kasalidan vafot etgan. 14 yoshida ota-onasidan yetim qolgan Dilshod 90 yoshdagi katta buvisi bilan ip yigirib kun kechirishar edi.

Qo‘qon xoni Umarxon 1816-1817-yillarda O‘ratepani qo‘lga kiritgach, ko‘pgina asirlarni Qo‘qonga keltiradi. Bular orasida 17 yashar Dilshod ham bor edi. Shoira Qo‘qonda maktabdorlik bilan shug‘ullanib, xotin-qizlarga xat-savod o‘rgatgan. Anbar Otin Dilshodi Barnoning iqtidorli talabalaridan bo‘lgan. Dilshodi Barno g‘azal, muxammas, masaddas, chiston va boshqa bilan birga xotiranomalar ham yozgan.

Uning 91 ta o‘zbekcha va 51 ta tojikcha she’ri, “Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) badiiy-tarixiy asarining o‘zbekcha va tojikcha 3 qo‘lyozma nusxasi (“Tazkirai Barno”, “Sabotu-l-bashar maa tarixi muhojiron” – “Inson matonati va muhojirlar tarixi”, “Muntaxaba-l-ash’ori Barno” – “Barnoning tanlangan she’rlari”) bizgacha yetib kelgan. Bularda o‘zaro urushlar, xalqning turmush sharoiti va boshqa ijtimoiy-siyosiy voqealar o‘z ifodasini topgan.

Shoira lirikasida muhabbat va sadoqat mavzuyi, Vatan va inson ozodligi masalasi uyg‘unlashib ketgan (“Sochim sunbul deyurlar...”, “Falakda suzuvchi oy...” va b.).

Dilshodi Barnoning “Tarixi muhojiron” asarida XIX asr Qo‘qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy voqealari aks etgan. Shuningdek, asarda O‘ratepa va Qo‘qonda yashagan 30 dan ortiq shoir va shoiralar ijodi haqida ma’lumot keltirilgan.

Dilshodi Barno asarlari qo‘lyozmasi O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar institutida №1207 inventar raqami ostida saqlanadi. Qo‘lyozmada shoiraning 42 ta g‘azali mavjud. Bulardan 36 tasi o‘zbek, 6 tasi esa tojik tilida yozilgan g‘azallardir. Asarlari o‘zbek va tojik tillarida nashr qilingan.

O‘z davrining ilg‘or fikrli ziyolisi sifatida tanilgan shoira yuz yildan ortiq umr ko‘rib, taxminan 1905-1906 yillarda vafot etgan. Dilshodning yaqingacha bizga ma’lum bo‘lmagan adabiy merosi hozir o‘zbek va tojik kitobxonlari orasida o‘zining ikkinchi hayotini boshladi.

Haq bermas oz qilsun ul bandasig‘a tavfiq,
Bermas kishiga so‘zni jo‘gi misoli zandlits,
Kim rost so‘zni qilsa, qilmas kishiga taediq,
Nomiga aks erdi yolg‘onchi Hoji Siddiq,
Bekturni sharbatidin totdi bu beqanoat.

Qallogani ko‘ziga oz pul ko‘rungusi ko‘p,
Shoshib o‘znni urdi domig‘a bo‘ldi ma’yub,
Ahvolini yo‘qotgan odamni o‘lgani xo‘b,
Pul yig‘di to‘y qilay, deb bul sartarosh Ayyub,
Bektur qo‘lidin oldi qilg‘um debon shafoat.

Chakmanfurushlikdin Mardon xurush hildi,
Hech kimni ko‘zga ilmay ko‘p ayshu jo‘sh qildi,
Chumchuq kabi Ziyoboy qarg‘a yurish qildi,
Bekturni sharbatidin bir qatra no‘sh qildi,
Sharmanda bo‘ldi oxir eldin ko‘rub ihonat.

Bepirlarni qilg‘ay shayton hamisha badroy,
Yo‘ldin adashgan elni holig‘a voyu yuz voy!
Shomu saharda tinmay bevaqt qo‘ydi karnoy,
Boylar so‘rashdi: kim?-deb, aydilar: ul Avazboy,
Eshakka no‘xta soldi Bektur qilib dalolat.

Boylarga rostlikdin bul paxtagir bo‘ldi,
Mehnat-mashaqqat ila pishti yag‘ir bo‘ldi,
Avvalda sher erdi, bir lattagir bo‘ldi,
Bekturga Abdurahmon nogah asir bo‘ldi,
Bechora bo‘ldi oxir badkayf purxiyonat.

Lo‘li misoli erdi har ko‘cha-ko‘yda yurgon,
Pul foydasini qistab qarzdorlarga mehmon,
Gohi to‘yib eshakdek, gohida ochdin o‘lgon,
Borini jam’ aylab berdi haris Atojon,
Ayrildi so‘mlaridin Bektur qilib xiyonat.

Sultoni bokaramdin badasllarga in’om,
Qildi amirlarga xizmatni subh ila shom,
Utdi alar, bu qoldi dunyo uchun qo‘yib dom,

G‘AZALLAR

Noz-u ne’matlarga liq to‘lgan makon Farg‘onadir,
Movarounnahr aro jannatsimon Farg‘onadir.

O‘zbeg-u tojik bu vodiy ichra qurmishdir makon,
Gavhar-u yoqut uzukdek jismi jon Farg‘onadir.

Xislati ko‘p vodiydir, ham ilmu irfon maskani,
Unga go‘yoki uzuk ko‘zi Qo‘qon, Farg‘onadir.

Bu diyor g‘oyat sahovatliki, fahrimdir mening,
Xush mayin tuproqlari gavharga kon Farg‘onadir.

Istravshan-u Namangan, Toshkent birlak tutash,
Zulm-alamlar o‘qiga bo‘lmish nishon Farg‘onadir.

Fazl-u odobi bilan mehnat eli mashhur erur,
So‘zlari shirin-shakar, oromijon Farg‘onadir.

Shul muzofot haqida Barno dilidan kunlashur,
Mungli ovoziga bul kun hamzabon Farg‘onadir.

***

Bu dunyoning tufayli bo‘yladim odam bino bo‘lmish,
Jahonda bor ekan odamki, bu olam bino bo‘lmish.

Birov dehqonchilik qildi, birov bog‘ parvarish etdi,
Jamiiy noz-ne’mat shundayin kam-kam bino bo‘lmish.

Avval Odam o‘zi erdi jahonda yakka-yu tanho,
Kelib so‘ngra Havo yoniga-yu hamdam bino bo‘lmish,

Hayotniig ko‘rki ko‘p asbobu anjom aqlu tadbirdan,
Yaratdi odamu ul har biri mahkam Sino bo‘lmish.

Rivoj topdi shu yo‘l birlan kishilik uy va ro‘zgori,
Tarovat xonasi har soatu har dam bino bo‘lmish.

Dog‘ulidur atosi, ustodi erdi kajpoy,
Bekturga sayd bo‘ldi oxir bu bediyonat.

Boy bo‘ldi Shoh Nosir, avval edi qaroqchi,
Gah mardikor ishlab, gohi juvoza yoqchi,
Hech qilmagan ishi yo‘q, gohi bo‘lub yamoqchi,
Kirdi saroyga, bo‘ldi tertovchiga so‘roqchi,
Bekturni xanjaridin bag‘ri bo‘lur jarohat.

Mehnat-mashaqqat ila Mirboqi boy bo‘ldi,
Ko‘p yoru do‘stlaridin dunyo uchun uzuldi,
Bir don uyida qolmay, sichqonlar ochdin o‘ldi,
Bo‘ryo kigizlari ham sotildi, so‘m bo‘ldi,
Berdi bo‘lub pushaymon Bekturga bu amonat.

G‘aflat bosib tiqildi loyxonaga Nazar ko‘r,
Shaytonsifat takabbur dunyoga bo‘ldi mag‘rur,
Oxir yog‘ib balolar boshida qaynadi sho‘r,
Bo‘ldi bu dard birlan go‘yo oyog‘i nosur,
Bekturni qissasidin el ichra ko‘p xijolat.

Chiqdi falakka dudi jonig‘a o‘t tutoshti,
Urdi xudo xasisni yo‘l to‘g‘ridin adoshti,
Ul tutfurush yig‘lab, afg‘oni haddin oshti,
Mirhojiboy kasal deb eshaklari hangroshti,
Mundin ziyoda bo‘lmas odamdagi qabohat.

Hirs-u havo sharori ko‘nglida yondi chun nor,
Ko‘p yig‘ladi, mahobat so‘mlarni qildi tayyor,
Utmay tomog‘idin suv bu ranj qildi bemor,
Quvvat ketib bukuldi qomatlari Mirabror,
Xumdoni do‘zaxiga Bektur solib harorat.

Xoli qilib-ichidin chun otni do‘li,
Ayrildi so‘mlaridin boshida erdi quli,
Loy bo‘ldi ko‘z yoshidin ikki saroyni yo‘li,
Badasl Abdurahmon aslida erdi lo‘li,
So‘m foydasin olurga Bektur qildi suubat.

Salomatlik yo‘lida izlanishlar ayladi inson,
Shifokor ibn Sino, dori-yu malham bino bo‘lmish.

Shu qudratli basharning qo‘lidai bilgilki, ey Barno,
Bari daryoyu dengiz bo‘yla mustahkam bino bo‘lmish.

***

Bu muhabbat jomidur, deb dahrdin chiqdi nido,
“Yor aksin mayday ko‘r”, deb jomdin chiqdi sado.

Xonaqoh ahlig‘a aytdim: “Alvido, ey so‘filar”,
Dayra kirdim, rindliqni emdi qilg‘um ibtido.

Man ichib ishq bodasini, boy berdim mazhabim,
Har na bo‘lsa ko‘rsa ko‘zim, jon anga bo‘lsin fido.

Bu qadah ichra ko‘rundi orazi ul yorning,
Zanjiri ishqini soldi bo‘ynuma, ermish rido.

Oshiqini g‘ul urub band aylasa ma’shuq agar,
Shukr qilg‘ay, bo‘lmasam deb, bandidin hargiz judo.

Jannat-u do‘zax barobar oshiqi zor oldida,
Ishq imomig‘a hamisha aylamishdur iqtido.

Garchi Barno zordur bir orazi yor oldida,
Ishq imomig‘a hamisha aylamishdur iqtido.

* * *

Qalam tekkizma qoshingga, buzilmasun bu xat,
Falakdin oy misoli uzilmasun bu xat.

Ikki chiziqda mujassam yosin ayladi pay,
Bu ikki mast qo‘yilmay tuzilmasun bu xat.

Qo‘shingni ko‘rsatib oyg‘a, xijolat etma ani,
Yuzingda doira shakli so‘zilmasun bu xat.

Sudxo‘rlig‘ qilay deb so‘m yig‘di hoji Sobir,
Islom elida bo‘lmas mundog‘ o‘ziga jobir,
Bekturga berdi bul ham, ilkiga oldi bir-bir,
Ko‘p e’tiqod qildi dunyo toparga mohir,
Bosdi bu murdasho‘yni dunyoda ko‘p kasofat.

Ko‘p mehnat ila yig‘di dunyoni Abdujabbor,
Go‘yoki tumshug‘idin qarg‘a ilindi nochor,
Eshak bozori qolmay dallol-u benavokor,
Ko‘p justujo‘y birlan olamni qildi bezor,
Bekturga jam’ aylab berdi bu besaodat,

Badshaklu, behamiyat Sobir buruni ayyor,
“Shaytonga xalfa tushg‘an” dunyo toparga tayyor,
Bir pulga yuz qasamni ichgan edi bu beor,
Avqot gadoylikda jam’ etti so‘m bisyor,
Bekturni otasidek bildi bu behamiyat.

Johil G‘ulomjoni ul zarsalla, nomi – Afg‘on,
Bori bizoatini topshurdi shodu xandon,
Yori qiyomatim deb Bekturga ahdu paymon,
Yig‘lab kuyub yopushti, yuzidin o‘pdi chandon,
Xeshu taborin etmas bo‘lsa kasal iyodat.

Piri irodatidek Karim oxun yopushti,
Kal kalni tumshug‘idin go‘yo tanib topushti,
Bir nechalarga bo‘ldi kafil aroga tushti,
O‘zi tushub bu o‘tg‘a bir nechalar qovushti,
Bekturni zahrin ichti, yo‘q kecha-kun farog‘at

Bojonboyi xarisho‘r, asli laqabi go‘rxo‘r,
Badbaxtlikda erdi olam elig‘a mashhur,
Boy eshikida ko‘rdum maskan edi anga to‘r,
Tushdi bu choh ichiga go‘yoki beaso ko‘r,
Oxir damida ko‘rdi lavhi qalamda kulfat.

O‘rateppa o‘g‘risidin makkori shoh Qosimboy,
Ko‘nglida makru hiyla har kimga so‘zi bejoy,
Nohaq qasam topilsa, aytur manga bu ko‘k choy,

MUXAMMASLAR

Kajrav falakdin aylay emdi bu kun shikoyat,
Boylar ichida bo‘ldi turfa ajab hikoyat,
Bektur degan noraso badshakl benihoyat,
Boylarga bo‘ldi go‘yo qattiq baloyu ofat,
Mundog‘ kishiga kelsun haqdin hazor la’nat.

G‘aflat sharobin ichgan dunyoparast bo‘ldi,
Go‘yoki sajda qildi dunyoga mast bo‘ldi,
Bekturni oshno deb suhbatast bo‘ldi,
Boylarni e’tiqodi chun zeri dast bo‘ldi,
Botinlari buzildi, jo‘sh urdi ko‘p kasofat.

Bir necha mug‘sifatlar yo‘l oldilar xatoga,
Ko‘ngul qo‘yub o‘shandog‘ bedinu bevafoga,
Ko‘r bo‘ldilar adashib joyi chuqur jafoga,
Soldi alar o‘zini bir dardi bedavoga,
Bir-birlarig‘a aylab dunyo uchun adovat.

Farzi xudogo munkir dunyoni qildi pinhon,
Aksi shariat aylab band etdi xayru ehson
Bekturni yaxshi bildi olmoqlig‘ andin ehson,
Bu e’tiqod birlan so‘m berdi necha nodon,
Boshig‘a haq yuborsun har kun hazor la’nat.

Yuz makru hiyla birlan sindi Niyoz ko‘sa,
Muflis qilib o‘zini boylardin ul qutulsa,
Hajga iroda qildi maqsudi chirki ketsa,
Oxir kelib chiqordi tanzilga foyda bo‘lsa,
Bu qilmagan jahonda hech qolmadi kasofat.

Qorun xazinasidek qilsam dedi Qosimboy,
Ochlikda o‘lganidin ichgan edi tezak choy,
Yog‘ ko‘rmagan edi ul tumshug‘lari yilu oy,
Boy ko‘rsatib o‘zini Bekturga surat oroy,
Maqsadga etmadi ul boshga olib malomat.

Yuzungga boqsam o‘qurman mashaf oyatini,
Ilohi ishqim o‘tidek qo‘zilmasun bu xat.

Mujgon o‘qi hamisha qoshinggadur mahram,
Qiyomat o‘lg‘ucha hargiz to‘zilmasun bu xat.

Toq uzra tut hamisha ikki qamar yang‘lig‘,
Jahon nuri yog‘urmish ezilmasun bu xat.

“Val-layli val-qamar” oyat yozar ermish Barno,
Xurufi oyat uzra birdek tizilmasun bu xat.

MUXAMMAS

Yo falak hargiz meni dardimga darmon aylamas,
Yo tabibi Hoziqimni hech qadrdon aylamas,
Mushkulim ko‘pdur, aqalli birin oson aylamas,
Orzuyim borasida hargiz imkon aylamas,
Manga himmat ilgidin bir yo‘la ehson aylamas.

Dod deb qichqirg‘animg‘a rahm etmaydi falak,
Ishq sirrin o‘ylamakdin qong‘a to‘ldi bu yurak,
Yer ostonig‘a yetmoqlig‘in dil aylar tilak,
Shum raqiblar dastidin yo‘l izlab o‘tmoqlik kerak,
Bu tilakning borasida fikr chandon aylamas.

Subhi o‘lmaydi tunim, hargiz yorishmas bunda shom,
Bu habashni lashkari oshiqdin olur intiqom,
Saf tuzib kuz manzarida, qo‘lida tig‘i nayyom,
Telmurub yig‘lab turarman, tashnaman, qo‘limda jom,
Xovari tun lashkarini nestu yakson aylamas.

Sho‘r baxtimg‘a azizim yuzni pinhon ayladi,
Va’da qildiyu visolin, bag‘rimi qon ayladi,
Yig‘latib ishqida ko‘zdin abri nayson ayladi,
Oxiri bus hum raqibin qasdi bir jon ayladi,
Hech ma’shuqa oshiqini bo‘yla sarson aylamas.

Emdi yorim rahm etib, qiniga solsun tig‘ini,
Nogahon bir zarb ila qirqmay muhabbat bixini,

Adl birla o‘zi bersun shum raqib ta’zirini,
Shodmon o‘lg‘um, yo‘qotg‘um, qayg‘u birla yig‘ini,
Bu vafoni dilbarimdin o‘zga sulton aylamas.

Bu muammo qay kuni hal bo‘lg‘usi, bilmam hanuz,
Ishq g‘olib bo‘lmog‘I, zulm ketgusi, bilmam hanuz,
Pardayi ismat oxir yirtilg‘usi, bilmam hanuz,
Oy ham o‘zdin niqobin olg‘usi bilmam hanuz,
Naylayin bu matlabim xurshidi tobon aylamas.

Charxi kajrav to‘g‘ri yursun bu g‘arib Barno uchun,
To‘g‘ri yo‘llar nomin aytsun axtarib Barno uchun,
Baxt qonuni yozilsun o‘zgarib, Barno uchun,
Ishq vasli ham bo‘ladur anqarib Barno uchun,
Bu niyatni emdi Barno hech pinhon aylamas.

PISANDIY

Avazmuhammad Yormuhammad o‘g‘li Pisandiy 1816-yili Qo‘qonning Mulla Boshmon mahallasida tug‘ilgan. U yoshligidan ota kasbi atlas to‘qishni egallaydi, dastlab mahalla domlasida, so‘ng Qo‘qondagi Oxun devon madrasasida ta’lim oladi. U o‘zbek va fors-tojik adabiyotini o‘rgandi va har ikki tilda ijod etadi. Pisandiy ayniqsa tarix yozishda shuhrat qozondi. Pisandiy 1918-yilda, 102 yoshida vafot etadi.

Pisandiy hajviy she’riyatning vakili sifatida ham muayyan mavqega egadir. Shoir haqida ma’lumotlar Po‘latjon domulla Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” va “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” asarlarida keltirilgan. “Tazkirai Qayyumiy”ning 246-fiqrasi shoir hayoti va adabiy faoliyatiga bag‘ishlangan.

ADO

Ado taxallusi bilan ijod qilgan Sultonxonto‘ra Ahroriy (vafoti 1834/35) − zullisonayn shoir, davlat arbobi. Asli samarqandlik bo‘lib, hayotining asosiy qismi ona shahrida o‘tgan. Xoja Ahror vali avlodidan. Qo‘qonda Amir Umarxon saroyida xizmat qilib, malik ush-shuaro darajasiga ko‘tarilgan. Umarxon vafotidan keyin Buxoroga ketib, amir Nasrullo saroyida xizmat qilgan. Keyin Samarqandga shayxu-l-islom qilib yuborilgan. Saroyda xizmat qilgani tufayli sho‘ro davrida hayoti va ijodiga salbiy baho berilib, tadqiqot doirasidan chetda qolgan. Xususan:

Gar Navoiydan Ado so‘zini o‘tkarsa ne tong,
Shoh Umar afzalmu yo sulton Husayn Boyqaro? –

degan bayti uchun ko‘p tanqidga uchragan. Holbuki, bu Sharq she’riyatida mavjud an’ana yo‘lida bitilgan faxriya bayt, xolos.

“Muntaxabu-t-tavorix”da keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, Adoning 3 ta devoni bo‘lgan. U mumtoz she’riyatning deyarli barcha janrlarida qalam tebratgan. G‘azallari asosan ishqiy mavzuda, qasidalari vasf va madh xarakterida. U Sharq mumtoz so‘z san’atining ko‘plab zabardast namoyandalari g‘azallariga tatabbular yozgan, muxammaslar bog‘lagan. She’rlari asosan sodda uslubda bo‘lib, ba’zida hind uslubidagi murakkab namunalar, Bedil ijodiga taqlid ta’siri ham uchrab turadi. Mushfiqiyning “Gulzori Eram” dostoniga nazira tarzida “Nola va afg‘on” nomli 312 baytdan iborat doston yozib, unda mahbubaning yuz, ko‘z, qosh, soch, bo‘yin, kulgich, og‘iz, lab, tish kabi 25 a’zosini ta’rif-tavsif etadi.

Asarlari badiiy jihatdan ancha baland bo‘lib, she’riy san’atlarga boy. Fazliy, Hoziq, Hakimxon to‘ralar bilan yaqin bo‘lib, ular Adoning ijodiga yuqori baho berishgan. O‘zbek tilida ham qator go‘zal she’rlar yozganiga qaramay, asosan tojik tilida ijod qilgan.

E.Shodiyev Adoning 500 dan ortiq ruboiy-mustazodni o‘z ichiga olgan qo‘lyozmasini topib tahlil qilgan. Unda shoir forsiy va turkiy adabiyotning Umar Xayyom, Pahlavon Mahmud, Jomiy, Navoiy kabi zabardast ruboiynavislariga mustazod bitgan”.

Qori Rahmatulloh Vozeh Buxoriyning “Tuhfatu-l-ahbob fi tazkiratu-l-as’hob” tazkirasida Ado maliku-l-kalom, fozillar peshvosi, Xoja Ubaydulloh Ahrorning avlodi ekanligi ta’kidlanadi. Gulxaniy “Zarbulmasal”da bir necha fozillar qatorida Adoni ham o‘z zamonasining kamtarlaridan edi, deb yozadi. Qo‘qon adabiy muhiti rivojiga Ado nafaqat shoir o‘laroq, balki moddiy va ma’naviy ko‘maklari bilan ham hissa qo‘shgan. Po‘latjon domulla Qayyumiyning

Hasbi holi mullo Mirzo Akram a’lam hoji va talabi qazo ba iqtizoi Muhammad Solih ellikboshi va Mirehson sarkor va mullo Muhammadkarimjon qori

Muhammadsolih otlig‘, ey birodar,
Bu rasvolig‘ni sen qilding sarosar.

Balolarga duchor etting mani san,
Ayog‘imda kishan, bo‘ynumda arqan.

Borolmasman tiriklik ishlarimga,
Emay-ichmay urubman tishlarimga.

Uying bug‘doyga to‘lsun, ey Mirehson,
... O‘lsun sani, maxdum Karimjon.

Uyimda qolmadi sing‘on safolim,
Siza arz aylayin avvalgi holim.

Men erdim Yangiqo‘rg‘on manzilida,
Amin, mingboshnlarga nuridiyda.

Birinchi qozini oldida a’lam,
Yozar erdim, masoyil bo‘lsa mubham,

Eritmog‘likda elni o‘t kabi mum,
Olur erdim, bitib mazharni bir so‘m

Mabodo bir jin urganni hidoyat,
To‘lub kissam, agar qilsam rivoyat.

Qasam etsam akl jonib havola,
Yog‘ar boshimga ko‘pdin-ko‘p navola.

Birov da’vosi bo‘lsa bir namakdon,
Subut aylab anga bir yaxshi qumg‘on.

Qo‘noq arzancha bo‘lsa, moli da’vo,
Solib boshiga yuz janjolu g‘avg‘o.

Agar da’vosi bo‘lsa bir qazonni,
Boshiga to‘ntaribman osmonni.

Agar hukm etsa qozi bir eshak deb,
Biturman ruq’asinn Beshterak deb.

Rivojim ko‘p edi har ro‘zi bozor,
Sayoz kunga ko‘yub ish bo‘lsa dushvor.

Havoi qozilik boshimga tushti,
Mani itpashshalar oshimga tushti.

Tavoze’ aylabon ellikboshiga,
Turub ta’zim etib qosh qoqishiga.

Bu itlarga murosovu madoro,
Berib pinhoniy rishvat, oshkoro.

Ko‘fak itdek eshaklarni ag‘o deb,
Ayiq, to‘ng‘uzsifatlarni tag‘o deb.

Eshikdin kelsa nogah bir faliska,
Tutub og‘ziga avval fofiriska,

Ko‘tarmas anga itlar quyrug‘ini,
Salom aylab,so‘rarman buyrug‘ini.

Bilolmasdin tug‘ilgon manzilimni,
Yana hokim surushtirmish yilimni.

Xijolatdin chiqolmasman eshikdin,
Birov jirtak cholurmu deb teshikdin

Bu holatni so‘rar ul qaddi ra’no,
Kelurmukan debon qildim tamanno.

Tariqat ahli yod xaqqi raqsi samo‘ aylang
Xaqiqat yorini yodi bilan raqsi samo‘ aylang
Yurak qonin sochib zori bilan raqsi samo‘ aylang
Bu xalqa ichra jondil bilan raqsi samo‘ aylang
Ki ogohlig‘ bilan chiqqon irqi mushki Xo‘tan bo‘lsun.

Maqomi qurbiyatni istasang Mansuri vaqt sensan
Shaxodat sharbatini istasang Mansuri vaqt sensan
Agar dorul fanoni istasang Mansuri vaqt sensan
Jamoli ma’shuqingni istasang Mansuri vaqt sensan
Ki oshiqni bo‘ynig‘a ani zulfi rasan bo‘lsun.

Bu dunyo rohatin ko‘rsatma be oromdin etgil
Xarobot ahli hizmatkori dardi oshomdin etgil
Berib alfozi shirin Qoriyni xushkomdin etgil
Xudoyo ushbu Mashrab qalbini islomi din etgil
Bu xalqa ichra shoh bo‘lsun, gado bo‘lsun, kamin bo‘lsun.

Abyoti mullo Avazmuhammad qori mutaxallis ba Pisand Dar mazammati mullo Muhammadrasul mutavalli mulaqqab ba Duma ba iqtizoi mullo Fayzi qoriyi voiz

Duma laqab shahr aro bir ko‘fak,
Xoli emas kallasidin hech tuvak.

Maskani yo‘q ta’yin ango bir maqar,
Qozi bidan muftigadur dardisar.

Qavli-qasam, oqcha uchun jon sabil,
Barcha xusumatga bo‘lur ul vakil...

Rasta, saroylarda kezar kunduzi,
Rangi sovuq, echkiemar yulduzi.

Kimda ko‘rar eski tali, nosqovoq,
Cheksa tilab oni bo‘lur vaqti chog‘.

Otga yaqin, itni bo‘yidin baland,
Chavkari fes, shakli juhud Mirzoqand.

Mundin izo topdi hama ko‘ru kar,
Munguzi yo‘q, dabba gadik bachchag‘ar.

To‘y qisalar xalq muni et qilib,
Sardak ilan jizzasini det qilib,

Osh boshida Mamasharifboy kuchuk,
Farti fig‘on kalta ko‘sovdek kuyuk.

O‘lsa birov, murdasho‘vu go‘rkov,
Xurram o‘lur ul nafasi bu uchov.

Aylanibon margi mufojotdek,
Topsa o‘lumtikni bu kalxotdek.

Kalla sogan erda yotar bu hurub,
Shom-u sahar iskovuch itdek yurub.

Ko‘zlar bulog‘i qaynab oqib bo‘ldi obishor
Go‘yo bo‘ldi navbahor bulbul bo‘lib beqaror
Oshiq guli ochilib, xonaqohlar sabzazor
Suhbat bo‘ldi ko‘b baror, mindi duldul bul diyor
Qo‘lg‘a olib zulfiqor, Shohimardon keldilar.

G‘aybdin kelib xush maza, ko‘ngillar topib safo
Jon komig‘a tomg‘ondek har zamon obi baqo
Barcha qilib iltijo ijobat topdi duo
Odam safi Zikriyo, Halil birlan anbiyo
Ashob bilan Mustafo bizga darmon keldilar.

Ta’na etmasun nodonlar mayxona quloshig‘a
Toqat qilmas har kishi malomatni toshig‘a
Insof ko‘zi bilan boq Qoriyni bardoshig‘a
Shahidiy bu qul osiyg‘a, yog‘di raxmat boshig‘a
Chilton birla xalqag‘a xos-xoson keldilar.

Muxammasi Qoriy bir g‘azali Mashrab

Nazar qil xastalarni qalbiga durri adan bo‘lsun
Kalomingdan tiliga jori qil sohib suxan bo‘lsun
Muhabbat rishtasini tashla bo‘ynig‘a rasan bo‘lsun
Karam qil, yo Karim, bu xalqada Vaysul Qaron bo‘lsun
Hama ul yorni dardi bilan bir jonu tan bo‘lsun.

Agar san rost bo‘lsang yo‘qlag‘aylar ul shahanshohi
Yurarda yo‘l xatardur, lozim ermish sanga hamrohi
Hamisha ul bezabondek o‘tmagil dunyoda gumrohi
Xarobot ahlini bazmi-fanodin o‘zga yo‘q rohi
Hama raqs aylabon bu xalqada kulli pirahan bo‘lsun.

Adashgan Yusufidin misli Ya’qub zamon yig‘lang
Bo‘lub lab tashnalikda ul Xusayn Fozmon yig‘lang
Mayi vahdat bila serob qil deb so‘z-jon yig‘lang
Keling ey ahli dillar ushbu xalqa ichra qon yig‘lang
Hama qon yig‘langiz bog‘i muhabbat to chaman bo‘lsun.

Ko‘p qidirib bo‘ldi ayog‘i chaqa,
Doru debon qo‘ydi Hakimcha baqa...

Uydin agar chiqsa quyuqroq tutun,
Hozir o‘lur anda bu it kechqurun,

“Qirqi” chiqib ketsa, qutulmas o‘luk,
Tirmashibon anga bu maxov zuluk...

Yetti belanchakda bu ko‘rmay beshik,
Munga makon asli edi Toshkichik.

Yetti yasharlikda bu it darbadar,
Sotar edi mum bilan qontefar.

Necha zamon madrasada yotti ul,
Fisq-u fujur loyqasiga botti ul.

Ilmi adab daftaridin bir kalom,
Bilmadi-yu bo‘ldi oxir kal’avom.

Qotiliga lozim emasdur diyat,
Chunki amal anga edi tavsiyat.

Dahyakiy deb er edi avqofni,
Daryo o‘tub Chust-u G‘unuk Qofni.

Xoni zamon bildy xiyonat ishin,
Yotquzubon oldi og‘izdin tishin.

Qichqurutub ko‘yu guzar shahr aro,
Qoldi aning bo‘yiida bu mojaro.

Yosh-u qari o‘rtasida masqara,
Tavqi la’in gardanida g‘arg‘ara,

Sakson aro umrini pinhon qilib,
Izzat uchun ko‘hnai davron qilib.

Maloiklar saf olib, zokir bo‘lib zikr aytib
Soqiy qo‘lidin may ichib, amul maston keldilar.

Taloq aylab dunyoni, ko‘ngulni andin uzub
Shohimardon nisbati vujud shahrini buzub
Ko‘zlarini yoshini daryolardek oquzub
Chil tan bilan qo‘shulub, farishtalar ko‘b turub
Xalqa olub charx urub, barcha yoron keldilar.

Muhabbatni bog‘inda sayrab yurar chog‘inda
Ma’shuq dardi dog‘inda, matlubin so‘rog‘inda
Parvonaso o‘rtanib, sham’ig‘a kuyganinda
Boshlar Alloh zikrida hu-hu teyushqonda
Bu xalqani ichinda sheri-sheron keldilar.

Yusuf sifat chok etib har tarafg‘a piroxan
Daryolardek mavj urub xaqq jamolin ko‘zlagan
Par to‘kurub oshiqlar devonaso so‘zlagan
Ko‘ngul bo‘ldi ko‘b ravshan, fayz to‘kuldi ham suxan
Vaysul Qaron bul Hasan piri xarqon keldilar.

Parda ko‘tarib sattor turluk ko‘rsatib asror
Dillardin zulmat ketib, zuhur etti ko‘b anvor
Larza tushub olamg‘a arshu kursi beqaror
To‘kdi rahmat girdi-gar yog‘di nuri sad hazor
Asxob bilan choriyor, piri mug‘on keldilar.

Oshiq sodiq har yondin yig‘ildilar beadad
Qo‘l ushlashib yig‘lashib, bir-birga aylab madad
Shayton yo‘lig‘a bog‘lab himmat bilan ulug‘ sad
Jahr bo‘ldi ko‘b behad, yoriy berdi Muhammad
Yassaviy Xoja Ahmad shayxim sulton keldilar.

Tariqatga kirganlar bermas hargiz ozori
Kimni ko‘rsa qul bo‘lib, pinhon tutgan asrori
Kuyub, yonib, o‘rtanib, bir Xudog‘a qil zori
Kerak bo‘lsa diydori hozir bo‘lg‘il bedori
Mashoyixlar sardori shayxi zamon keldilar.

Uch yuz oltmish ming payg‘ambarlar, biling beshak yaqin
Jumlasin xoki lahadga mubtalo qilg‘on o‘lum.

Robbi orazin da’vo qilg‘on hazrati Muso qani
Nay kabi nolishga kirgan Dovudu barno qani
Haq rizosiga fido bo‘lg‘on Zabihullo qani
Ikki olam obro‘yi ul Rasulullоh qani
Ummati osiy g‘amida dodhox qilg‘on o‘lum.

O‘ttilar Jamshid-u Iskandar, shahi davron qani
Misr bozorig‘a o‘t solg‘on Ummi tobon qani
Hamzadek sheri dilovar sohibi maydon qani
Choryorimiz Abu bakr, Umar, Usmon qani
Haydari karrorni go‘r yerga jo qilg‘on o‘lim.

Intizori maqdimi sakkiz behishtni xasozini
Toj-taxtu bu jaxon bo‘lmay ko‘ziga arzini
Niholi bog‘i Fotima farzandi xos-ul Ali
Erdilar shahzodalar go‘yyokim ayni Ali
Shum Yazid dashti shahidi Karbalo qilg‘on o‘lum.

Kimki bu dunyoga keldi, davr jomin po‘sh etar
Dori Mansurg‘a osilg‘on qonidin gulpo‘sh etar
Qoriy, navbatdir sani xoki lahad og‘ush etar
Mashrabing ham kosai margi shahodat no‘sh etar
Balx aro Mahmud qo‘lida dodhoh qilg‘on o‘lum.

Muhammasi Qoriy bir g‘azali Shahidiy

Ishq o‘tig‘a o‘rtanib diyda-giryon keldilar
Fig‘on aylab bulbuldek xonavayron keldilar
Raqsi samo‘ charx urub sheri mardon keldilar
Zokir bo‘lib xalqag‘a jumla mardon keldilar
Davron olib o‘rtaga jonu jonon keldilar.

Vahdat sharobin totib, mastu mustafriq yotib
Ikki dunyo rohatin bir kosa mayg‘a sotib
Fano yo‘lig‘a kirib muo‘munni yo‘qotib

Soli bo‘lub Ho‘qan aro e’tibor,
Xuk-u sak-u asp-u baqar, mush-u mor...

Moli sag‘ir go‘shti balig‘din halol,
Yemaki-yu ichmakidur moh-u sol.

Do‘zax aro munga maqardur saqar,
Qon-u yiring oldidadur mohazar...

Yoshligida nomi edi Bulfuzul,
Hayf munga ismi Muhammadrasul.

Yozmaganim olti varaq band-band,
Hajvi ani tab’ima ermas Pisand.

MIRMAHMUD QORIY

Qoriy XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida yashab ijod etgan iste’dodli o‘zbek shoiridir. Shoir 1822-yilda Qo‘qonning Sarmozor dahasidagi Panjarasozlik mahallasida dunyoga kelgan. Otasi Mir Shamsiddin hunarmand kosib bo‘lgan. Mahalla masjididagi boshlang‘ich maktabda xat-savodini chiqargach, Hasanxon domla va Mullo Muhammad Niyoz qori domullo qo‘llarida ilmi qiroat o‘rganib, qoriyi murattab bo‘ldilar. Madrasai Buzruk Xoja va Madrasai Mirda tahsil olib, ilmi arabiy, forsiy, sarf, nahv, lug‘at va diniy bilimlarini o‘rgandi. Tahsil asnosi Abdulhakim Xalifa qo‘llarida tariqat maktabini ham o‘tadi, majzub ruhidagi so‘fiy bo‘lib yetishib, eshonlik martabasiga erishdi. Xonaqohda o‘tirmay, 1888-yilgacha G‘ishtlik Masjidda, so‘ngra uzoq yillar G‘oziyog‘liq masjidida imomlik qildi. Taqvoli porso kishi edi. Tazkiralarda bayon etilishicha u zot qilqalam xattot bo‘lib, ko‘plab nodir kitoblarni oqqa ko‘chirgan. 1906-yilda 82 yoshda vafot etgan. Katta izdiqom bilan Katta qabristonga dafn etilgan.

U so‘fiyona she’rlar yozgan. Devoni 1911-yilda Toshkentda chop etilgan. Madrasada tahsil olib yurgan chog‘laridan o‘zbek va tojik tilida she’rlar yozishga tutingan. Abdurahmon Jomiy, Mirzo Bedil, Navoiy, Amiriy, Zaliliy she’rlariga ergashgan. Qoriy xattot sifatida ham shuhrat qozongan.

Qoriydan bizga o‘zbek va tojik tillarda yozilgan she’rlardan iborat mukammal devon yetib kelgan. Bu devonning qo‘lyozma nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida inv. №2310, yana bir dastxat nusxa G‘.G‘ulom nomidagi Qo‘qon Adabiyot muzeyi fondida inv. №678 raqami ostida saqlanmoqda.

Qoriyning 1912-yilda topilgan dastxat devon tarkibida 227 ta g‘azal va 58 muxammas – jami 285 ta she’r mavjud. Bundan 275 tasi o‘zbek tilida, 16 ta muxammasi esa tojik tilida yozilgan. O‘zR FA ShI fondida № 9843 raqami ostida saqlanmoqda. Qoriy she’rlaridan namunalar “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasida ham e’lon qilingan.

Sham’i jamoling yonsa na bo‘lgay,
Tun kecha bo‘lsa parvonalarga.

Daryolar oqdi ashki ravondin,
Saqla qulungni rohi omondin,
Qoriyga ko‘rsat rohi omondin,
Mashrab sani deb o‘tdi jahondin,
Boshini qo‘yub ostonalarga.

Muxammasi Qoriy bir g‘azali Mashrab

Naylayin dod aylamay, tandin judo qilg‘on o‘lum
G‘am bila og‘ushta aylab benavo qilg‘on o‘lum
Ko‘chalarda zor-bedor, dod-vo qilg‘on o‘lum
Ushbu dunyoi bevafog‘a ko‘b jafo qilg‘on o‘lum
Hazrati Odamni ko‘rgul, yerga jo qilg‘on o‘lum.

Har kishiga Haq taolo necha kun berdi hayot
Bu o‘lum vobasta bo‘ldi, umrida yo‘qtur sabot
Mard-u maydon, sherdillar uchg‘ali tobmas qanot
Hech kim zolim o‘limni dastidin tobmas najot
Barchaga jabru- sitamni jo-bajo qilg‘on o‘lum.

Nuh payg‘ambar qani, gashtini ma’vo aylagan
Xud, Solih barcha kofirga nasihat aylagan
Lut qavmini duo birla neku nisor aylagan
Ul Halilullo qani, otashni gulzor aylagan
Bu ajal sayyodini domig‘a jo qilg‘on o‘lum.

Hazrati Idrisga jannatni qildi oshiyon
Yig‘latib Ya’qubni Yusuf g‘amiga inchunon
Qildi Yahyoni firoqida ko‘zidin xun ravon
Karamlarni amr etib, Ayyubni qildi imtihon
Oxiri umrin chirog‘in beziyo qilg‘on o‘lum.

Taxt-toj-u mamlakat, berdi Sulaymong‘a nigin
Ins-jin ko‘rdi bu davlatga, dedilar ofarin
Do‘st-u dushman birla obod ayladi ro‘yi zamin

G‘AZALLAR

Makonimni munavvar qilgali, ey yor, xush kelding,
Visoling sharbatig‘a aylading sarshor, xush kelding

Labolab to‘lganichun no‘sh etib jomi muhabbatni,
So‘ray, deb mo‘r holini Sulaymonvor, xush kelding

Alifdek do‘stni jon ichra jo qilsam munosibdur,
Ko‘ngil vayronasini tuzgali me’mor, xush kelding

Azizlar sunnati aftodalarni holini so‘rmoq,
Minib shabdizi himmat mardi maydonvor, xush kelding

Urub ko‘si inoyat, har tarafga aylading javlon,
Zihi baxting samandi bo‘ldi, xush raftor, xush kelding

Lab ochdim madh uchun bo‘lg‘ay munosib, garchi ahvolim,
Parishon hol ko‘nglum bo‘ldi fayz osor, xush kelding

Yoqib sham’i muhabbat bo‘ldi dil koshonasi ravshan,
Bo‘lub, ochildi go‘yo g‘unchalar gulzor, xush kelding

Muhabbat bog‘ini gulchini Qoriy do‘st yodida,
Necha daftar yozib ash’ori shakkarbor, xush kelding.

***

Yuzi, ey, mohitabon, bir kelib ket,
Ko‘zum yo‘lingda hayron, bir kelib ket.

Firoqing dashtida men zor-u sarson,
Tarahhum birla jonon, bir kelib ket.

Yuzing ko‘rmakka ko‘p mushtoq erurman,
Boshim uzra xiromon bir kelib ket.

O‘lar holatga yetdim furqatingdin,
Topib fursat shitobon bir kelib ket.

Umr o‘tdi, vaqt ketti, hech bedor bo‘lmading
Tegdi boshingga lahad, devori alzofing qani.

Naqshi odam, fe’li atvoring sani hayvon sifat
Nafs hammoli erursan, odam avsofing qani.

Maassiyat birla jarohat, bo‘ldi sartopo badan
Xokdin marham qilurga ashki xunboring qani.

Bor isyondin alifdek qomating bo‘ldi kamon
Ko‘p kattalik bandasan, xun jigar ohing qani.

Bargi sabzang yo‘q qo‘lingda, xashaku hol borasan
Karvon ketdi, qoldi Qoriyo, zoding qani.

MUXAMMASLAR
Mashrab g‘azaliga muxammas

Qilg‘il tarahhum so‘zonalarga,
Bag‘ri ezilgan giryonalarga,
Shohi jahonim hayronalarga,
Ko‘rsat jamoling mastonalarga
Ishqingda kuygan devonalarga.

Zikringda jonim topdi halovat,
Muflis gadoga qilg‘il saxovat,
Muhtoj erurman etgil karomat,
Mandin duoyi sandin ijobat,
Jonim tasadduq jononalarga.

Oshiqg‘a javring tark aylomoyin,
Qahru itobing ham aylomoyin,
Zulfi siyohing ham aylomoyin,
Ey bag‘ri qattiq rahm aylomyin,
Qilg‘il nazora bechoralarga.

Har tunda ohim olamg‘a to‘lg‘ay,
Nolafig‘onim yetsa na bo‘lgay,
Bu tashna bo‘lgon qosa na bo‘lgay,

Hamisha intizori maqdamingmen,
Ayo, ey shohi xo‘bon, bir kelib ket.

G‘amingda qolmadi bir zarra toqat,
Labi gul, g‘uncha xandon bir kelib ket.

Bu Qoriy xasratingdin kecha-kunduz,
Yonar chun sham’i so‘zon, bir kelib ket.

***

Jam’ bo‘lgon g‘unchalar, guldek parishon o‘lmangiz,
Andalibi xushnavo bo‘lg‘on gulafshon o‘lmangiz.

Sabzadin olam tamoshogoh, sayri bog‘ uchun,
Ochiling gul-gul davomat dog‘i xirmon o‘lmangiz.

Do‘stlar go‘yo banotun-na’sh bo‘stonlar aro,
Lola bargidek parishon, dillari qon o‘lmangiz.

Vasl bog‘i sabzu xurram gullar ochilgan kabi,
Sochilib har yon judolikdin pushaymon o‘lmangiz.

Sab’ai sayyoradek bir burjdin aylab tulu’
Dil uyini ravshan aylab, becharog‘on o‘lmangiz.

Oshnolik rutbasi bo‘lsin Musallam sizlara,
Nozaninlar zulfidek harona larzon o‘lmangiz.

Sayri gulzor aylagan bulbul kabi bo‘ston aro,
Betamoshoyi suman, besarvu rayhon o‘lmangiz.

Iftiroqi vaslidin ko‘ksi arodur lolani,
Qamchi urgan raxshdek haryona javlon o‘lmangiz.

Sayr etib obi ravondek kelsangiz Farg‘onaga,
Qorining bo‘stonidin g‘ayriga mehmon o‘lmangiz.

***

Tun oqshom nola qilsam bulbul-u parvonani o‘rtar,
O‘zimdek mubtaloyi ishq ko‘p so‘zonani o‘rtar.

Malomat teshasi bir sori, tekkan toshi bir sori,
Nayistondin chiqib o‘t, majnunu farzonani o‘rtar.

Sarosar g‘am bila og‘ishta bo‘lgan, so‘rma ahvolim,
Agar izhor qilsam oqilu devonani o‘rtar.

Xumorim haddin oshdi, iltifoting yor qil, soqiy,
Jununim zo‘ridin o‘t tushsa bu mayxonani o‘rtar.

Mani holimga rahm etsang na bo‘lg‘ay, xo‘blar shohi,
Fig‘onim kuydurur xushyor, ham mastonani o‘rtar.

Totib may qatrasin soldi tanobi ishq bo‘ynig‘a,
Analhaq shishasini sindurub paymonani o‘rtar.

Karam bobiga kelgan bo‘lmasun navmid, sultonim,
G‘ariblar ohidin olam kuyub koshonani o‘rtar.

Tuganmas qissalardur ishqidin motamsaro Qoriy,
Kuyub doshdin ayog‘ing daftari afsonani o‘rtar.

***

Bandalik lofin ursan, yaxshi kordoring qani
Gul kabi xandon yursan, diyda – giryoning qani.

Karvonlar orqasida markabing log‘ar sani
Yo‘l xatar borik zamon torik hamrohing qani.

Bo‘lmadi ravshan quduratlik parishon xotiring
Doimo g‘aflatda san, oyinai sofing qani.

Shahnishin taxt dilingni poki jorub etmading
Mehmon o‘lturgudek bir xonai poking qani.

2. “Sayyid Ja’far G‘oziy” dostoni.

3. “Haft g‘azot” dostoni.

Vahmiy lirikada Yassaviy, Boqirg‘oniy, Mashrab, So‘fi Olloyor, Huvaydo kabi so‘fiy shoirlar ijodiga ergashib, Allohni tanish, Haqqa oshiq bo‘lish, komil inson g‘oyasi, dunyoning o‘tkinchiligi, yaxshi amallar bilan yashash kabi yuksak insonparvarlik bilan yo‘g‘rilgan g‘oyalarni ilgari surgan. Uning she’rlari bizgacha juda oz yetib kelgan bo‘lsa-da, shularning o‘zi ham ijodkorning falsafiy mazmunda ijod qilgan so‘fiy shoir ekanligini anglab yetishga kifoya qiladi.

“Tazkirai Qayyumiy” asari №74-fiqrasida: “Umarxonning arkida bir marosim ijro etilib har tomondan fozillar, ajib va shoirlar to‘planib “maliku-sh-shuaro” Sultonxo‘ja Eshon Adoning taxti rayosatida adabiy majlis bo‘lub shoirlar o‘z she’rlarini o‘qub, tahsinga loyiq bo‘lganlar mukofotlanganlar”,-deyilgan.

Sultonxo‘ja Adoning vafoti 1835-1836-yillarga to‘g‘ri keladi, qabri Samarqandda. Hozirgi kunda O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar institutida №8200 va №4460 raqamlari bilan qayd etilgan devonlari, №8280, №4375, №9014 inv. raqamlarida mustazodlari saqlanadi. Ado she’rlarini adabiyotshunos Ergash Ochilov to‘plab nashrga tayyorlagan.

G‘azallar

Qomatingdak yo‘qturur ashjor gulistondin biri,
Mandak ermas bulbulu qumri-yu nolondan biri.

Shaq kamonlik mundoq etma zulm etib ey kiprik o‘q
O‘tdi ko‘ksumdin qadalmay shunda paykondan biri.

Gar sani qotil ko‘zung goh hanjare mujgon budur
Bo‘lki bir jon hech qutulmas bo‘lsa ming dondan biri.

Noz tamkini xiroming ko‘rmay o‘ldum, ey sanam,
Chiqmadi ko‘nglumdim oxir buncha paykondin biri.

Bazm oxir bo‘ldiyu maxmurlikdin chiqmading
Bizga hargiz yetmadi yuz jom davrondin biri.

Banda bo‘lmay naylasin qumri sanga, ey sarv qad
Qomatingga yo‘q barobar sarv bo‘stondin biri.

Bosh ayoq munqor o‘lubsan nay kabi, ammo na sud
Ey Ado, ul moh eshitmas yuz ming afg‘ondin biri.

***

Kelding, ey qosid, bo‘lub sen hudhudi shahri Sabo,
Marhabo, ey payki farruxfol oshiq, marhabo.

Xoma shaq o‘lgan til ila ne so‘zum aylar bayon,
Elt o‘zumni, noma etmas hech arzi muddao.

Ul quyosh yuz hajridin bir kecha hargiz ko‘rmadim,
Subh yanglig‘kim, emas pirohani sabrim qabo.

Lutf etib paymona ko‘zlar boqishidinki ko‘tar,
Notavon ko‘nglumga quvvat sensen , ey mijgon aso.

Men azaldin ishqin ettim ixtiyoru bilmadim,
Intihosiz ibtido erkan bu dardi bedavo.

ABDUQAYUM VAHMIY

Abduqayum Vahmiy mulla Razzoqberdi oxund o‘g‘li taxminan 1826-1827-yillarda Farg‘ona viloyati Quva tumani Bolali Qayrog‘och qishlog‘ida tavallud topgan. Uning otasi mulla Razzoqberdi oxund zamonasining talablari asosida chuqur diniy bilim olgan inson bo‘lgan. Qishlog‘idagi bolalarga saboq berib, savod o‘rgatib, maktabdorlik bilan shug‘ullangan. Shoirning onasi Latifabibi ham o‘z zamonasining bilimli, donishmand ayollaridan bo‘lgan. U shirali ovoz sohibasi bo‘lib, doston va qissalarni juda yaxshi aytgan.

Abduqayum boshlang‘ich maktabni tamomlagach, xonlik poytaxti – Qo‘qonga borib madrasa ta’limini olishga kirishadi. Madrasa ta’limi dasturi bo‘yicha yetuk bilimga ega bo‘ladi. Madrasada o‘qib yurgan kezlari, Qo‘qon adabiy muhitining mashhur vakillari bilan tanishadi va ulardan she’riyat sirlarini puxta egallashga intiladi. Agar Vahmiy XIX asrning 40-yillarida talaba bo‘lganini hisobga olsak, bu paytda Qo‘qonda Maxmur, Azimxoja Eshon, Qori Qunduzi Komiy, Behjat kabi o‘nlab iste’dodli shoirlar ijod etganlar. Yosh Abduqayumning ushbu shoirlar bilan hamsuhbat bo‘lganini, ular qatnashgan adabiy majlislarda ishtirok etganini taxmin qilish mumkin. Qo‘qon Abduqayum Vahmiy hayotida yana shunisi bilan ahamiyatli bo‘ldiki, u aynan shu yerda zamonasining mashhur shayxlaridan bo‘lgan Mahmud eshonga qo‘l berib, murid bo‘ldi. Shu yo‘l bilan tariqatga kirdi, tasavvuf maqomlarini bajarishga kirishdi, ma’naviy-ruhiy poklanish sari ilk qadamlarini qo‘ydi.

Abduqayum madrasani bitirgach, o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘iga qaytadi. Ko‘p yillar otasining maktabida bolalarni o‘qitdi, dehqonchilik bilan shug‘ullandi, keksayib qolgan ota-onasiga shu tariqa yordam berib yurdi. Ayni paytda u so‘fiyona she’rlar yozib ijodini takomillashtira bordi. U ikki tilda –o‘zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan. Shuningdek, Abduqayum Vahmiy taxallusi bilan ijod qilgan.

Uning bu taxallusni tanlashini tasavvuf ta’limotiga oshnolikdan deb taxmin qilish mumkin. Sulaymon Boqirg‘oniy Jomiy, Navoiy, So‘fi Olloyor asarlarini katta qiziqish bilan mutolaa qiladi. Ushbu shoirlarni o‘ziga ustoz deb biladi va ularga ergashib, she’rlar yoza boshlaydi. Shoirlar ichida, ayniqsa, Abdurahmon Jomiyga ixlosi baland bo‘ladi.

Shoir Vahmiy taxminan 1888-1889-yillarda vafot etgan.

Abduqayum Vahmiyning bizgacha yetib kelgan adabiy merosi quyidagilardan iborat:

1. Lirik asarlar.

Bu maydonda ko‘ngullarni urub chavgon go‘yi aylab,
O‘zi eltib yana bir chobuki choloka do‘ndurdi.

Tag‘oful ayla noz aylab ko‘zini gardishi birla,
O‘zi olamg‘a solib fitnalar afloka do‘ndurdi.

Olib qo‘lg‘a tarog‘ ko‘zgusini zohidi xudbin,
Quruq pechu hamin dastor ila misvoka do‘ndurdi.

Boqib holimg‘a karam iltifotidin solib o‘tlar,
Kulumni sovurub bul ohi otashnoka do‘ndurdi.

Ado, zinhor qo‘yma etokini tushsa ilgingga,
O‘zi eltib ko‘ngul dog‘i bir beboka do‘ndurdi.

Yor javru zulmidin ko‘b g‘am yebon sen ozmagil,
Ey ko‘ngil, zebandadur andin jafo, sendin vafo.

Zavraqi baxtim tabohi o‘lmay oxir naylasun,
Men g‘ariqi ishq, u begonalarga oshino.

Yo‘qturur inson taraqqiyu tanazzuldin bariy,
Yeru ko‘kni to yaratti Xoliqi arzu samo.

Gar Navoiyidin Ado so‘zin o‘tkarsa ne tong,
Shah Umar afzalmu yo Sulton Husayni Boyqaro.

* * *

Har qalandarkim, qo‘yor monandi shah bosh uzra toj,
Tarki dunyodin bo‘lur, ore kulah bosh uzra toj.

Shohi afg‘on gar emas majzub uni bechun bilur,
Elga bug‘doy xushasi tug‘, pargah bosh uzra toj.

Etti har mavje hubob kavsari janatga bahs,
Toki Yusuf maqdamidin topti chah bosh uzra toj.

Shohliqg‘a ot chiqardi ko‘tarib aftodalar,
Chun bilur naqshi qadamni xokrah bosh uzra toj.

Bir quruq zohidg‘a nedur muncha karru farr magar,
Bildi misvokini shayxi xonaqah bosh uzra toj.

Shohlardin g‘amz eli davlat libosin ko‘b kiyar,
Zardin olmish har mahakdek ro‘siyah bosh uzra toj.

Jomi Jam, Oyinai Iskandar etmaz orzu,
Maqdamingdin etti to ul borgah bosh uzra toj.

Iltifoting baski xossu omm aro yakson erur,
Gar budur xulqung topar yuz purgunah bosh uzra toj.

Durri ashkim ostoning yostanib topti shukuh,
Kecha-kunduz oh urar gar mehru mah bosh uzra toj.

Qul kabi shohlar ayog‘ig‘a yiqilmish, ey Ado,
To zumurrad xattin oldi ul mana(h) bosh uzra toj.

* * *

Kirdilar araqafshon sayr uchun nav o‘g‘lonlar,
Terga botsa shabnamdin ne ajab gulistonlar.

Nosiho, nasihatdin demakim, na bilmishlar,
Ishq ahlini qirgan tab’i nopushaymonlar.

Ko‘nglim ettilar yuz chok shonadek chaman ichra,
Sarvi qomati shamshod, kokuli parishonlar.

Boshqa ahdu paymondin garchi ettilar sizga,
Emdi g‘ayra qilmishlar boshqa ahdu paymonlar.

Mast otlanib chiqsa elga, rashkdin derman,
Keldi kofiri mastiy, qoching, ey musulmonlar.

Ul pari behisht ichra sayr etsa kavsardek,
Og‘zini ochib qolg‘ay barcha huru g‘ilmonlar.

Yig‘lasam chaman ichra la’lidin kelib etur,
Bo‘ldilar guhar afshon diyda abru naysonlar.

Ko‘nglum ochilur yuz bog‘ o‘qig‘a nishon etgach,
G‘unchadek terarman subh dasta-dasta paykonlar.

Bazm aro ulug‘lardin xil’at olsalar ne tong,
So‘zga kiygizurlar to‘n o‘qug‘onda xushxonlar.

Xo‘blarki bozori bo‘ldilar Ado aytur,
Sotqun olg‘uchilar mehr, javru zulm dehqonlar.

Doldek ayla , Ado, taslim alifdek rostdek,
Bosh-ayog‘ing dard o‘lub kel dinu oin ustina.

* * *

To chamanda terlarni ko‘rdi ul jamol ichra,
Bo‘ldi shabnamdin gul g‘arqi infi’ol ichra.

Mening uzra xat yo‘qtur bulki ko‘runur maddi,
Ul alif durur jonkim, yozildi bol ichra.

Ishq elidin mumtozi ne uchun erur majnun,
Soch qo‘yub alam bo‘ldi tug‘dek layol ichra.

Xo‘blar yuzu zulfin ko‘rsa jon berur oshiq,
Nega qisqadur umri muncha mohu sol ichra.

Soqiyo, kuduratlik bo‘lma yashmi Chiniydek,
Boda gar musaffodur quy sinuq sopol ichra.

Qoshingga bo‘ladi qurbon muncha zo‘r sarkashdur,
Halqa bo‘lmayin kelmas yo kabi xayol ichra.

Ko‘zidin nihon aylang o‘zni, ey musulmonlar,
Ne kofireki, mast o‘lg‘oy, ne qilur qitol ichra.

Oyu kun sanga ko‘zgu, tun kun bo‘lolg‘oymu,
Bemisolroqdursen jam’i bemisol ichra.

Og‘zi so‘z dedi, kuydum nega hech deyolmasman,
Bo‘lmasa Ado bir so‘z necha ehtimol ichra.

* * *

Dema yolg‘uz ko‘zi mast etti bizni toka do‘ndurdi,
Labiyu xoli ham gulqand ila taryoka do‘ndurdi.

Bu bazm ichra qani mutribki, mizrob ursa soz uzra,
G‘ami tirnog‘larni siyah sad choka do‘ndurdi.

Telba ko‘nglum o‘tluq oh uzra chekar javvolalar,
Chanbar etgandek gado shoxin tabalg‘u ustina.

Ko‘ngluma qon yoshlarim g‘avvosidurmu yo magar,
Tifllar jam o‘ldilar bir telba soyru ustina.

Zaxmlig‘ ko‘nglum demas Afrosiyob g‘amini g‘am,
Ne bo‘lur Rustam amudi kelsa Barzu ustina.

Qo‘y labing xolini jonim tilim birla yalay,
Bas g‘alatdur nuqtani qo‘ymoqlik abro‘ ustina.

Ko‘zlaring suvina kirpiklar qamishdin sol erur,
Qoshlaring ul jim Adokim yozdilar jo‘ ustina.

* * *

Ko‘zlaring fag‘furi Chin, qosh chatri mushkin ustina,
Sargahi jimidur yokim jahonbin ustina.

Nildinmu tegmasun ko‘z deb ikki xat qosh uza,
Yozdilar ikki zabarmu nun-u tanvin ustina.

Mimdiyek bo‘ynin agar mendek bukim mehr uzradur,
Kofdek sarkash bo‘lur ulkim erur kin ustina.

Ul sipehri husn ilki jabhadin tirmu to‘kar,
Yoki yangi oy egilurmu iqdi Parvin ustina.

Telbarab turgan ko‘z uzra bo‘ldilarmu yoshlar,
Yo yig‘ilgan tifllardurmu majonin ustina.

G‘amz ila etma vaziringni necha hayvonga xor,
Filmu ot o‘ynatma ko‘b, ey shoh, farzin ustina.

Bu ne ta’siri nafasdur har qachon qilsam duo,
Maddek kelmish ijobat anda “Omin” ustina.

Kirpigimg‘a o‘yna ashkim yod etib ul tiflning,
Yoshlaridek bu qamishdin ot etib min ustina.

* * *

Tishlari siy pora Mus’haf, og‘zi “mim” ustindadur,
Xatti “bismillohir rahmonir rahim” ustindadur.

Abrash uzra o‘tti shohin, istab o‘ldum xush dimog‘,
Bog‘i jannat ququsi dersen nasim ustindadur.

Kulma, zohid, osiy ummatlarg‘a toat yuzidin,
O‘n kishidin o‘zgasi ummedu bim ustindadur.

Ko‘zi “ayn”, andin burun yoy aksi, og‘zi “mim”,
Qoshlari ul “nuna” bingzarkim, na’im ustindadur.

Fikrig‘a bo‘ynumni egdi nuqta yanglig‘ dog‘i ishq,
Dil erur boshimg‘a bir zehni salim ustindadur.

Ko‘z ko‘ra ko‘rdi dedi, manga tiling birla yala,
Chun g‘alatdur nuqtai xolim labim ustindadur.

Egarini holai ko‘k , otni ko‘k desam ne tong,
Chunki movut shim kiygan mahvashim ustindadur.

Dudi ohim nay kabi ko‘kka chiqarib qo‘yma ko‘b,
O‘tni qo‘y uch nuqta yanglig‘ kim chilim ustindadur.

Lam’ai barq birla o‘lgan ra’d aylabsen gumon,
Ey Ado, bildingmu ul abrashni kim ustindadur.

* * *

Samondin par dema ko‘zi uchar vaqtida bol etmish,
Ko‘zu qosh o‘rtasida xas tushirmog‘liq hayol etmish.

Azal naqqoshi tasvir aylamakka safhai husnin,
Ko‘zini kunjida “ze” nuqtasidek turfa xol etmish.

Nizor o‘lg‘on tanimg‘a kulmangiz, ey sho‘x navxatlar,
Qalam yanglig‘ yaratgan sarni bu jismim yol etmish.

Beling fikrig‘a andoq notovonliq birla uldurkim,
Yetishga mur jismim tobsa qabrinda xilol etmish.

Ajab yo‘q husnidin gar yuz balo yog‘dirsa olamg‘a,
Qazo bir oy boshida qoshidin ikki hilol etmish.

Qading tubiy, labing kavsar, ruhingni aylagan jannat,
Qaro holingni ul kavsar qarog‘ida hilol etmish.

Borur Qorun kabi zar keynidin bir kun yer ostida,
Tanin pomol qilurg‘a bilmay, ulkim, jam’ mol etmish.

Adam mulkig‘a anqo kirpigidin aylabon xoma,
Belu og‘zingni naqqoshi azal beqilu qol etmish.

Bu yoqdin xol niyozidir, u yoqdin bo‘lsa nasri din,
Ikki qomat alif dardi ado qaddini dol etmish.

* * *

Bezarda husnini kim aylasun so‘rog‘ tarog‘,
Ko‘ngulni choki durur zulfidin tarog‘ tarog‘.

Bahor fasli arusini zeb sumbulig‘a,
Chinoru tokni bargidin etti yog‘ tarog‘.

Erur magarki rasantoblarni shogirdi,
Tushar ketga qo‘yub bosh sari ayog‘ tarog‘.

Ne choklarni hazin ko‘ksi ichra asramadi,
Sochti fikrig‘a andishasi uzog‘ tarog‘.

Yuzini shulasidin muztarib edi zulfi,
Tutung‘a chirmashibon yondi log‘-log‘ tarog‘.

Ko‘ngul qushini butun sayd aylabon tilamish,
Ki zulfi xalqasidin qo‘ydi yuz tuzog‘ tarog‘.

Sochini kechasi az bas Ado qorong‘u durur,
Borolmas oldig‘a yondurmayin chirog‘ tarog‘.

Yuzin ko‘rgach, Ado so‘rdum, manga ul xo‘blar shohi,
Dedikim, axtar mulkida mehri xovarondur bu.

* * *

Bir ul yor ila, ey ko‘nglum, muhabbatning hujuminda,
Tanu jon chun bir etmakdur xususiyat g‘umuminda.

Buzuq ko‘ngumga yuz ganji saodatg‘a ketur ermish,
Humo iqbolidur bu marzibuming chug‘zu buminda.

Kel, ey zohid, pari ruxsorlarni bo‘yidin kechma,
Bu lablar shahdi yo‘q jannatni bog‘ining uzuminda.

Kishi bilsa sarosar shahdi nobi obihayvondur,
Muhabbat jomining moidasi zahri zaquminda.

Naboti Misru nayshakardin, ey shirin suxan, so‘rma,
Labingning ta’mi shahdi yo‘q suchuklar tu’uminda.

Halovat istagan ozodadin ko‘broq tilinmog‘lar,
Tafovut kammidur nomi ila nayshakar bo‘g‘uminda.

Ado, sen har g‘azal etmakda manzuri nazar ayla,
Amiru-l-muslimin allomadur bu fan uluminda.

* * *

Og‘zining ul “mim”idurkim, yozdilar mo‘ ustina,
Kirpiging ham ul “alif” yanglig‘ ohu ustina.

Subh boshig‘a quyoshdin urdimu gul toki xud,
Takya qildim senmu bolinu parqu ustina.

Nazmi oyat intixob etgan muxammasdur namoz,
“Sod” yetmishlar bukim Qur’onda “sallu” ustina.

Ko‘zlarim zahrini tobtim, qo‘y banogushing o‘pay,
Sutni ichmak rasm erur hikmatda og‘u ustina.

Oy quyoshdin nur kasb etsa, quyosh ham kasb etar,
Ko‘zlarimdin nur ul neku jamol ehsosidin.

Yuz o‘luk ko‘ngulni tirgizsa labi so‘zdin, ne tong,
Ko‘b o‘lukka jon berur, ore, Masih anfosidin.

Go‘sha tutgan ahli tamkin naylasun nomu nishon,
Qof ham hayratda qolmish ranj aro anqosidin.

Bir Xudog‘a har kim insondur qochib eltar panoh,
Yuz havodis sahmi kelsa charxning quvosidin.

Shashdar etgan ahli olamni ajab mansubadur,
Oyu kunni ko‘r ka’batayn, ko‘r falakni tosidin.

Umri jovid istasang, etgil ko‘ngullar xizmatin,
Jon demishlar nafslarni ko‘ngullar yosidin.

Har siyodat ahli bo‘lmaslar riyozatsiz valiy,
O‘xshamas eshga ipak ham to orimay losidin.

Ul quyoshning borgohin ko‘r munaqqashdo‘zlar,
O‘tkarurlar sim anjumdek falakni karbosidin.

Gar Umar sultonni nasru nazmin eshitsa Ado,
Nasri Somoniy deyolmas Abu Ali Sinosidin.

* * *

Ruxung nedur, desam, der, ravzai bog‘i jinondur bu,
Nadur zulfung, desam ham, derki, umri jovidondur bu.

Iki xolini ko‘rdum, kunji labga surdum, ul gul aydi,
Sharaf burjida ikki axtari sohibqirondur bu.

Quyosh yuzini ko‘rgach, bo‘ldi bosh ko‘zga, vale, ul gul,
Yuzum ko‘rgach, kular go‘yoki sayri za’farondur bu.

Ko‘ngul bexudliq etsa, rindlar, ayb etmangiz hargiz,
Labining yodidan chun sarxushi ratli garondur bu.

* * *

Ko‘rsun ul yuz ollida zulfi parishon o‘ynamoq,
Ulki, hargiz ko‘rmamish kufr ila iymon o‘ynamoq.

Ko‘zi qattiq muddaiyni ko‘rgasen ko‘nglum tila,
Ko‘rmagan bo‘lsang agar minoyi sandon o‘ynamoq.

Vaslining tunida sen qoshingni qoq, ko‘ksum tutay,
Surlarda rasm erur tig‘ ila qalqon o‘ynamoq.

Ey ko‘ngul, ul ko‘zlari sho‘x ila hargiz o‘ynama,
Kofir sho‘x birla ne lozim musulmon o‘ynamoq.

Ko‘r zanaxdoningni zulfung birla yuz maydonida,
Ko‘rmagan bo‘lsang agar go‘y ila chavgon o‘ynamoq.

Gulshani vaslingda ko‘nglum har tarf javlon qilur,
Parvarish aylar, bale, sayri guliston o‘ynamoq.

Tolning bargi kabi titrab ilimda jon erur,
Bormukin imkon, Ado, men birla jonon o‘ynamoq.

* * *

Karkni shoxi kabi misvoku dastorin ko‘rung,
Bul quruq zohidni naxvat bila pindorin ko‘rung.

Xonaqaxda ko‘burub xulqi nashora to‘ldurur,
Jahriya shayxini xush dandona minshorin ko‘rung.

Bog‘a ne nisbat gul andomig‘a sarvu g‘unchaning,
Eshitib guftorini siz, gohi raftorin ko‘rung.

Yuziga bahs etti bog‘lab, shahar aylanturdilar,
Gul qulog‘iga qoqilgan xori mismorin ko‘rung.

Naxli qaddin bog‘boni sun’ payvand aylamish,
Pistavu bodom birlan olmavu norin ko‘rung.

Qoshu kirpikni kamandek tir etar jon qasdig‘a,
Ul sanamni nargisi joduyi ayyorin ko‘rung.

Gul erur ushshoqlar boshig‘a har itning izi,
Ko‘yida ahli vafoning qadru miqdorin ko‘rung.

Notovonlig‘din agarchi kirpigin aylar aso,
Qon yutar parhez etmay, chashmi bemorin ko‘rung.

Husnining boricha zulm etmas tarahhum aylamang,
Siz Ado holig‘a boqmang, nozanin borin ko‘rung.

* * *

Ey ko‘z, ayla mardumliq, ul sanamni mehmon qil,
Vey sharar fishon ashkim yo‘liga charog‘on qil.

Ko‘nglim, emdi chun boshqa tushti ishq savdosi,
Boshqa boru yo‘qdin kech, naqdi dog‘i somon qil.

Ey nigor, sen emdi muncha ham kabob etma,
Sho‘r etib tabassumdin ko‘nglimni namakdon qil.

Bog‘a kir ochib ul yuz, la’lidin tabassum et,
Gulni ko‘nglini yuz chok, g‘uncha bag‘rini qon qil.

Hirsu ozdin o‘tgil, rizq ko‘pu ozi bas,
Ey ko‘ngul, o‘lub qone’ mushkulini oson qil.

Inu on demas oshiq, xohi qo‘yu xohi so‘y,
Xusn ichra yaktosen har na bilganing on qil.

Ey ko‘z, emdi qon yig‘lataganing guliston et,
Ey ko‘ngul, fig‘on aylab, bazmini namoyon qil.

Naqdi jon berib qiymat la’lini o‘pa olmon,
Ey xat, emdi dallol ul narxi bo‘sa arzon qil.

Bir qalam qadam qo‘yg‘il mashqi noz etmakka,
Tifl ashkidin, jono, ko‘zlarim dabiston qil.

Ishq keshida mumtoz kimdur, ey kamon abro‘,
Tiri ro‘yi tirkashdek imtiyozi aqron qil.

Zulfidin, Ado, xar tun munchakim parishonsen,
Dudi ohini tarqat, sarvi sumbuliston qil.

* * *

Umar sulton, iloho, to jahon boricha bor o‘lsun,
Humoyun davlatila komronu komkor o‘lsun.

Falak Oyu Quyoshi ikki o‘chgan shamdur ko‘zga,
Kecha-kunduz yuzungni ko‘rmasa ne ro‘zgor o‘lsun.

Xirom ayla hayo parvardi naxlim subhi bog‘ ichra,
Ki gullar shabnamidin terga botsun, sharmisor o‘lsun.

Muhabbat ahlig‘a gar xor bo‘lsang ayni izzatdur,
Aningdur e’tibori nechakim bee’tibor o‘lsun.

Dedim ko‘ngulg‘a, vaslin ixtiyor etmasmusen, aytur,
Aning yori bilur ishq ahliga beixtiyor o‘lsun.

Xizrdek gulshan ichra , yo Rab, sabzu xurram bo‘l,
Niholi umrungga hayvon suvidek obyor o‘lsun.

Agarchandi jahon simob yanglig‘ beqaror ermish,
Sanga bul toji taxt baxtu iqbol barqaror o‘lsun.

Duo ayla, Ado, bul shohi bahru barni sen tinmay,
Sikandardek, Iloho, Xizri maqdamg‘a duchor o‘lsun.

* * *

Charx tutmish ko‘k hilolin sudi yo‘q savdosidin,
Chorsuyi dahrakim kirdi kesar paydosidin.

Kecha yorim bo‘ldi yorim, kelmadi men bilmadim,
Shum raqib ig‘vosidinmu yo o‘z istig‘nosidin.

G‘AZALLAR

Qo‘ydi to shahzodai sohibkulah bosh uzra toj,
Qaysar-u Xoqona bo‘lmishdur tabah bosh uzra toj.

Surma qilg‘aylar parivashlar yo‘li tuprog‘ini,
Gar qo‘yub chiqsa pari ohunigah bosh uzra toj.

To kalomi Isaviy yorim chiqar me’roj uza,
Naqshi poyidan qilur xurshidu mah bosh uzra toj.

Shahriyorim har na kiysa, afsari iqbol erur,
Xoh kesh bo‘rkin qo‘yor, xohi kulah bosh uzra toj.

Shohlarning afsari taxtin qilur zeru zabar,
Qo‘ysalar sulton Umarxon podshah bosh uzra toj.

Sursa himmat raxshini maydona ul chobuksuvor,
Markabi na’lidin etmishlar sipah bosh uzra toj.

Afsari shohiy sazovori Umar sulton erur,
Andin o‘zga har kima bo‘lur tabah bosh uzra toj.

Har kimi qadricha bichmishlar azal xayyoti to‘n,
Podshahlarkim, qachon qo‘yg‘ay sipah bosh uzra toj.

Men kabi Ma’yus kesh bo‘rkin tamanno qilmasun,
Qo‘ydimu hargiz gadolar hech gah bosh uzra toj.

* * *

So‘rmadi holimni, yo Rab, oshnolardin biri,
Bir nazar ham solmadi ul bevafolardin biri.

Zulf-u ko‘z-u qomatin, vaslin tilab qildim duo,
Yo Rab, o‘lg‘oymu ijobat bu duolardin biri?

Intizor ila qarordi ko‘zlarim hijron tuni,
Bir nazar solg‘oymu deb ko‘zi qarolardin biri.

“Sayyid Ja’far G‘oziy” dostonidan parchalar

Yo Alloh, deb Sayyid nolishqa kirdi,
Ki zindonni ichi jumbushqa kirdi.
Sayyid duosini Alloh taolo,
Qabul qildi o‘shal soat banogo.
Zindonning ichidin bir yer yorildi,
Sayyid karomatini barcha bildi.
Xudoni qudratini qilg‘il tamosho,
Ki bir qo‘l bo‘ldi paydo anda nogoh.
O‘shal qo‘lda bir taboq oshu bir non,
Dasturxon birla ul chiqdi o‘rolg‘on.
Behisht ne’matlaridin erdi ul osh,
Ani ko‘rgan kishilar to‘kdi ko‘z yosh.

***

O‘qub Zabur, Tavrot, yana Injil,
Tamomin yod qildi ul rasodil.
Agar Qur’on o‘qusa ul boyakbor,
Har odam eshitib yig‘lar edi zor.
Eshitsa ul havodagi uchar qush,
Yiqilurdi bo‘lib lol, aqli behush.
Xudoi bokaram dozandai roz,
Berib erdi anga bir yaxshi ovoz.
Olib aso chiqib boloi minbar,
Qilurdi xutbaxonluq Sayyid Ja’far.
Eshitsa har kishi yig‘lar edi ul,
Ko‘zin yoshig‘a yoqosi bo‘lib ho‘l.
Ajoyib xushovozu ul neku huv,
Har odam ko‘rsa qilg‘ay erdi orzu.

***

Duog‘a qo‘l ko‘tarib anda G‘azbon,
Sig‘inib dedi yo qudratli Yazdon.
Ani saqla, dedi jumla balodin,
Jahonda har nai jabru jafodin.
Xudoyo, sendin o‘zga yo‘qtur g‘amxo‘r,
Anga bo‘lg‘il, dedi doim madadkor.
Qilib fotiha ul G‘azbon dilovor,
Duo aylab, dedi Allohu Akbar.
Sayyid Ja’farga G‘azbon berdi ruxsat,
Bahodur bo‘ldilar ul mohi san’at.

***

Qamarshoh ham quloch yozib yetushti,
Salom aylab Sayyid birla ko‘rushti.
O‘shal dam shodiyona cholduribon,
Sayyidni keldi shahriga olibon.
Qamarshoh yig‘di darhol lashkarini,
Hama shahrindagi yoshu qarini.
Kelurdi barchasi ixlos qilibon,
Sayyidning oldida bo‘ldi musulmon.

***

Necha kunlar yurub manzil ba manzil,
Qamarshohni shahrig‘a yettilar, bil.
Ki biro dam qo‘sh haydabon turardi,
Sayyid oni Qamarshohga yubordi.
Aning yuzi ki olmadek qizorib,
Qamarshohdan suyunchi oldi borib.

***

Olib moli g‘animatlarni bisyor,
Makkatullog‘a keldi Sayyid abror.
O‘shal soat kirib saodat,
Makkatulloni qildilar ziyorat.
Yana qaytib chiqib ul Sayyid abror,
Besh yuz tevani kelturub boyakbor.
Faqirlarga darveshlarg‘a berurdi,
Sayyidga barchasi duo qilurdi.
Ki andin so‘ng Madinag‘a yetushti,
Besh yuz moyani Sayyid anda ulashti.

***

O‘shal kecha Sayyid bir toqqa chiqib,
Yarim kechada keldi na'ra tortib.
Xuvorijlar eshitib bo‘ldi hayron,
Sayyid bul so‘zni aydi hayquribon.
Xuvorijlar, biling bir xudoni,
Yaratdi beustun arzu samoni.
Ko‘ngilni qo‘ymagil nafsi havog‘a,
Ki iqror bo‘l Muhammad Mustafog‘a.
Xuvorijlar eshitib bo‘ldi g‘amgin,
Sayyid urdi o‘shal kecha shabaxun.

Norbo‘taxonning jiyanlari bo‘lmish Xon Xoja Otaliqqa boja bo‘lgan ekanlar”.

Tazkirada shoirning “So‘rmadi holimni yo Rab oshnolardin biri…” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining 6 bayti, Fuzuliyning ro‘za haqidagi “Fikrdin bo‘ldi bugun boshima ulfat zonu…” deb boshlanuvchi g‘azaliga bog‘lagan 6 bandlik muxammasi keltirilgan.

MA’YUS

“Ma’yus Xo‘jandiy (1785 yoki 1790 – 1870) taxallusi bilan ijod qilgan Mir Asad Xo‘jandda tug‘ilib, avval oilada boshlang‘ich savod chiqarib, keyin ona shahridagi madrasalarda tahsil olgan. Otasi To‘raxon eshon Xo‘jandning fozil kishilaridan bo‘lgan. Nomiga Xoja so‘zining qo‘shib aytilishi ham uning oliynasabli xonadonga mansubligidan guvohlik beradi. To‘ralar naslidan bo‘lgani uchun To‘raxon, To‘racha deb ham atashgan. Madrasa xatmidan so‘ng o‘sha davrning ilmu adabi markazlaridan bo‘lgan Qo‘qonga borib, Amir Umarxon saroyiga yo‘l topadi va iste’dodli shoir sifatida taniladi. P.Qayyumov ham uning aslzodalardan bo‘lib, xonga yaqin a’yonlar jumlasidan ekanligini qayd etadi. Umrining so‘nggi yillari Xo‘jandda o‘tib, shu yerda vafot etgan.

“Majmuai shoiron” tazkirasida uning shoirlik salohiyatiga yuksak baho berib, ta’bi nazmidan namuna sifatida o‘nga yaqin g‘azallarini keltiradi.

Erur To‘raxon nasli oliy tabor –
Ki, ash’or bobida diqqatshior.
Aning barcha arbobi lafz oshno,
Xitob etti Ma’yusi ma’nirabo.
So‘zi ani har yerda ko‘ngul ochar,
Xayol etsa ash’or durlar sochar.
Erur bu g‘azal ani tasnifidin,
Muarro erur xalq ta’rifidin.
Eldin oshurdi g‘azal rutbatin,
Qilib shoh she’rini tab’iyatin.

Ma’yus Xo‘jandiy zullisonayn shoir bo‘lib, o‘zbek va tojik tillarida birday mahorat bilan qalam tebratgan. Amir Umarxonning g‘azallaridan biriga bog‘lagan taxmisida o‘zining sohibdevon ekanligiga ishora qilsada, devoni hozirgacha topilgan. Shoir she’rlari asosan turli bayoz, to‘plam va tazkiralar orqali bizgacha yetib kelgan. Jumladan, Fazliy o‘z tazkirasida uning 8 g‘azal, 2 qasida, 2 muxammas va 1 mustazodini keltiradi”.

“Tazkira Qayyumiy”ning №99-fiqrasida shoir haqida quyidagicha ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin: “Domullo To‘raxon – Ma’yus Umarxon saroyidagi kuchli alloma va shoirlardan biri bo‘lganlar. Tazkiralarda hayotlari xaqida ma’lumotlar juda kam. Shahar fozillarining aytishlaricha, bu kishi Hasaniy sayyidlardan bo‘lib, Jo‘xori Kappon yaqinida istiqomat qilganlar. Otalari Mashrabxon To‘ra

***

Meni bir ish uchun kim yaratibdur,
Hanuz ul ish tamom bo‘lmay turubdur.
Tamom bo‘lmaguncha hech o‘lmagayman,
Quloq solgil, senga bu so‘z degayman.
O‘shal ish chun tamom bo‘lsa ko‘rarman,
Ki andin so‘ng zohirimda o‘larman.

***

Ilmi hikmat bu ilmi qoldin ermas,
Ilmi hikmatni bilgay rahnamolar,
Ki hol yo‘linda dol sham’e safolar
Kirar ba’zi “qol”din “hol” yo‘liga
Olib sham’e safoni yo‘llarig‘a
Yurarlar ba’zi olim “qol” yo‘linda
Kecha-kunduz havoyi nafs kuyinda.
Haqiqat ilmdin ul bexabardur,
Havoparvar kishilar govu hardur.
Majoziy ilm o‘qub shayton mal’un
Haqiqatdin xabari bo‘lmadi chun.
Majoziy ilm chunkim ilmi shayton,
Haqiqat ilmi chunkim ilmi rahmon.
Majoziy ilm chunkim ilmi “qol”dur,
Haqiqat ilmi chunkim ilmi “hol”dur.
Zabardast piri komil avliyolar,
Ki hol yo‘lig‘a kirgan rahnamolar.
Tamomi rohizonlar “qol” yo‘linda,
Ki fitna shamshiri bordur qo‘linda.
Tamomi piri komil “hol” yo‘linda
Ki g‘ayb shamshiri bordur qo‘linda.
Xudoni qahrig‘a uchrasa har jon
G‘ayb shamshiri anga tekkay kelibon.

***

Tammom nag‘orachini qildi tayyor,
Yana do‘mbirachi, bir necha ayyor.
Kelib qaysar xilob qildi solib ko‘z,
Nog‘orachi turubdur o‘n besh yuz.

HOZIQ

Bu davrda ijod qilgan shoirlardan yana biri Hoziqdir. Uning asl ism-sharifi Junaydullo Islomshayx o‘g‘li. 1793-1800-Buxoroga kelgan va madrasada tahsil ko‘rgan, tib ilmini o‘rgangan, she’rlar mashq qilgan. “Hoziq” taxallusini ham shu yerda olgan. “Hoziq” so‘zi “mohir”, “bilimdon”, “o‘z hunarining ustasi”; “itoatkor”, “yuvosh” degan ma’nolarni anglatadi. Bunday taxallusni olishiga tabiblik bilan shug‘ullangani ham sabab bo‘lgan. Madrasani tugatgach, shu madrasada imomlik qilgan va Amir Haydar saroyiga yaqinlashgan. 1818-yil saroy a’yonlari bilan kelisha olmay, Qo‘qonga ketgan. Umarxon uni yaxshi kutib olgan. Hoziq Buxoroda boshlagan “Yusuf va Zulayho” dostonini Qo‘qonda tugallab, Amiriyga tortiq qilgan.

Hoziq o‘zbek va fors tillarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Zebuniso she’rlariga muxammaslar bog‘lagan. Lirikasi rang-barang, unda zamon norasoliklari, johil va odil hukmdorlar haqida mulohazalar bildirilgan, sevgi va muhabbat tarannum etilgan. She’rlarida zamonasidagi hukmdorlarni adolatga undagan. “Yusuf va Zulayho” dostonida o‘zining ijtimoiy-falsafiy mulohazalarini, zamon va hukmdor haqidagi fikrlarini bayon etgan. “Voqeoti islomiy” va “Avlodlar shajarasi” risolalari tarixiy-biografik xarakterda. Mahmud Chag‘miniy (XI asr)ning tibbiyotga oid arab tilida yozgan “Qonuncha” asariga fors tilida “Tahqiqu-l-qavoid” (“Tabobat asarlarini o‘rganish”, 1822) nomli sharh yozgan.

Hoziq zullisonayn shoirlardan. Uning o‘zbekcha va forscha she’rlaridan tuzilgan devoni RosFA ShI Sankt-Peterburg bo‘limida, „Yusuf va Zulayho“ ning 7 qo‘lyozmasi O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar institutida, 2 devoni Xo‘jandda, Konibodom shahridan topilgan kulliyoti esa xo‘jandlik adabiyotshunos, E.Shodiyev qo‘lida, ayrim she’rlari O‘zR FA ShI dagi qo‘lyozma bayoz va majmualarda saqlanadi.

O‘z davrida boshqa shoirlar ham uning she’rlariga muxammas bog‘lagan. Chunonchi, Ahmad Tabibiy Hoziqning “etmas” radifli g‘azaliga taxmis bog‘lagan.

“Majmuai shoiron”ni tuzishda Hoziq masalasidagi she’riy fiqralar Xotif Xo‘jandiy tomonidan yozilgan. Xotif shoir Junaydullo Hoziqning qasidasidan oldin uni olqishlab masnaviy bitarkan, “sabt etilajak qasidada u shunchalik qudrat ko‘rguzdiki, bu ro‘zgorning andishalaridan ham ko‘proqdir”, deb Hoziqni tahsin-u ofarinlarga munosib donishmand ijodkor sifatida e’tirof etadi.

Faqat qayrilma qoshdin o‘zgaga mast etmagay sajda,
Shuning-chun bosh egar may dargahiga rindi mastona.

Erurlar boshqa olam qavmidin ma’noga oshiqlar,
Chivindek bo‘lma, ey Mahzuna, sen sahboga parvona.

Tutmasam farmonini mardud etib, aylar g‘azab,
Juz rizoyi do‘st ishq ahlig‘a ne bo‘lg‘ay talab,
Chiqqali islomdin zunnor bog‘lab ,yo‘q ajab,
Manki bir din ofati tarsoya oshiq bo‘lmisham.

Fazliy va Mahzunaning savol javobi

Fazliy:Yuz ofarin so‘zungga lubbi lubob ko‘rmay,
Arzi jamol etarmu oyina ob ko‘rmay?
Mahzuna: Kimdin chiqar bu so‘zlar bag‘rin kabob ko‘rmay,
Ganj o‘lmag‘ay muyassar holin xarob ko‘rmay.
Fazliy: Masturai suxang‘a po‘shidalig‘ munosib,
Ma’ni arusini, bas, men beniqob ko‘rmay.
Mahzuna: Yo‘q aybi so‘zlarimni gar bo‘lmasa muaddab,
Andoqki, o‘t ko‘kargay hech oftob ko‘rmay.
Fazliy: Maygun labing hadisi mast etti g‘oyibona,
Kayfiyat o‘ldi zohir jomi sharob ko‘rmay.
Mahzuna: Bir vajhi buki, tab’im xom asramish zamona,
Charxi sipehrdin ul hech pechu tob ko‘rmay.
Fazliy: Mundog‘kim nuktadonsan, kim erdi ustoding,
Oy kasbi nur qilolmas to oftob ko‘rmay.
Mahzuna: Ko‘b nahrlar yig‘ilsa, daryoi purdur o‘lg‘ay,
Ilm ahlidin bu miskin bir shayxu shob ko‘rmay.
Fazliy: Bir nukta ayla zohir, Fazliyni qo‘yma Mahzun,
To ketmayin Namangon sandin javob ko‘rmay.
Mahzuna: Baytu-l-hazan ichinda uzlat tutib bu Mahzun,
Fazli ilohidur bu yo‘qsa kitob ko‘rmay.

Sahboga parvona

Emasman charx davri ichra maydin hech begona,
Quyoshning kosasidek o‘ynagay qo‘limda paymona.

Topilmas rangi sarg‘aygan kishi mayxonamiz ichra,
Agar jo‘sh ursa mayning himmati majlisda mardona.

Chirog‘i davlati o‘chmas sira sarsar shamolidin,
Agar maydin kishining jomi ichra tushsa durdona.

G‘AZALLAR

Dimog‘im illatin, bag‘rimni dog‘in may iloj etmaz,
Kavokib gardishidindur bu g‘am vaz’in mizoj etmaz.

Dema toji erur shahning g‘am o‘di boshina chixmish,
Bu ma’ni joniga kim ravshan o‘lsa taxtu toj etmaz.

Namozu ro‘zadin bag‘rin o‘lan oshiqlari so‘rma,
Nechukkim podshoh vayron o‘lan yerni xiroj etmaz.

Fano ahlig‘a xavfi vormu shayton birla tangridin,
Ki o‘g‘ri muflisi toroj qilmas, shoh boj etmaz.

Kel, ey Hoziq, bu dunyoni taloq et, kimsa er o‘lsa
Er o‘lub bu taliqa-la bisoti izdivoj etmaz.

* * *

Muhabbat mehnatin bilgan kishi rohat pisand etmas,
Achiq may istagan maxmur tab’i mayli qand etmas.

Bu shaydo ko‘nglimi chun bog‘ladi zunnori zulfi-la,
Kishi devonani zanjir ila bu nav’ band etmas.

Asoye notavon ko‘nglumg‘a berdi qomating shavqi
Bu yanglig‘ nola jurat yo‘qsa mandek dardmand etmas.

Senu kavsar ziloliyu, menu oning labin zavqi
Netay, ey zohid, andin o‘zga yerni ko‘nglum pisand etmas.

Kel, e, noseh, eshnt pandim o‘zing, devona bo‘lmishmen,
Nechunkim bilmading devonalarga sud pand etmas.

Xudoyo, asrag‘ilkim, bir baloyi nogahondur bu.

Malomat o‘qlari yuz pora ko‘nglum ichra ko‘rganlar,
Demishlarkim, shahidi bir buti abro‘kamondur bu.

Ne bo‘lg‘ay xasta ko‘nglum mojarosi yor ila Xotif,
Nechakim ul muhabbat ko‘rsatur to mehribondur bu.

* * *

Damekim, yig‘lar erdim, ul chamanpiro qduminda,
Bahori xuld erdi, gulfishon ashkim hujuminda.

Sahar chiqti araqrez buti xurshid ruxsorim,
Tarovat qolmadi gardun aro oyu nujuminda..

Qamu shirin kelur la’li labidin narm taqriri,
Halovat garchi bo‘lmas angubindin ayru muminda.

Oyirmas har musulmon qonidin bedod eli, bilmam,
Nadur maqsudi kofir ko‘zlari zaluminda.

Topolmas yuz biyobon qat’idinkim oncha jahd aylab,
Maqomekim, yetushtum man muhabbat marzu buminda.

Amir xattinga yozdi munajjim ruq’ai tole’,
Savodi ismi a’zam o‘ldi zohir har ruquminda.

Na til birla adoyi shukrin etmak istaram, Xotif,
Saodatlarki topdim shah Umar bo‘si qduminda.

* * *

Xol ila abro‘mudur ul chashmi jodu ustina,
Hind sayyodi chekib bo tig‘ ohu ustina.

Bel-u og‘zidin umrlardurkim o‘tar,
Xurdadonlar ichra qilu qol bir mo‘ ustina.

Ne Sikandar ko‘rdi ko‘zgusinda, ne jomida Jam,
Man ko‘ran so‘z jilvasin mir’oti zonu ustina.

Tish uza la’limudur yokim latofat yorig‘a,
Husn eli manzum etib yoqut-u inju ustina.

Ashkimi to‘fonidin zo‘r etti ohim sarsari,
O‘ylakim, gardun hubobi titradi su(v) ustina.

Ko‘zlaring o‘lturdi, pinhon qilma mushkin xolingni,
Jona keldim, lutf qil, taryoqu og‘u ustina.

Ro‘zgori tiyravu oshifta o‘ldi xotiri,
Nechakim, soldi nazar Xotif u gesu ustina.

* * *

Garchi ermas san kabi sohibjafolardin biri,
Muncha ham ermas sanga sabrozmolardin biri.

O‘tti Vomiq birla Majnun ishqi muhlik dashtidin,
Ohkim, yo‘qtur manim-la oshnolardin biri.

Javrlar erdi murodim yordin, yuz shukrkim,
Hosil o‘lmay qolmadi bu muddaolardin biri.

Nazm atvorinda dutdum shah Umar tab’iyatin –
Kim, emas hamto anga nozikadolardin biri.

Boshim uzra tushti Xotif iltifoti soyasi,
Manga tobmas nisbati oliy livolardin biri.

***

Ey xami zulfi kajat sarko‘b bar mushki Xito,
Ravshan az ruxsoraat oinai subhi safo.

Xush buvad ayyomi umru vasli jonon, lek bud
Orzu bisyor, fursat kam, falak nooshno.

Sarv az rashki qadat gardid chun favvora ob,
Dar jamolat gul zi shabnam g‘arqai mavji hayo.

Goh tundu goh xandoni, gahe chin bar jabin,
Az tu mezebad ba xubi in hama nozu ado.

Rext rangi xanda la’li dilkashi tu dar chaman,
Funcharo az rashk shud pirohani xubi qabo.

Tojikcha g‘azallar

Bog‘i olam bin, ki rang az ro‘i gulho raftaast,
Nolai jonso‘zi bulbul bemuhobo raftaast.

Dardi sar paydost holo dar mizoji la’li nob,
Sarxushi az nash’ai jomi musaffo raftaast.

Ag‘niyo bar joni miskin dar pai javru sitam,
Mehru oini muruvvat z-ahli dunyo raftaast.

Adl az sulton, hayovu hilm az ahli ulum,
Sabru tamkinu qanoat az raoyo raftaast.

Zuhd z-ahli xonaqohu ehtisob az muhtasib,
Obro‘i shar’ imro‘z az hadoyo raftaast.

Az zaifon pardai hilmu zi bemoron shikeb,
Az hakimon fahmu ta’sir az mudovo raftaast.

Hurmati mo‘i safed az piru rahm az navjavon,
Az gado ilhoh, ehson az saxoyo raftaast.

Tangchashmi jo‘sh dorad, mehmon ma’zur dor,
Tobi non dar oshyoni chashmi anqo raftaast.

* * *

Sina sad chok, hamchu man dar ishq rasvo kamtar ast,
Shonai zulfi chunun zanjir bar po kamtar ast.

Xokro kay ixtiloti bodu otash dar xayol,
Dar dili osudatamkinon tamano kamtar ast.

Z-in xumorobod agar doni g‘animat dardi sar,
Nash’a mexohi, majo‘ zinhor, mino kamtar ast,

Ey gado, dasti duo bar chashmi xud neh, ko‘r shav,
Z-on chi mexohi, muruvvat z-ahli dunyo kamtar ast.

NOZIL XO‘JANDIY

Avazmuhammad ibn Hojimuhammad Nozil Xo‘jandiy (1788-1876) Xo‘jand shahrida Hoji Muhammad Xo‘jandiy xonadonida tavallud topadi. Ona shahrida ilm tahsilini kamolotga yetkazganidan so‘ng Qo‘qon hukmdorlari saroyiga borib xizmat qilgan. U umrining 50 yilga yaqinini o‘sha davrning ilmu adab markazi bo‘lgan shu shaharda o‘tkazgan. U dastlab Amir Umarxon saroyida katta mavqe va obro‘ga ega bo‘lib, keyin saroy fitnalari qurboniga aylangan: saroydan quvilib, hatto bir muddat zindonda ham yotib chiqqan. Bunga uning hajviy she’rlari sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. “Haqiqatdan ham, o‘z asarlarida zamondan behad shikoyat qilgan, hajviy she’rlarida bir qator shaxslarni, ayniqsa firibgar ruhoniylarni ayovsiz tanqid qilgan shoirning xon saroyida yashashi mumkin emas edi. Shuning uchun ham Nozil faqirlikda, tanholikda yashashga majbur etildi. Shoir na o‘zining yurtiga qaytib keta olar va na durust hayot kechirish imkoniyatiga ega bo‘lardi”.

Nozilning “Majmuai shoiron” tazkirasiga kirmagani uning Qo‘qonga keyinroq borgani bilan izohlanadi. Lekin u Amir Umarxonga bag‘ishlab bir qasida bitgan va xon ham bundan mamnun bo‘lib “avaz” radifli g‘azal bilan javob qaytargan degan fikrlar ham mavjud. Uning Amiriy bilan munosabatlari yaxshi bo‘lib, so‘ng Nodir degan saroyda katta nufuzga ega shoir bilan o‘rtalarida nizo chiqib, uning badarg‘a qilinishiga sabab bo‘lgan. Bu voqea esa Muhammad Alixon davrida yuz bergan.

Nozil zullisonayn shoir bo‘lib, tojik va o‘zbek tillarida ijod qilgan. Undan bir devon va “Hashviyotnoma” meros qolgan. Devoni g‘azal, muxammas, qit’a, ruboiy, qasida, masnaviy, musammat janridagi namunalarni o‘z ichiga oladi. Umumiy hajmi 5704 bayt. Hofiz, Jomiy kabi shoirlardan ta’sirlangan. Nozil, Noziliy, Tiroziy taxalluslari bilan ijod qilgan. Tiroz shoirning tug‘ilgan joyiga ishora qiladi – chunki Xo‘jand Tirozi jahon nomi bilan mashg‘hr. She’rlari asosan ishqu oshiqlik mavzuida bo‘lsa-da, zamon manzaralari, davr kayfiyati ham ularda o‘zining yorqin aksini topgan.

“Devonning katta qismini g‘azallar tashkil etadi. Unda jami 594 g‘azal bo‘lib, ularning 319 tasi o‘zbekcha, 275 tasi tojikchadir. Shuningdek, devondagi 15 muxammasning 6 tasi o‘zbekcha, 9 tasi tojikcha; 272 ruboiyning 92 tasi o‘zbekcha, 180 tasi tojikcha; 28 qit’aning 12 tasi o‘zbekcha, 16 tasi tojikcha; 4 qasidaning 2 tasi o‘zbekcha, 2 tasi tojikcha; 3 masnaviyning 1 tasi o‘zbekcha. 2 tasi tojikcha; u musammatning 1 tasi o‘zbekcha, 3 tasi tojikcha”.

Xalq maqol-matallari asosida ruboiylar yaratib, “Zarbulmasal” kitobiga jamlagan – u o‘zbek va tojik tillaridagi 3 ming ruboiydan iborat”.

Bilmay peshonamga nimani yozganini
Ta’na qilishing, bilsang agar, aybu xato!

9

Ey, muncha urib lof navqironman deysiz?
Men asli falon ibni falonman deysiz!
Tun-kun, yaramaslar, qilasiz kibru havo,
O‘lim unut, ustuni jahonman deysiz!

10

Dard ahli uchun so‘zladim-yey chandon so‘z,
Haq ahliga Haq bobida ming alvon so‘z.
So‘z mulida ko‘p gavhari noyob teshdim,
Kibr ahli uchun aylamadim sarson so‘z.

11

Hajringda meni dardmand aylama, yor,
Dushman qoshida hojatmand aylama, yor.
So‘ziga ishonma sira g‘iybat ahlin,
Ovvorai manzili Xo‘jand aylama, yor.

12

Dil dog‘li, g‘aribman – ortda qoldi Xo‘jand,
Manglay sho‘rining boisi yurtim Sho‘rkand.
Edim haram ohusi-yu, taqdirni ko‘ring:
Bunda o‘z oyog‘imga o‘zim urdim band.

13

Ey voh, ablahlar shirinso‘z bo‘ldi,
Shirinso‘zlar dardi tengsiz bo‘ldi.
Ahvoli xarob bo‘lib zamon jabri sabab,
Yig‘lay-yig‘lay xoru jigarso‘z bo‘ldi.

(Tojik tilidan Ergash Ochilov tarjimasi)

RUBOIYLAR

1

Nokaslar ishiga har zamon hayronman,
Kibr etsa faqirlar, begumon, hayronman.
Bu dunyo najosatini deb pashsha kabi
El aylasa tun-kun to‘polon hayronman.

2

O‘z aybini o‘z ko‘zi bilan ko‘rsa kishi,
Bo‘lmaydi birovlar aybiga kulmoq ishi.
Botin ko‘zi ochiq bo‘lsa gar kishining,
Bo‘lmas xafa Haq so‘zdan bunday kishi.

3

Kim orttirayin deb mol-u dunyo o‘lgay,
Erta g‘ami deb bugun u hatto o‘lgay.
Ming-ming zaru moli bo‘lsa ham to‘ymas hech,
Hirsi qonmay, tilab har asno o‘lgay.

4

Qochgan beadabni ko‘rsa har on yaxshi,
So‘z-suhbatidan o‘t necha chandon yaxshi.
Bu kam kabi bir kaltabinu fitnagar u,
Yomon fe’lidan hamisha zindon yaxshi.

5

Ey koshki falakdan yetmasa menga zavol,
Har kim izidan chopmasam-yey soya misol.
Tuprog‘imni falak sovurmoqni tilar,
Menda ne xayol, ko‘ring, falakda ne xayol!

6

Bir yaxshi nom yaxshi ming olamdan,
Shohlardan-u, hatto Ibrohim Adhamdan.
Bu so‘zni Tiroziy so‘zladi soz, tingla:
Soz Rustamning ovozasi Rustamdan!

7

Ey xoja, hisob-kitobni qilgan yaxshi,
Ortingda qolar barchasi – bilgan yaxshi.
Bu so‘zni Tiroziy so‘zladi soz, tingla:
Xomtama bilan yashashdan o‘lgan yaxshi!

8

Ey xoja, qani, gapir, yaratganda Xudo,
Qildi menga jannatnimi, do‘zaxni ato?

G‘AZALLAR

Nechalar, ko‘rdimki, aylabdur base insho g‘azal,
Xush iborat, lafzi rangin, nozanin, zebo g‘azal.

Kibrdin bermish mujaddad ranglar devoniga,
Xalq bu tazmin ila ko‘rsa, degay: barjo g‘azal.

Lek ma’ni olamida sarbasar oluda so‘z –
Kim, chekib naqqoshi hojat xoniga go‘yo g‘azal.

Ne g‘azal – har nuktadin ko‘z yoshi jori bo‘lmasa,
Yo hurufidin ko‘ngul qoni emas paydo g‘azal.

Kilk o‘rnida qalamdin tommasi xuni jigar –
Kim, oni rangin demas ahli xirad bo‘lso, g‘azal.

Misra’i topsa kerak zevar muhabbat ganjidin,
Gul kibi bo‘yi junun orttursa sartopo g‘azal.

Garchi Nozil bebizoat Mavlaviyning fayzidin,
Ishqdin xoli tafakkur qilmadi aslo g‘azal.

* * *

Der emishlar aylagay insonni shayton vasvasa,
Bu g‘alat so‘zdur, qilur shaytonni inson vasvasa.

Zohiri so‘fi vale botinda fikri zavqi qayd,
Ahli olam vaz’idin bordur namoyon vasvasa.

Bog‘bon tadbiridin o‘rgandi gul tazvirni,
Yo‘qsa bulbulni qilur gulbargi xandon vasvasa.

Xonaqoh shayxini tabli da’visin izhoridur,
Tillarida zikri Hay, ko‘nglida pinhon vasvasa.

To muqayyad haqgo‘dur, ko‘ngul qilolmasdur hiyal,
Aylamish elni muqarrar ahli zindon vasvasa.

G‘ofil o‘lma jannata ahli zamon vasvosidin,
Odam o‘g‘lidur qilur g‘oroti imon vasvasa.

Topmadi bir chorai maqbul el ta’nosiga,
Hech kimni qilmadi Nozilcha hayron vasvasa.

* * *

Ahli dunyoning ko‘ziga ko‘rinur zebo sarig‘,
O‘ldururga jazb etar gar bo‘lg‘usi paydo sarig‘.

Gulgan ichra betarovat bo‘lsa mahzi rangi zard,
Qon ichida to‘lmaguncha bo‘lmagay ra’no sarig‘.

Zevari dunyo qizartmish bo‘lsa uqbodin xabar,
Garchi el rangi qizargandur bugun-fardo sarig‘.

Sarg‘ayur rangi taraddud birla dunyodorlig‘,
Har kim o‘z rangiga mo‘jazdur agar tillo sarig‘.

Holiyo, ko‘p istagandin ne bo‘ldi surxro‘,
Tongla rangidin natija ko‘rmadi aslo sarig‘.

Bul fanoyi nazlani hojat deyub bul vajhdin,
Ahli Haq dunyoga rangin qilmadi aslo sarig‘.

Do‘st yodi birla xushdur ko‘ngli shom-u sahar,
Qilmagay Nozilni rangin go‘shai tanho sarig‘.

* * *

Bu vayron mulki qayding, manziling obod qilmaysan,
Dili g‘amdidani Haq yodiga te’dod qilmaysan.

Senga berdi Xudo ne’mat, farovon bexirad qudrat,
Faqiru xastayu bechoralarni shod qilmaysan.

Badanda quvvating holo tovnolik nishonidur,
O‘zungni nega dunyo bandidin ozod qilmaysan?

* * *

Ko‘ngul ichiga kirgil nazzora etib bog‘i,
Bebodi xazon bormu har sabzaki yafrog‘i.
Yo lolani ko‘rdingmu ko‘ksiki emas tiyra,
Bul vajhdin aytildi: “Har dog‘ida bir dog‘i”.

* * *

Sudi jahon manga deb, qo‘yma o‘zing garovga,
Boshqaga neki erur, tushma bu koftukovga.
Billoh, g‘alat emas bu so‘z dedi haqparastlar:
“O‘zungga ur pichog‘ni, og‘rimasa birovga”.

* * *

Turfa vaqt o‘ldi, quloq solmaslar, ey alhochiga,
Yo tarahhum qilmag‘aylar luqma qorni ochishga.
Rost keldi avliyolar, Nozilo, aytgan so‘zi:
“Har kim kul tortadur jahl ila o‘z kumochiga”.

* * *

Umrimni qimordek naqdin urib sikkaga,
Oxirda ko‘zim ochsam, olchimu deyub chikka.
Dik-dikkada umrumni begona qurub mundog‘,
Har xesh-u tabor aytti: “La’nat bu tiriklikka”.

* * *

Kecha-kunduzga aylabon xizmat,
Yetim ahli hamisha purmehnat,
Bu sababdin doim mashoyixlar”
“O‘z oshin yeru tortadur mehnat”.

Bu zamonda har kim bor, o‘zi bilan giriftor,
Bu masal eshitdingmi: “tani boshqa dard bilmas”.

* * *

Avvalda qilma zinhor ko‘ngulni pora-pora,
Tig‘i jafo, sitamdin zulm ila qilma yora.
So‘ngra desang qiloyin behbud marham ila,
Bul anga o‘xshar, ey jon: “To‘ydin keyin nog‘ora”.

* * *

Balandu past demak shu zamonda kimga zarur,
Jaholat ila ham derki, man shahi Mansur.
“Ne qoldi emdi?” – dedilar mashoyix ul vaqti:
“Eshak eshakdin qolsa, qulog‘ini kesadur”.

* * *

Zoli zamon harinasi qo‘lda kalid, qulf ochar,
Siymu zarini beibo xohlasa har taraf sochar.
Qilma mahalli e’timod – demadilarmu yaxshilar:
“Kelsa banogahi dovush o‘runga banda qul qochar”.

* * *

Oqil eli ish tutar – yo‘q anga bir g‘adir-budur,
Johil esa qilur ani tavri uza shatir-shutur.
Oni bilib, bu so‘z dedi ahli kamoli haqparast:
“Bolaga toki ish buyur, orqasidin o‘zing yugur”.

* * *

Behuda so‘zing bas qil har kimsaning yuziga,
Ta’zir ne hojatdur aytgan oni so‘ziga.
Xoh yaxshi-yamon dam tut, pand o‘lmadimu bu so‘z:
“Har kimniki o‘ziga – xush ko‘rinar ko‘ziga”.

* * *

Xalqqa na hojat edi hiylayu makru qilu qol,
Naf’u zararni ko‘rsatib, yozu qish ila oyu yil.
Demadilarmu yaxshilar elni saodati uchun
Bil mustahiqki bu so‘z: “Barchani qo‘y, o‘zingni bil”.

Bu gulshan ichrakim, qo‘yding qadam ko‘p xor-xor, oxir,
Teshar ko‘ksumni bulbuldek sahar faryod qilmaysan.

Tiriklik taxtida sulton erursan o‘z xayolingda,
Badan mulkiga muncha zulm, adlu dod qilmaysan.

Valiyu xojayu ozodman deb lof urub doim,
Takabbur uyini vayron etib, barbod qilmaysan.

Havas birla bitursan yuz tuman xat fikri botinda,
Chining lavhida yozgan xating ustod qilmaysan.

Rivoji dinu millat istar ersang shomdin to subh,
Tutub g‘am go‘shasin Nozil kabi bedod qilmaysan.

* * *

Torikistonga giriftor etdi tab’i ravshanim,
Choshtgohim – shomi g‘am, ko‘yi balodur – maskanim.

Tiyrboroni malomat uzra egnimda libos –
Kim, jihod ahli bilur javshan nechuk pirohanim.

Xalqning zaxmi zaboni birla minnat toshidin,
Na ko‘nguldur bejarohat, na salomatdur tanim.

Subhdin to shomi xuftandin keyin to vaqti fayz,
G‘am tutunidin dame xoli emasdur ravzanim.

Kishvari dardu baloyu g‘ussa, g‘am sultoniman,
Hashmatim – hasrat, siyohim – g‘am, alamdur – maxzanim…

* * *

Har xora tosh xanjari po‘lod bo‘lmagay,
Yo tog‘a ishlagan bila Farhod bo‘lmagay.

Jon qiynamay har ilm takrorin etmasa,
Maktab o‘qug‘oni bila ustod bo‘lmagay.

Har noxalaf muqallid agar bo‘lsa shuaro,
Fikri salimu tab’i xudodod bo‘lmgay.

Har shayx xonaqohda riyo birla vajd etar,
Ud xudnamo fazilatga avtod bo‘lmagay.

Har xonumonki, zulm ila vayron bo‘g‘usi,
Chug‘z istiqomati bla obod bo‘lmagay.

Ming yil jahon tarbiyat etsang jafo chekib,
To‘ng‘uz tarog‘i naxlasi shamshod bo‘lmagay.

* * *

Kibrdin qo‘ldin berib jannatni, xurram so‘filar,
O‘zlaridek bormukin dunyoda odam so‘filar.

Bir-biriga munglashib, taqvosidin aylab bayon,
So‘z ila elni qilib bobi jahannam so‘filar.

O‘zlarini ko‘rsatib el ko‘ziga zoru nahif,
Lekin pinhoniy tutub har ishni mahkam so‘filar.

Qilmayub andishai bu shubha yo moli harom,
Ahli olamga tutub o‘zni musallam so‘filar.

Doimo qilmishlari o‘g‘riligu ujbu havo,
Haq taolodin uyalmasdin muttaham so‘filar.

Oshno aylab o‘ziga necha dunyodorni,
Chirmashib olgay ani bo‘yniga mahkam so‘filar.

Noziliy, zinhor bu makkoralardin tut kanor,
Bilmasun holi dilingni beshu yo kam so‘filar.

* * *

Olamda bo‘lub paydo ko‘p xalqi xudobezor,
Ko‘nglida qalandardur, el ta’nidin etmas or.
Yemas dunyo g‘amini, nechunki “Xudogo‘y”dur:
“Har yerga agar borsa, osh o‘lsa, qozon tayyor”.

* * *

Jono, nasihat aylay, zinhor tut, unutma,
Har ishdur ixtiyoriy – bori ko‘ngul sovutma.
Eshitmading – valiylar ta’kid birla aytti:
“Sen o‘zni ehtiyot et, qo‘shningni o‘g‘ri tutma”.

* * *

Sho‘ru shar sohibi g‘ururniki,
Jomi may, nash’a har duburniki.
Ohu afg‘onu dodu faryoding
Emdi bas qil: “Zamona zo‘rniki”.

* * *

Gar qaro yerga tun qotar dedilar,
Tole’i bo‘lsa, pul topar dedilar.
Tunda borsa mabodao betole’:
“Tyeva ustida it qopar”, – dedilar.

* * *

Har kishi agar oqil – o‘z ishini ko‘zlasun,
Eshitib nasihatni, pand olurga yuzlasun.
Bu zamona xalqini, angladimki, dermishlar:
“Og‘zi bo‘lsa ham qiyshiq, boyni o‘g‘li so‘zlasin”.

* * *

Bazlu ehson suyiki oqmasdur,
Kimga boqsang, yuzingga boqmasdur.
Xoh qozi, muftiyu o‘zga kishi –
Kim: “Quruq so‘z quloqqa yoqmasduo”.

* * *

Yuzi rohata qizorgan g‘ami rangi zard bilmas,
Chun asiri ishq bo‘lmay, dili ohi sard bo‘lmas.

O‘zdin yuqorini ko‘zga ilmas hargiz.
Gavhar sochib, aytdilar so‘zni, ey yor:
“It qilgonini itorchi qilmas hargiz”.

* * *

Osmon ostida qon ichu toshim,
Bo‘ldi yuz rang ila ko‘z yoshim.
Manga pand o‘ldi – neko‘lar dedilar:
“Oz oshim gar bo‘lsa, g‘avg‘osiz boshim”.

* * *

Ahli olam ko‘rdik yaqinu yiroq,
Non uchun guftugo‘yi jangu tayoq.
Bul jihat jumlai mashoyixlar”
“Och qornim, – dedi-yu, – tinch quloq”.

* * *

Birligu havas qilsa ko‘ngilda tamanno kas,
Til uzra qilib xori demak oni qilsun bas.
Sharmandaligi zohir etganda bo‘lur yo‘qsa,
Albatta chindur bu: “Bir kunga ho‘kiz o‘lmas”.

* * *

Har ishda zaruri tag‘oful sanga,
Kerakmas xazina va yo pul sanga.
Hama mehnat ila muyassar bo‘lur:
“Qul olma, qarigan onang qul sanga”.

* * *

Avvalda ehtiyot et har ish agar qilursang
So‘ngra ne nafu afsus, boshingcha yiqilursan.
Ta’kid etib mashoyix aytti senga bu so‘zni:
“Yopinchiq qo‘yma yozda, qishda o‘zing bilursan”.

* * *

Turfa joy ekan dunyo – o‘zidan nari bilmas,
Ko‘p havasga sargashta, ko‘zga boshqani ilmas.
Asayu qiyomidek har taraf sarosima:
“O‘z ishiga darmonda, it egasini bilmas”.

* * *

Go‘ng titarga turfa usto, Andijon ko‘ppaklari,
Solg‘uchi olamga g‘avg‘o Andijon ko‘ppaklari.

Ahmaq-u narg‘o‘l-u fahj-u ablahi beobro‘,
Dog‘i tutgay o‘zini dono Andijon ko‘ppaklari.

Xirsdin bir mo‘ kam ermas, bil kasofotda fuzun,
Bilmagay o‘zini aslo Andijon ko‘ppaklari.

Ko‘r hurmoq, to‘nni yirtmoq odatidur barchasin,
Go‘ng yemoq qilmish muhayyo Andijon ko‘ppaklari.

Qarg‘a tumshuq, kalta quyruq, aqli kam, bo‘yi uzun,
Bu kasofatlarga ifsho Andijon ko‘ppaklari.

Bul kuchuklarni qilursan tarbiyat sonsiz mahal,
Bo‘lmagay sohib muammo Andijon ko‘ppaklari.

Gar shumor etsang ham maxovu pesu qulg‘una,
Barchadin albatta a’lo Andijon ko‘ppaklari.

* * *

Bir qalbi Marg‘ilonsan, ayt, sen kimu rasolig‘?
Muhtoji oshu nonsan, ayt, sen kimu rasolig‘?

Yo‘q botiningda aslo mardumga oshnolig‘,
Zohirda mehribonsan, ayt, sen kimu rasolig‘?

Kibru havodin elga shaytoncha shuhrating bor,
Olamga dostonsan, ayt, sen kimu rasolig‘?

Kim pastu betamizdur yo bo‘lsa o‘g‘ri, anga
Albatta yori jonsan, ayt, sen kimu rasolig‘?

Shoirlar ichra yo‘qdur bir zarra obro‘ying,
Sharmandai jahonsan, ayt, sen kimu rasolig‘?

Og‘zing ocharga qo‘ymas majlisda bo‘lsa dono,
Nodonga nuktadonsan, ayt, sen kimu rasolig‘?

MUXAMMAS

Turfa sarsonlikka soldi anjumanoro meni,
O‘z gunohim ne, bilolmsam, ayladi rasvo meni,
Yuz qiyomat shiddati ko‘nglumda etti jo meni,
Muddaosi ne ekan, ul la’li jonafzo meni
Bandi zindon ichra soldi – o‘ldurur oyo meni?

Kecha-kunduz xizmatidin sarfaroz aylar edi,
Mehribonlik daftarin oldimda boz aylar edi,
Ko‘rsatib yuz lutfu ehson, qahr oz aylar edi,
Goh suyub, gohi so‘kub, gohi aroz aylar edi,
Qo‘ymab erdi muncha zoru notavon, tanho meni.

Men g‘arazgo‘yga ishim yo‘q – qildi taqdiri Xudo,
Sen kibi shoh xizmatidin nogahon bo‘ldum judo,
Kunji g‘am ichra qolibman – boshima yuz ming balo,
Tondi mendin yor ila begonayu ham oshno,
So‘rmagay holimni g‘amdin o‘zgalar aslo meni.

Nahsi akbar bo‘ldi go‘yo toleyimning axtari,
Ohu afg‘on, so‘zu dardim xotiringdindur nari,
Lutf andak, qahr beandoza – haddin tashqari,
Bu jihatdin qoldim hayronu parishon, sarsari,
Oxir ul-amr etti davron-u falak rasvo meni.

Bir kishim yo‘q hazrtingda arzim izhor aylasa,
Nomai dardim o‘qub, oldingda takror aylasa,
Ne g‘amu hasrat chekam sensiz – namudor aylasa.
Men gadoman, oh, sendek shoh agar or aylasa,
Dog‘i Iskandar qilur, Nozil, g‘ami dunyo seni.

TO‘RTLIKLAR
(“Zarbulmasal”dan)

Sokit o‘l, Nozilki, sen holingga boq:
Bormu fan xomushliqdin yaxshiroq?
Yo‘qsa shahanshoh demasdi bu masal:
“So‘zlagandin tegdi boshingga tayoq”.

* * *

Istadim Shom-u Roy-u Iroq,
Balki kezdim sarosari ofoq.
Ko‘rmadim hech shahru sahroda
“Yerda qolgan bo‘lsa teshik munchoq”.

* * *

Dedim: hama bor oxiri damda o‘lar,
Erib badani, ko‘ziga tufrog‘ to‘lar.
Ibratga ko‘z ochmagan haromilardur:
“Ishtonsiz-u dog‘i tizi yirtiqqa kular”.

* * *

Bas shirin so‘z dedilar ahli tamiz,
Bo‘lsa dunyoda Xisravi Parvez,
Topsa siymin xazinadin behad:
Suq to‘yub, o‘g‘ri boyimas hargiz”.

* * *

Olsun quloqa pandim, gar zinda bo‘lsa mayit,
Hamsuhbati har odam bo‘lmay harifi har it.
Eshitmading bu so‘zni – ahli xirad dedilar:
“Qushni yamoni ang‘it, odam yamoni mang‘it”.

* * *

Teng tutma o‘zung ayoqyalang xofi bilan,
Yo umr o‘tadur madrasa avqofi bilan.
O‘tgan valilar muncha inoyat aylab:
“Teng tengi bilan, – dedi – tezak qofi bilan”.

* * *

Noasl kishi o‘zini bilmas hargiz,

On ki sad sangi malomat ba sarash xo‘rda zi xalq
Poyash az ko‘i vafoyat nakashidast, manam.

On ki az durii ahbob chu Sho‘xi har dam
Jigarash xun shuda az dida chakidast, manam.

* * *

Sinaso‘zam, zabonai ishqam,
Dilxarosham, taronai ishqam.

Nola az man balandparvoz ast,
Bulbuli oshyonai ishqam.

Zaxmsozandai dile afgor
Tiri oham, nishonai ishqam.

Shohi dil dar kanori xud doram,
Pardai shomiyonai ishqam.

Chashmi some’ zi man xatar dorad,
Giryaovar fasonai ishqam.

Dar shabi oshiqon ba kor oyam,
Nolaam, sham’i xonai ishqam.

Tavsanam kohili namesozad,
Dast bar toziyonai ishqam,

Husni Shirin nizomi man xohad,
Shavkati xusravonai ishqam.

Forig‘ az dayru ka’baam, Sho‘xi,
Sokini ostonai ishqam.

Gar ba mehmoni ba har jo po nihi, hushyor bosh,
Didai anqost, noni xushk har jo kamtar ast.

Qatrason az xud tihi gum gashta dar bahri fano,
Hamchu Nozil dar muhabbat durri yakto kamtar ast.

* * *

Sham’i ummedam ba shomi nomurodi so‘xt-so‘xt,
Jomi ishrat shud nagun, az kajnihodi so‘xt-so‘xt.

Domani vasli tu mahkam dosht dil, oxir bubin,
Z-otashi hijron ba dog‘i e’timode so‘xt-so‘xt.

Har ki az in ko‘rai otash, ki “dunyo” nomi o‘st,
Sar burun omad zi dudi g‘am ba shodi, so‘xt-so‘xt.

Lolason Layli rahi sahro girift-u dog‘ kard
Otashi savdo ba sar, Majnun ba vodi so‘xt-so‘xt.

Har kase dar dil xayoli ro‘i otashnok dosht,
Hamchu man dar tobai hijron fitodu so‘xt-so‘xt.

Dudi g‘am dar sina so‘zon, yor mego‘yad: «Chi shud?»
Kosh, Nozil hargiz az modar nazodi, so‘xt-so‘xt.

* * *

Surati vahmist oyad dar xayol, olam kujost?
Farz bishmori, ki olam hast, ku odam? Kujost?

Har kasero bingaram, dar motame pechida sar,
Funchason xuni jigar dorad ba dil, xurram kujost?

Jomi dono z-inqilobi davr labrezi g‘am ast,
Ablahonro nash’ai shodist dar dil, g‘am kujost?

Bori ozodi havas dori ba dil, rav, rost bosh,
Sarvi bo‘stonro ba qomat joi pechuxam kujost?

Az dami teg‘i havodis dog‘am az ta’jili umr,
Sina purzaxm ast, ammo fursati marham kujost?

Ey ki mego‘i ba Nozil: “Xez rav z-in jo digar”,
Bigzaram z-in manzili vayrona, obodam kujost?

* * *

Yor ranjid az mani miskin, namedonam, chi shud,
Bo raqibon raft botamkin, namedonam, chi shud.

Joy dar og‘o‘shi jonho dosht shabho, holiyo
Bexabar az sinai g‘amgin, namedonam, chi shud.

Fofil az tadbiri sayyodon, ba domi bexudi
Shud giriftor ohui miskin, namedonam, chi shud.

Az baloho dar shabi torik xohad rextan
Az jigar xunobai rangin, namedonam, chi shud.

Panjai nozash, ki az rangi hino ozor dosht,
Az kashokash soidi simin namedonam, chi shud.

Matlai devoni Nozilro raso fahmidai,
Maqtai o‘ ham bad-in tazmin «namedonam, chi shud.

* * *

Ey dil, archand zi davron ba tu bedod rasad,
Kist dar zeri falak bo tu ba faryod rasad?

Juz dami teg‘i jafovu sitami reshi jigar,
Marhami zaxm kujo bar dili noshod rasad?

Xusravon dar g‘ami dunyovu ba shirinkori
Bexabar az g‘ami zahre, ki ba Farhod rasad.

Hama dar taxti halovat chu Sulaymon, forig‘
Bexabar az dili mo‘re, ki varo dod rasad.

Rozi xud oshiq tavon binhufta saxt,
Barqro xirman agar pinhon kunad.

Sho‘xiyam, az jo naxohad raft, agar
Sad navozish soqii davron kunad.

* * *

Ro‘zgore zi falak dard kashidem, raftem,
Alam az minnati nomard kashidem, raftem.

Bahri qute mani savdozada z-in dayri xarob
Gardi kulfat ba ruxi zard kashidem, raftem.

Juz kudurat ba nazar zeri falak ro‘y nadod,
Raxt az in vodii purgard kashidem, raftem.

Xost, to rangi iqomat ba jahonash rezad,
Siliye bar dili nomard kashidem, raftem.

Hujjati ahli jahon to ba dilam nash’a nadod,
Poy az in anjumani sard kashidem, raftem.

To kushudam ba jahon didai ibrat, Sho‘xi,
Ohi sard az dili purdard kashidem, raftem.

* * *

Dar jahon on, ki ba kome narasidast, manam,
Gule az gulshani omol nachidast, manam.

Tiraro‘ze, ki dar ayyomi hayotash ba jahon
Hyej subhye zi shabi o‘ nadamidast, manam.

Talxkome, ki dar in bazm ba komi dili xesh
Jur’aye az kafi soqi nachashidast, manam.

Bog‘bone, ki ba gulzori umedash hargiz
Qadami bodi bahori narasidast, manam.

* * *

Az sipehri bemuruvvat g‘am ba joni mo rasid,
In kamonro tir-sh oxir bar nishoni mo rasid.

Bar zamin chandon chakid az didaho selobi ashk,
Mavjai xunobi hasrat to miyoni mo rasid.

Pandi noseh dog‘hoi sinaro afsurda soxt,
Zahmati bodi xazon bar gulsitoni mo rasid.

Be muhobo imshab on berahm dar bazmi raqib,
On qadar binshast, to gardun fig‘oni mo rasid.

Chashmi kofarkeshi o‘ anjom dinu dil rabud,
In farangi rohzan bar korvoni mo rasid.

Poymoli dahr moro gavhari guftor kard,
Bar sari mo oqibat teg‘i zaboni mo rasid.

Chand, Sho‘xi, az tahammul bar jigar dandon nihem,
Teg‘i bedodi falak bar ustuxoni mo rasid.

* * *

Kohi g‘amro jilvaat yakson kunad,
Mushkili dilro g‘amat oson kunad.

Metavonad xo‘shachini husni tu,
Zarraro xurshed dar domon kunad.

Bulbul az shavqi ruxat nolon shavad,
Funcharo zavqi labat xandon kunad.

Jilvaat har jo, ki bardorad niqob,
Didaro oinavash hayron kunad.

Ishq chobuk dast bar chavgon zanad,
Charxro chun go‘y sargardon kunad.

On chi bar man ravad az zulm, dar in davr kujo?
Fami murdan ba dil az xanjari jallod rasad.

Vaqti on shud, ki dar in baldai vayronbunyod,
Jug‘zi vayronatalab manzili obod rasad.

Nozil, imro‘z ba fardoi qiyomat biguzor
Shoyad on jo, ki Xudovandi tu bo dod rasad.

* * *

Naqshi ro‘yat zi zamiram ba sad afsun naravad,
Joi on dosht, ki peshin ravad, aknun naravad.

Vaqti gul, fasli bahoron ba tamosho maxirom,
Dida az rashk mabodo ki ba homun naravad.

Rangi bo‘i guli har bog‘ ba imkoni fanost,
Ruxi zeboi tu az didai purxun naravad.

Zi g‘ami hajri tu har shab chu nay az sinai chok,
Nayam on kas, ki fig‘onam so‘i gardun naravad.

Bideh insof, tu xud go‘, ba chunin bedodi,
Xuni dil az rahi mijgon zi g‘amat chun naravad?

Nozili az g‘ami chun tu sanami layliasos,
Gashta Majnuni tu az shahr ba homun naravad.

* * *

Hech kas, yo Rab, nagardad bo mani Majnun duchor,
Az g‘ami Layliy xud bo didai purxun duchor.

Kay amon yobad kase az inqilobi davri charx?
Har kujo sargashta az g‘am meravad gardun duchor.

Z-obi chashmash shomi hijronat ba har so‘ dargurez,
Bas nameoyad, shavad bo Dajla-vu Jayhun duchor.

Toza sozad yodi la’lat nash’ai jovidro,
Kay g‘am az xamyoza oshiqro mai gulgun duchor?

Olihimmatro az in dushvortar n-oyad ba dil,
Margosoyash agar gardad ba shaxsi dun duchor.

Juz gadoi bar sari ko‘i tu Nozilro ba chashm,
Kay shavad, manzur gardad taxti Afridun duchor?

* * *

Hirsi in dunyoparaston kufri pinhoni shumor,
Ishqi zebotal’atonro rav, musulmoni shumor.

Az muhabbat qatrai ashke, ki rezad bar zamin
Hosilash gavhar dihad, bar abri naysoni shumor.

Xuni dil dar parda paydo kun, namo hifzi nafas,
Alg‘araz xomo‘shii labro suxandoni shumor.

Hamdami yakdigarandu bori dunyo mekashand,
In hamoqatpeshagonro govi kahdoni shumor.

So‘z hamchun lola, az laylivashon minnat makash,
Bori dog‘i sinai Majnun pinhoni shumor.

Har kujo, Nozil, agar nazzorai didori o‘st,
Aynaki chashmi tamanno mahvi hayroni shumor.

* * *

La’lat az shirini otash zad ba Kavsar, in chi sehr?
Xuni mino rext az g‘ayrat ba sog‘ar, in chi sehr?

Bog‘bon naxli qadat bo xuni dil meparvarid,
Bulajab bo digaron gashtan musammar, in chi sehr?

Bo vujudi abruyu ro‘i safoyinqiblaat
Sajda zohid kard bar mehrobu minbar, in chi sehr?

Labrezi shuo’ ast zi yodi ruxi ma’shuq,
Mamnuni charog‘ye nabuvad anjumani mo.

Murdem, naraft az dili mo hasrati chashmash,
Bo‘i guli bodom rasad az kafani mo.

Dar paykari mo rext safo baski xayolash,
Chun pardai mahtob buvad pirahani mob

Chun daftari gul pur zi latofat shuda Sho‘xi,
Devoni tu az xomai ranginsuxani mo.

* * *

Dida to nargisi shodobi tu didan girad,
Hamchu ashk az mijja nazzora chakidan girad.

Dar kanoram shuda xurshedi xayolat, chi ajab,
K-az gireboni shabam subh damidan girad.

Teg‘i abrui tu har goh ba xotir guzarad,
Murg‘i dil dar qafasi sina tapidan girad.

Yod sozam ba chaman jomai gulguni turo,
Funcha pirahani nomus daridan girad.

Zeri gardun nabuvad bar dili man oromi.
Chun g‘izole, ki zi har soya ramidan girad.

Oshiqi mast ba yak millatu mazhab nabuvad,
Ore, devona ba har ko‘cha davidan girad.

Osmon punba fuzuntar binihad dar go‘shash,
To zamin nolai betob shunidan girad.

Adabi mard ba miqdori kamol ast, Sho‘xi,
Shox purbor chu gardid, xamidan girad.

Guli roʻi tu dida nargis guft:
«Xob boshad harom oshiqro».

Shoʻxiatro ba xoki rah binshon,
K-in buvad ehtirom oshiqro.

* * *

Z-on dimogʻ orost chun gul daftari rangini mo,
Boʻi maʼni mechakad az xomai mushkini mo.

Mo ba sad selob sarxatti tahammul dodayem,
Langari koʻh ast dar shogirdii tamkini mo.

Mardro angushnamo taʼrifi mardi mekunad,
Koʻhkan shud shuhra az afsonai Shirini mo,

Xeshro dar otashi gʻam on qadar bigdoxtam,
K-az dili mijmar alam zad shuʼlai tahsini mo

Mo na on abri bahoronem, k-az mo xavf nest,
Koʻhro selob sozad giryai sangini mo

Nest imroʻzi figʻone, k-az dili mo sar kashid,
Ruhro talqini qolab dosht in talqini mo,

Toʻtiyoni shahr, Shoʻxi, xuni hasrat mexoʻrand,
Surxminqorand az kilki suxanrangini mo.

* * *

To sar zada az shikvai toleʼ suxani mo,
Chun xoma siyah gasht zabon dar dahani mo.

Moro ba zamin charxi jafokesh chunon zad,
Chun soya muyassar nashavad xostani mo.

Az tesha chu Farhod zabonkutahiyash nest,
Bo noxuni xud kor kunad koʻhkani mo.

Murdam az shavqi visolat, zarra gardidam hanoʻz
Tinati xokam ba hijron shud muxammar, in chi sehr?

Rosti az sinai in goʻshagiron burdaast
Chun kamon andar kaji charxi mudavvar, in chi sehr?

Az hujumi girya chashmam gasht nobino, nashud
Xoki poyat toʻtiyoi didai tar, in chi sehr?

Az gadoi yoft Nozil rutbai oli, chi bok,
Roʻygardon shud zi taxti sar zi afsar, in chi sehr?

* * *

Merasad mujdai vasl az soʻi jonon kamu besh,
Bo mani soʻxta dar otashi hijron kamu besh.

Bastai zulfu ruxat rohi kushoish dorad,
Monda boshad asar az gabru musalmon kamu besh.

Shuhrati xomai Moni ba jahon anqo shud,
Xatti mushkini tu nanvishta ba devon kamu besh.

Aksi ruxsori tu uftod, sarosar ob ast,
Kay shavad oina bar roʻi tu hayron kamu besh.

Qatraye ob zi daryoi karam, boroni,
Shustushoʻ yobad az on nomai isyon kamu besh.

Umrho shud, ki bar on dar sari Nozil xok ast,
Ba umede, ki rasad gard ba domon kamu besh.

* * *

Judo az doʻston umrest, man ranji safar doram,
Ba rangi lola otash bar saru dogʻi jigar doram.

Manoz, ey boʻston, bo gʻunchavu gul dar shukuftanho,
Ki man xuni dili sadporayu rangi jigar doram.

Kujo az tirabaxti voraham dar arsai imkon,
Nasibam tegʻi bedod ast, tabʼi nayshakar doram,

Dili ozurdaam kay bolad az shohanshahi, billah?
Faribi xoksoram, toj agar zarrinkamar doram.

Mazan sang az nasihat, noseho, dar sinai tangam,
Dili nozukado az shisha, ohi pursharar doram.

Ba har jo meravam, az so‘xtan forig‘ nayam,
Nozil, Ba rangi sham’ so‘zish dar tanu jon purasar doram.

* * *

Oh, davroni falak dar sinaam zad tiri g‘am,
Lashkari dilro pareshon soxt az shabgiri g‘am.

Xonumon barbod raft az javru zulmi beqiyos,
Xud ba xud darmonda, chun sozam kunun tadbiri g‘am?

Bo vujudi g‘ayrati mardonagi ovard zo‘r,
Andar in maydon furo‘ mondam zi dorugiri g‘am,

Onchunon tiflam, ki har shab to dami hangomi subh,
Doyai geti maro meparvarad bo shiri g‘am.

Az baroi justani Layli ba har so‘ meravam,
Hamchu Majnuni biyobonam ba po zanjiri g‘am.

Yoftam ogohi az tahqiqi in ma’ni ba jon,
Shukr lillah, nestam, Nozil, kunun dilgiri g‘am.

* * *

Husham az sar darrabudi, go‘, chi guftor ast in?
Yo chi la’li shakkarosori guharbor ast in?

Besutuni tan dar otash so‘xti Farhodvor,
Joni Shirin bar lab ovardi, chi kirdor ast in?

Oyad az tu dardu ranju mehnatu ando‘hi g‘am,
Bulhavasro dardi bedarmon, ba mo yor ast in.

TOJIKCHA G‘AZALLAR

Be g‘am dile nagasht dar in ro‘zgori mo,
Yak g‘unchaye shukufta nashud dar bahori mo.

Dar bog‘i dahr boisi ozori kas nayam,
Bulbul zaboni shikva nadorad zi xori mo.

Az softinati gili moro sirishtaand,
Oinaro xatar nabuvad az g‘ubori mo.

Murg‘e chu mo malul dar in saydgoh nest,
Sayyod karda nang ba xud az shikori mo.

Mo dar xayoli nash’ai la’li tu murdayem.
Natvon shikast bodai kavsar xumori mo.

Bahrem, jo‘shi didai to‘foni hodisot,
Kishtii No‘h rah nabarad dar kanori mo.

Ba’d az fano ham az dili mo nola sar kashad,
Sho‘xi, chi hojat ast alam bar mazori mo.

* * *

Chist be tu mudom oshiqro?
Xuni hasrat ba jom oshiqro.

Xizr obi hayot mexohad,
Bod la’lat ba kom oshiqro.

Sar ba afsar nayovarad giram,
Sad humo shud ba dom oshiqro.

Bo Sikandar jahon taslim shud,
Kishvari g‘am ba nom oshiqro

Metapad dil zi omadi ma’shuq,
To rasonad payom oshiqro.

RUBOIYLAR

1

Afsus, bu bazmdan hariflar ketdi,
May shishasidek tab’i latiflar ketdi.
Sindir qalamu qog‘ozni kuydir, Sho‘xiy,
So‘zingni tushunguvchi zariflar ketdi.

2

Sipqorsa zahar to‘la qadahni odam,
Yo yotsa zindon ichra tortib g‘am,
Hatto qotil tig‘iga duch kelsa ham,
Yaxshi bari johilga bo‘lishdan hamdam.

3

Jannat-da sening g‘amingdan o‘rtangay zor,
Tovusni go‘zal yurishing etmish abgor.
Gul pardasidan tikib olibsan ko‘ylak,
Nozik taningga yetmasin undan ozor.

4

Menga bu falak qilmadi shafqat bir on,
Rasvoi jahon etdi meni bearmon.
Deyishdi: “Boshingga navqironlik keldi”.
Bo‘lguncha men ogoh o‘tdi ushbu davron.

5

Qurbon bo‘layin dilgaki kelgay bo‘yi dard,
Gar bo‘lsa talab changalida etagi mard.
Sevib solaman nazarni shunday yuzga,
Faqr ichra sarg‘aymish-u, qo‘nmish yana gard.

(Tojikchadan Ergash Ochilov tarjimasi)

Shahdi vasli ta’mi hijronro ajoib lazzatest,
Sharbati kavsar buvad on, zahrai mor ast in.

Jannat-ul-firdavs agar go‘yam, az on olitar ast,
Joni man bodo fidoyat, go‘, chi didor ast in?

Har ki binad sinaam, purzaxm go‘yad, Nozili,
Gul furo‘shi chashmi badxohon agar xor ast in.

* * *

Zarraosoram, kamoli oftob az man shunav,
Beqaror az ishqi o‘yam, iztirob az man shunav.

Hamchu mo‘ az notavoni zor gashtam bahri vasl
So‘xtam dar otashi g‘am, pechutob az man shunav.

Olame dar shavqi rohat xostand az ayshi man,
Z-in miyon kardam baloro imtihon, az man shunav,

Har varaq dar sina sarmashqi dabiristoni ishq,
Go‘i yak harf az muhabbat, sad kitob az man shunav.

Zistan dar ishq be jonon muhol, ey muddai,
Mediham jon az g‘amash, holi xarob az man shunav.

Shayxi gumrahro nameboshad kushoish juz riyo,
O‘ ba kori xud muqayyad, fathi bob az man shunav.

Nozili, az dida joi ob xun kardam ravon,
Mavjai daryoi dardam, durri nob az man shunav.

SHO‘XIY XO‘JANDIY

Sho‘xiy (XVIII asr o‘rtalari–XIX boshlari) ning hayoti va ijodi haqida deyarli ma’lumotlar yo‘q. She’rlaridagi ishoralardangina uning Xo‘janddan ekanligi oydinlashadi. O‘z davrining mashhur orif shoiri Shaydo Xo‘jandiyning o‘g‘li. Bu ma’rifatli xonadondan ko‘plab shoir va shoiralar yetishib chiqqan. U ham boshlang‘ich savodni olilasida chiqarib, keyin Xo‘jandda va Movarounnahrning boshqa shaharlarida, jumladan, Buxoroda tahsil olib, ilmini kamolga yetkazgan.

XVIII asrning 50-yillarida Qo‘qonga kelib, Qo‘qon xonlari saroyida xizmat qilgan. “Uning she’rlari ichida bir necha she’riy ta’rixlar mavjud bo‘lib, bu ta’rixlardan biri Abdulkarimxon (1740-1754)ning o‘g‘li shahzoda Abdurahmonning qatliga bag‘ishlangan. U Erdonaxon (1754-1768) hukmronligi davrida ham Qo‘qon xonlari saroyida katta obro‘ va e’tibor qozongani ko‘rinib turadi”. Shahrisabzda dunyodan o‘tgan va qabri ham o‘sha yerda. Manbalarda Sho‘xiyning o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan shoirlaridan biri bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlarga duch kelamiz.

Mirzo Sho‘xiy Xo‘jandiydan 1761-yili tuzilgan bir devon yetib kelgan. U g‘azal, ruboiy, muxammas, masnaviy janrlaridagi namunalarni o‘z ichiga oladi. Xo‘janddagi “Kamol Xo‘jandiy ilmiy markazi” davlat muassasining rahbari Bahrom Rahmatov salmoqli so‘zboshi bilan shoir g‘azallaridan namunalarni tojik va fors tillarida nashr ettirgan. Sho‘xiy zullisonayn shoir bo‘lib, asosan tojik tilida qalam tebratgan bo‘lsa-da, o‘zbekcha g‘azal, qasida va muxammaslari ham mavjud. Forsiy ijodiga Xo‘ja Hofiz va Mirzo Bedilning, o‘zbekcha she’rlariga Mashrabning kuchli ta’sirini ko‘ramiz.

G‘AZALLAR

To gulshani olamg‘a sabodek guzar ettim,
Bir bo‘yi vafo topmadim, oxir safar ettim.

Ko‘rdimki jahon ahlini, ogoh emasdur,
Bir na’rai mastona bilan boxabar ettim.

To mamlakati faqr ko‘ngil qildi tamanno,
Kachkuli gadoyini olib, toji sar ettim.

Ustodi junun maktabidin ikki jahonni,
Bir nukta sabaq oldimu zeru zabar ettim.

Ishqing yo‘lida soliki bino bo‘layin deb,
Xoki qadaming oldimu ko‘hli basar ettim.

Oyinai ko‘nglumda safo bo‘lmadi hosil,
Harchandeki, man xizmati ahli nazar ettim.

Paymonai may chekti chaman ichra hariflar,
Man g‘uncha sifat zoiqa xuni jigar ettim.

Zohid qilib ul to‘shai rah ro‘za, namozni,
Man zodi rahim nolai ohi sahar ettim.

Sho‘xiy eshitib Mashrabi devona so‘zini:
“Tark ayladimu jumlani tarki nazar ettim”.

«ELNUR-PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi,
Toshkent sh., Navoiy 30.

* * *

Meravad har lahza bar avji falak faryodi man,
Kay ba dodi dil rasad on dilbari bedodi man.

Az kitobi bexudi hargiz sari xud barmador,
In sado bar go‘sh mezad silii ustodi man.

Mushti xokam baski iste’dodi obodi nadosht,
Xizr be po shud, chu omad bar sari bunyodi man.

Ne shudam shayxi haram, ne dayrro zunnorband,
To chi boshad hikmat, ey yoron, az in ejodi man.

Suhbati shirinlabon to shud ba komi Xusravon,
Xuni hasrat mechakad az teshai Farhodi man.

Az taalluq baski dilgir ast, Sho‘xi, mekunad
Poymoli afsari shohi sari ozodi man.

* * *

Shohidi g‘am dar kanoram, komroniro bubin,
Xuni dil vajh-ul-maosham, zindagoniro bubin.

Navbahori umrro ushkufai piri, vale
Gul zi shoxam mekunad, fasli javoniro bubin.

Az labi xud va’daye bo chini abru mekunad,
Mehruboniro nigar, nomehruboniro bubin.

Bar zabon az dil guzar nokarda arzi matlabam,
Mekunad yak-yak javobam, nuktadoniro bubin.

To shudam xoki darash Fag‘furu Iskandar zi rashk
Ob gashtand, e’tibori posboniro bubin.

To qalam bigrift Sho‘xi to‘tiyoni shahrro,
Zindagoni talx shud, shakkarbayoniro bubin.

Mundarija

Qo‘qon adabiy muhiti (So‘zboshi o‘rnida)…….....3
Amiriy……..…..15
Nodira……..…..25
Xon……...……..36
Uvaysiy……..……42
Fazliy……...……...48
Muhammadsharif (Uzlat, Mahjur, Nodir)……...……...68
Ma’dan……...…….72
Sadoyi……...……..77
Maxmur……...82
Gulxaniy……..91
G‘oziy……...……..94
Behjat……...……102
Shavqiy……...……..106
Dilshodi Barno……...……...111
Pisandiy…….115
Mirmahmud Qoriy……126
Ado……135
Abduqayum Vahmiy…….147
Hoziq…….151
Mahzuna……157
Ma’yus……...……...159
Azimiy……...……...166
Zokiriy……...……...171
Xotif……..……...174
Nozil Xo‘jandiy……..…….188
Sho‘xiy Xo‘jandiy…….207

QO‘QON ADABIY MUHITI IJODKORLARI ANTOLOGIYASI

Muharrir *M.Alimov*
Musahhih *X.Zokirova*
Texnik muharir *A.Yuldasheva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 247, 02.10.2013.
Bosishga ruhsat 28.12.2022. Format 60x84 1/16.
Garnitura «Times New Roman».
Shartli bocma tabog‘I 14.88. Nashr tabog‘i
14.66. Adadi 200 dona. Buyurtma № 87.